

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI Ph.D.03/04.06.2020. FIL.113.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

UO'K: 821.512.133.09-31

QURBANOVA GULBAHOR SAFAROVNA

NURALI QOBULNING QISSACHILIKDAGI BADIY MAHORATI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar:

Hasanov Shavkat Ahadovich

filologiya fanlari doktori, professor

JIZZAX – 2024

MUNDARIJA:

Kirish.....	3
I BOB. YOZUVCHI QISSALARIDA HAYOTIY ASOS VA BADIY HAQIQAT.....	10
1.1-§. Mahalliy kolorit, dramatik kolliziylar va psixologik tasvir.....	10
1.2-§. Davr voqeligi va uning badiiy talqini.....	31
1- bob bo'yicha xulosalar.....	51
II BOB. NURALI QOBUL QISSALARINING G'OVAVIY-BADIY XUSUSIYATLARI.....	53
2.1-§. Yozuvchi nasrida inson va tabiat uyg'unligi in'ikosi.....	53
2.2-§. "Tubsiz osmon" va "Oq kema": qiyos va talqin.....	66
2- bob bo'yicha xulosalar.....	80
III BOB. NURALI QOBUL QISSALARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI AN'ANALARI.....	82
3.1-§. Yozuvchi qissalarida folklorizmlarning o'rni.....	82
3.2-§. Xarakter va holat inkishofida maqol hamda matallarning ahamiyati.....	102
3- bob bo'yicha xulosalar.....	120
XULOSA	122
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	124

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги ва зарурати. Dunyo adabiyotshunosligida qissachilikning taraqqiyot bosqichlari, qissalar poetikasi bo‘yicha qarashlar hamda uning o‘ziga xos xususiyatlarini ohib berishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yozuvchining ijodiy laboratoriyasini kuzatish, badiiy asar talqini, xususan, qissalar poetikasi, masalalari yuzasidan jiddiy ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Epik turning qissa janriga xos adabiy, ijodiy tamoyillar va qonuniyatlar, ularda tasvirlanayotgan qahramonlar ma’naviy-ruhiy dunyosi muammolarini, yozuvchining badiiy mahorati, dunyoqarashi va tafakkur tarzining o‘ziga xosliklarini kashf etish dolzarblikni belgilaydi.

Jahon adabiyotshunosligida qissachilikning zamonaviy nazariyasi uning oldingi davrlardagi tarixiy evolyutsiyasini yangicha anglashga va tadqiq etishga yo‘naltirilmoqda. Qissalarning o‘ziga xos xususiyatlarini qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik aspektida milliy adabiyotlar misolida ohib berishga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Insoniyatning tafakkuri, ruhiyatidagi o‘zgarishlar, asosan, adabiyot va san’atda o‘z aksini topganligi sababli muayyan asarda tasvir va ifodaning an’anaviy hamda yangicha talqinlarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda o‘zbek adabiyotshunosligini takomillashtirishga, bugungi globallashuv jarayonida milliy-madaniy merosimiz, badiiy adabiyotimiz mohiyatiga yanada chuqur kirib borishga katta ahamiyat berilmoqda. Chunki “adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor – bu avvalo xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor... Bugun biz yashayotgan Internet va yuksak texnologiyalar asrida adabiyot va san’at, madaniyatimizning o’rni va ta’sirini nafaqat saqlab qolish, balki qanday qilib uni kuchaytirish mumkin”¹ligi dolzarb masala bo’lib qolmoqda. Shu ma’noda, taniqli yozuvchi Nurali Qobul qissalarining tadqiqi hamda tahlili orqali ularning g‘oyaviy-badiiy va estetik omillarini yoritish hozirgi o‘zbek adabiyotshunosligidagi zaruriy masalalaridandir.

¹.Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш-халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдевори. Президентнинг мамлакатимиз ижодкор зиёлилари билан учрашувидаги маъruzasi. // Халқ сўзи. – Тошкент: 2017 йил 4 август.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish to‘g‘risida”, 2017-yil 18-apreldagi PQ-2894-son “Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog‘da Adiblar xiyobonini barpo etish to‘g‘risida”, 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-son “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga taalluqli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar amalga oshirilishida ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Dunyo adabiyotshunosligida, olimlarning ilmiy izlanishlarida badiiy-estetik tahlil masalalari ko‘rilgani ma’lum².

O‘zbek nasrida adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlari, ilmiy maqola va risolalarida o‘zbek adabiyotida yaratilgan nasriy asarlarning uslub xususiyatlari, yozuvchining mahorati masalalari yoritilgan³. Yozuvchi Nurali Qobul ijodining publitsistikasi, lirikasi, nasri, roman-monologи haqida adabiyotshunos olimlar

² Арасту. Поэтика. Ахлоқи Кабир. Риторика. – Т.: Янги аср авлоди. 2001. – 351 б; Бахтин М. Эстетика словесного творчества. – М: Искусство, 1986; Чернец Л. Литературные жанры. – М.: Издательство Московского университета, 1982; Хализев В. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1999.

³ Султон И. Адабиёт назарияси.– Тошкент: Ўқитувчи, 1986; Кўшжонов М. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2018; Шарафиддинов О. Ижодни англаш баҳти. – Тошкент: Шарқ, 2004; Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007; Расулов А. Таңқид, талқин, баҳолаш. – Тошкент: Фан, 2006; Назаров Б. Ҳаётйлик – безавол мезон. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983; Болтбаев Ҳ. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992; Куронов Д. Адабиётшунослик кириш. – Андижон. Ҳаёт, 2002; Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Мухаррир, 2011; Холмуродов А. Ўзбек қиссачилиги: тараққиёт муаммолари. Филол. фанлари д-ри ...дисс. – Тошкент, 2008.

hamda ijodkorlar o‘z fikrlarini bildirishgan⁴. Bu fikr va mulohazalar adibning turli asarlari haqida yo‘l-yo‘lakay bildirilganligi uchun ham ko‘proq taqriz xarakterida bo‘lgan.

So‘nggi yillarda Nurali Qobul ijodi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda, bir qancha dissertatsiyalar himoya qilindi. Jumladan, tadqiqotchi A.To‘ychiyev “Nurali Qobul nasri poetikasi (hikoya va qissalari misolida)” nomli dissertatsiyasining bir bobida qissalarini tahlilga tortgan. Lekin dissertatsiya yozuvchi nasri poetikasini qamrab olganligi sababli barcha qissalariga bat afsil to‘xtalish imkoniyati bo‘lmagan⁵. Tadqiqotchilar M.G‘aniyev, A.Uzoqov, E.Jumayevlar esa o‘z dissertatsiyalarida Nurali Qobulning “Temuriylar” epopeyasiga mansub tarixiy romanlarini tahlilga tortishgan⁶.

Ko‘rinadiki, hozirgacha e’lon qilingan tadqiqotlarda Nurali Qobul qissalarini maxsus o‘rganish, monografik planda tadqiq etish masalalari e’tibordan chetda qolgan. Zero, yozuvchi qissalarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek adabiyoti, tanqidi, tarixi va badiiy mahorat masalalari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

⁴ Алимов Б. ...Тубсиз осмон ҳакида кўп ўйлардим // Шарқ юлдузи. – Тошкент: 1983. № 3. – Б. 179–180. Ахмедов А. Тарихий воқеликнинг тўғри идроки // Н.Қобул. Чингизхоннинг олтин тахти. – Тошкент: Камалак, 2015. – Б. 337–338. Абдусамадов А. Адабиёт яшаса миллат яшайди // Н.Қобул. Тириклик саодати. – Тошкент: Ижод–Пресс, 2017. – Б. 435–457. Бекмирзаев Н. Умид нишонаси // Шарқ юлдузи. – Тошкент: 1980. № 5. – Б. 239. Махмудов М., Пардаев А. Ҳар кимнинг ўз осмони бор // Ёш ленинчи. – Тошкент: 1981. № 38. Назаров Б. Тарихий ҳақиқат ёғулари ёхуд ўзликинг бадиий англаш // Н.Қобул. Етти иқлим хоқони ёхуд аҳд ва тахт. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б. 457–477. Пирриев М. Қалами чархланган адаб // Н.Қобул. Чингизхоннинг олтин тахти. – Тошкент: Камалак, 2015, – Б. 341. Қўшжонов М. Эътиқод // Ёшлиқ. – 1982. – № 2. Салом М. Адабиётнинг құдрати, ёзувчининг күчи... // Н.Қобул. Салтанат тулпори. – Тошкент: Ижод–Пресс, 2017. – Б. 403–408. Тўхтабоев Х. Прозамизнинг ёрқин уфқлари // Шарқ юлдузи. – Тошкент: 1984. № 5. – Б. 197. Йўлчиев Қ. Қадим тарихнинг бадиий талқини // Н.Қобул. Қадарнинг ғарип жилваси. – Тошкент: ИЖОД–ПРЕСС, 2017. – Б. 394–430. Ёкубов О. Адабиётимиз келажаги // Ўзбекистон маданияти, – Тошкент: – № 26. – Б. 3.

⁵ Тўйчиев А.Х. Нурали Қобул насли поэтикаси (ҳикоя ва киссалари мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)...дисс. – Гулистон, 2022. – 157 б.

⁶ G‘niyev M. Tarixiy romanda suyjet va kompozitsiya (Nurali Qobulning “Sultonning so‘nggi kuni yoxud Amir Sohibqiron va To‘xtamishxon” romanı misolida) Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)... diss.– Farg‘ona: 2022. – 140 b.; Uzoqov A. O‘zbek prozasida Amir Temur obrazining gavdalanish tamoyillari. Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)... diss.– Guliston: 2023. – 136 b.; Jumayev E. Mustaqillik davri o‘zbek romanlarida Amir Temur obrazi talqinlarining qiyosiy tahlili (Muhammad Ali va Nurali Qobul romanlari misolida) Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)... diss.– Qarshi: 2023. – 147 b.

Tadqiqotning maqsadi Nurali Qobul qissalarida mahalliy kolorit, psixologik tasvir, davr, sharoit, qahramon, inson bilan tabiat munosabatini, folklorizmlardan foydalanish mahoratini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yozuvchi qissalarida hayotiy asos va badiiy haqiqat, mahalliy kolorit, dramatik kolliziylar va psixologik tasvir masalasi, shuningdek, davr voqeligi va uning badiiy talqinini ochib berish;

Nurali Qobulning “Bo‘ri ovi”, “Johillik va qotillik” kabi qissalarida aks etgan g‘oyaviy-badiiy xususiyatlar, inson va tabiat uyg‘unligi tasvirini yoritish;

“Tubsiz osmon” va “Oq kema” qissalarini qiyoslash orqali tabiat tasvirlariga – inson va tabiat, inson va hayvonot, inson va o‘simliklar olami munosabatini umuminsoniy qadriyatlar va estetik badiiyat nuqtayi nazaridan ochib berish;

qissalarda adibning xalq og‘zaki ijodi an’analardan foydalanish mahorati, qahramon nutqida maqol, matallarning qo‘llanishi, duo, xalq qarg‘ishlari va olqishlarning o‘rni va ahamiyatini aniqlashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Nurali Qobulning “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar”, “Salom, tog‘lar!”, “Tubsiz osmon”, “Sangzor”, “Yangi qor tushgan kun”, “Oq qayin qo‘shig‘i”, “Bo‘ri ovi”, “Tantanadan keyingi kun”, “Yashashga kechikma” qissalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Nurali Qobul qissalarining poetikasi, davr va qahramonning ma’naviy-ruhiy olami, inson va tabiat munosabati tasviri, ijodiy individuallik, yozuvchi badiiy niyatining qissalarida qanday aks etganini aniqlash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda biografik, qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy hamda psixologik, shuningdek, tekstologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Nurali Qobulning “Salom, tog‘lar”, “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissalarida ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-falsafiy muammolarning aks etishi, mahalliy kolorit va dramatik kolliziylar tasviri yoritilgan;

yozuvchi qissalarida muallif obrazi, muallif nutqi, yozuvchi tasvir uslubi, yozuvchining badiiy mahorati namoyon bo‘lgan o‘rinlar, asarlarining shakl va kompozitsion qurilishi ohib berilgan;

yozuvchining ilk “Tubsiz osmon”, “Yashashga kechikma” qissalarida an’anaviy tendensiya ko‘zga tashlansa, uning keyingi o‘n yillikdagi “Johillik va qotillik”, “Tantanadan keyingi kun” qissalarida modernizmning absurd konsepsiysi, postmodernizm xususiyatlari qaror topganligi aniqlangan;

adibning ijodiy individualligini ta’milagan omillar – uning xalq og‘zaki ijodining barcha janridan – ibora, matal, maqol, ertak, rivoyat, afsona, olqishlar, qarg‘ishlar, shuningdek, tush motividan unumli va o‘rinli foydalangani misollar bilan isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Nurali Qobul qissalarida insonlardagi vatanparvarlik, mehnatsevarlik, muhabbat va sadoqat kabi axloqiy munosabatlarning inson taqdirini hal qiluvchi tamoyillar ekanligi aniqlangan;

adib ijodiga xos bo‘lgan voqeа-hodisaning birinchi shaxs tomonidan hikoya qilinishi va buning asarlar poetikasidagi o‘rni faktlar yordamida asoslangan;

adib qissalari bugungi yosh kitobxonni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilishi asoslangan;

o‘zbek xalq og‘zaki ijodi va uning adabiyotimizga qanday ta’sir ko‘rsatganligi haqidagi ilmiy xulosalar Nurali Qobul qissalari misolida yechimini topgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, ilmiy-nazariy xulosalar qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy tahlil usullari orqali asoslangani, ishonchli ilmiy hamda adabiy manbalar, internet ma’lumotlaridan ham foydalanilgani, tadqiqot xulosalari va tavsiyalari amaliyotga tatbiq etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yozuvchi Nurali Qobul qissalarini tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar, nazariy qarashlar tanqid, adabiyotshunoslik uchun yangi ilmiy-nazariy ma’lumot va xulosalar berishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya xulosalari hamda tavsiyalaridan oliv ta’lim tizimida “O‘zbek adabiyoti”, “Adabiyot nazariyasi”, “Adabiy tanqid tarixi va hozirgi adabiy jarayon” fanlaridan darslik, o‘quv qo‘llanmalar yaratish, shuningdek, ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlar mazmunini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nurali Qobulning qissachilikdagi badiiy mahorati tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

Nurali Qobul qissalarida xalq og‘zaki ijodining barcha janridan – ibora, matal, maqol, ertak, rivoyat, afsona, olqishlar va qarg‘ishlar, shuningdek, tush motividan unumli va o‘rinli foydalangani, badiiy-estetik o‘ziga xosligi to‘g‘risidagi xulosalardan PZ-20170927147 “Qadimgi davrlardan XIII asrgacha bo‘lgan turkiy yozma manbalar tadqiqi” mavzusidagi loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 6-maydagi №04/1-1179-son ma’lumotnomasi). Natijada loyihaning nazariy, tahliliy ma’lumotlar bilan boyitilishiga erishilgan.

Yozuvchi qissalarida muallif obrazi, asarlarining shakl va kompozitsiyasidagi o‘ziga xosliklar, yozuvchi tasvir uslubi, yozuvchining badiiy mahorati namoyon bo‘lgan o‘rinlar tahliliga bag‘ishlangan xulosalardan F3-2016-09081165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlanlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida belgilangan asosiy vazifalarni bajarishda amaliy foydalanilgan (O‘zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filiali 2024-yil 15-apreldagi №161-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida nashr qilingan o‘quv materiallarining manbalar bilan boyitilishiga erishilgan.

Adib qissalaridagi ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-falsafiy muammolarning aks etish qonuniyatlari, tabiat va jamiyat tasviri, insonlar va voqealar o‘rtasidagi ziddiyatlarning o‘ziga xosligi haqidagi xulosalaridan televide niye dasturlari ssenariylarini tayyorlashda unumli foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Jizzax viloyati teleradiokompaniyasi 2023-yil №14-11/536-son ma’lumotnomasi). Natijada televide niye ssenariylari axloqiy-ma’naviy,

ijtimoiy-falsafiy tahlillar, ziddiyatlarning bola, o'smir, inson taqdiriga ta'siri haqidagi fikr-mulohazalar bilan boyigan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 13 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 6 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda qilingan ma'ruzalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 22 ta ilmiy ish nashr qilingan bo'lib, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, jumladan, xorijiy jurnalda 5 ta, respublika jurnallarida 4 ta maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, hajmi 124 sahifani tashkil etadi.

I BOB. YOZUVCHI QISSALARIDA HAYOTIY ASOS VA BADIY HAQIQAT

1.1-§. Mahalliy kolorit, dramatik kolliziylar va psixologik tasvir

XX asr o‘zbek nasrida, xususan, qissachiligidagi poetik xususiyatlarni tadqiq etish jarayonida yozuvchiga taalluqli bo‘lgan badiiy mahorat, murakkab kechinmalarni ko‘rsatishda mahalliy kolorit, dramatik kolliziya va psixologik tasvir ham alohida o‘rin tutishini qayd etish lozim. Nasrda shu jihatlarni o‘rgangan adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlarini⁷ kuzatar ekanmiz, har bir yozuvchi o‘zi tug‘ilib o‘sgan qishlog‘i, tumani, viloyati koloritini asarlariga olib kirganligiga guvoh bo‘lamiz.

Hayotiylikni, inson qalbidagi tuyg‘ular mujassamlashgan murakkab hayotiy voqealarni, chin inson qalbidagi poklikni, halollikni, rostgo‘ylikni asarlariga olib kirgan, o‘z uslubiga ega yozuvchi Nurali Qobul qissalarida ham mahalliy kolorit, dramatik kolliziya va psixologik tasvir alohida ahamiyat kasb etishini kuzatish mumkin. Yozuvchi o‘z ijodi bilan adabiyotga Baxmal koloritini – o‘zi tug‘ilib o‘sgan qishlog‘i, mag‘rur tog‘lari, baxmalliklar hayot tarzi, urf-odatlari, shevasini olib kirdi. Bu xususiyat uning barcha qissalarida ko‘zga tashlanadi. Yozuvchi ijodining, ayniqsa, qissalarining o‘ziga xosligi ham mana shu xususiyati bilan belgilanadi.

Ushbu faslda “Salom, tog‘lar” qissasida hayotiy asos va badiiy haqiqatni ko‘rsatishda “mahalliy koloritning aks etishi o‘ziga xos qimmatga ega”⁸ligini bir nechta o‘rinlarda ko‘rib chiqamiz. O‘tmishni hamda bugunni yaxshi biladigan, hayotiy saboqlarni o‘qigan va uqqan, ma’naviy yuksak, ijodiy fantaziyasi boy yozuvchining hamma vaqt o‘quvchisiga aytadigan gapi bo‘ladi. U ana shu zarur gapga mos keladigan shakl, ifoda yo‘sini, tasvir va talqin topmaguncha, uni mukammallikka yetkazmaguncha orom olmaydi, tinib-tinchimaydi. His va aqlning

⁷ Умурев Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: Фан, 1983; Бобохонов М. Ҳозирги ўзбек қиссачилигига психологизм: Филол. фан номзоди... дис. автореф. – Тошкент: 2012; А.Холмуродов. Қиссада бадий образ яратиш маҳорати. – Тошкент: Фан., 2006; Хамроқулова Х.Қ. XX аср ўзбек насрода ҳаёт ва ўлим муаммосининг бадий талқини: Филол. фанлари д-ри ...дисс. – Тошкент: 2018.

⁸ Дониёрова Ш. Ижодкор ва услуб. – Тошкент: Turon zamin ziyo. – Б. 34.

natijasi o'laroq yaralgan badiiy tasvir "ijodkorni faqat his-tuyg'uga berilib real hayot talablaridan uzoqlashib ketishiga... yoki umuminsoniy axloq talablaridan chetga chiqishga yo'l qo'ymaydi"⁹. Ana shunday umuminsoniy axloq talablaridan chetga chiqilmagan holda hayot haqiqati aks ettirilgan "Salom, tog'lar" qissasini Nurali Qobul yigirma to'qqiz yoshida yozgan. Yozuvchi Zulayho obrazi misolida jamiyatni, urush davri voqealarini va shu orqali ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda ma'naviy-axloqiy masalalarni yoritib bergen. Badiiy adabiyotning vazifasi inson va uning ijtimoiy muhitda tutgan o'rni, axloqiy-ma'naviy olami, faoliyati kabilarni ma'lum bir kategoriylar orqali o'quvchiga yetkazib berish.

Adabiyotshunos olim S.Mirvaliyev aytganidek, "Nurali Qobul ... "Oyqor" qissasi bilan adabiy jamoatchilik va keng kitobxonlar ommasining e'tiborini qozongan edi. Bugun esa "Salom, tog'lar!" qissasi bilan o'ziga bo'lgan hurmat va e'tiborni yana bir bor mustahkamladi¹⁰".

Adabiyot yaralibdiki, unda ezgulik va yovuzlik kurashi, sevgi-muhabbat va nafrat, urush va tinchlik mavzulari bilan birga oddiy insoniy munosabatlarga asoslangan ota va bola, ona va farzand, ayol mavzulari ham abadiydir.

Xalqimizda ayol – bu oilaning ruhidir. U baxtli bo'lsa, oila baxtli bo'ladi, degan fikrlar mavjud. Bu fikrlar nechog'lik to'g'ri ekanligi xalq og'zaki ijodi namunalarida ham, mumtoz adabiyotda ham ko'plab kuylangan. Ayniqsa, XX asr va mustaqillik davri o'zbek adabiyotida ayollar dunyosi, onalar olami alohida mavzu sifatida o'rganila boshlandi. Ana shunday ayollar obrazi bosh qahramon qilib olingan asarlardan biri "Salom, tog'lar" qissasidir.

Qissa qahramoni Zulayho tarbiyali, mehnatkash. Sho'rolar davri qissalarining tipik obrazi. Lekin Nurali Qobul bu obrazga xos bo'lgan ijobiy fazilatlarning ildizini shu qadar asoslaydiki, o'quvchi beixtiyor yozuvchi badiiy olamining haqiqatlariga singib ketadi. Unga bu fazilatlar, ehtimol, otasidan o'tgandir. Zulayhoning otasi u uch oylik vaqtida qamoqqa olinib, qaytib kelgach bir kundan so'ng vafot etadi. Zulayho otasini eslayolmasa ham onasining ta'rifidan

⁹ Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: 2004. – Б. 79.

¹⁰ Мирвалиев С. Наср, давр ва қаҳрамон. – Тошкент: Faфур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашириёти. 1983. – Б. 42.

biladi. “Otasi unaqa katta ishlarda ishlagan ham emas, lekin mehnatkash, biror nimaga unnamasa turolmaydigan odam bo‘lgan ekan. Shuning uchunmi ko‘plarning dasturxonida tanqis bo‘lgan non ularning dasturxonidan hech arimas ekan¹¹”. Otasidagi bu kabi mehnatkashlik Zulayhoda ham ko‘rinadi: mактабдан kelgach, qo‘zilarni yaylovga olib chiqib boqadi, dalaga borib o‘tin terib keladi, echkini sog‘ib onasiga yordamlashadi va hokazo.

“Salom, tog‘lar” qissasida “hayotiy voqelikning ijodkor tomonidan g‘oyaviy va badiiy tafovutlanishi natijasida adabiyotda yangi tiplar, yangi obrazlar olami maydonga kelishi mumkin”¹²ligini Zulayho, G‘oyibnazar, Qamariddin, Enaqiz, Toshbuvi, Maston xola kabi obrazlarda ko‘rishimiz mumkin. Zulayhoga og‘iz solib kelgan Maston xola quruq qo‘l bilan qaytgach, Zulayho va G‘oyibnazar orasidagi munosabatdan g‘azabga minadi. “Hayfi o‘g‘lim ketsin o‘sha manjalaqi qizing! Darbadarga berasanmi, chulchutga berasanmi, yetti yot begonaga berasanmi, bilganingni qil! Ilohim, noshukrliging tos tepangga ursin, u dunyo – bu dunyo yolchib yemay o‘tib ketinglar!”(56-b.) – deya jahl bilan chiqib ketadi. Yozuvchining mahorati shunda ko‘rinadiki, milliy tilimiz tarkibida mavjud qarg‘ishlarni qissaga chiroyli singdirgan. Maston xola tilidan aytilgan gaplar – qarg‘ishlar qissadagi qarindosh-urug‘chilik voqealariga oydinlik kiritadi. Aka va singil munosabatlarining buzilishiga, akaning beva singildan hech qachon, hatto bayram kunlari ham xabar olmasligiga Samandarning ayoli – Maston xola sababchi ekanligini ham ko‘rsatib bergen.

Qishloq hisobchisi bo‘lib ishlayotgan G‘oyibnazarni ko‘p o‘tmay hisobchilikdan bo‘shatadi. Uning ishdan bo‘shashi ikki oilaning hayotiga ham, ruhiyatiga ham ta’sir etmay qolmadi, albatta, lekin G‘oyibnazar xursand edi:

– Qaytaga yaxshi bo‘ldi, bir boplab mehnat qilayinki, – dedi u onasiga.

¹¹ Қобул Н. Жоҳиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 40. (Keyingi ko‘chirmalar shu manbadan olinadi va beti qavs ichida beriladi).

¹² Soatova N. XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida Shuhrat ijodining o‘rni: Filol.fanlari doktori (DSc) disser.avtoreferati. – Buxoro, 2023. – B.21.

– Yaxshi ishlayman deb o‘zingni urintirma, sening mehnatingni ko‘rsatadigan odaming yo‘q, – dedi uf tortib Toshbuvi.

– Odamlar bilsa bo‘ldi-da, ena (58-b.)!

Ko‘p o‘tmay o‘zi hisobchilik qiladigan brigadaga o‘roqchi bo‘lib ishga kirib, erta borib, kech qaytib mehnat qildi. U qilayotgan mehnatini “el bilsa bo‘ldi” deb elni o‘ylashini urush boshlanganda birinchilardan bo‘lib jo‘nashga tayyorgarlik ko‘rishidan ham bilsa bo‘ladi.

Adabiyotshunos Jovli Xushboq aytganidek: G‘oyibnazар dinamik obraz. U yoshligidanoq yetim qoldi. Ko‘p azob-uqubatlarga, ocharchiliklarga, mehnat qiyinchiliklariga duch keldi. Natijada toplandi, chiniqdi va xarakteri shu qiyinchiliklarni yengish tufayli shakllanib bordi. N.Qobul G‘oyibnazар obrazining to‘laqonli bo‘lishiga erishish uchun parallel obrazlar ham yaratadi. G‘oyibnazар bilan Qamariddin ana shundaylardandir¹³. Haqiqatda, G‘oyibnazар va Qamariddin bir-biriga parallel bo‘lish bilan birga zid obrazlar hamdir. G‘oyibnazarning Zulayhoga bo‘lgan sevgisi va Qamariddinning sevgisi ham turlicha, biri qalb amiri bilan so‘zsiz sevadi, biri esa zo‘rlik qilib bo‘lsa-da sevgisiga erishishni xohlaydi. Xalq va vatan tushunchalari haqidagi qarashlari ham farq qiladi. G‘oyibnazар xalqi uchun bel bog‘lab xizmat qiladi, yurtini himoya qilish uchun sevgan insonlarini tashlab urushga o‘z xohishi bilan ketadi. Qamariddin esa buning aksi, hattoki, urush davrida qochqinga ham aylanadi. Asar avvalida G‘oyibnazarni passiv obraz sifatida ko‘ramiz. Lekin qissa mutolaasi davomida uning mehnatkash va mulohazali, bag‘rikeng, jasoratli, mard obraz ekanligini tushunib boramiz. U voqealar rivojida pishib yetilgan haqiqiy o‘zbek o‘g‘loni obrazi.

Qissa qahramonlari Zulayho ham, G‘oyibnazар ham mehnatkashlik borasida bir-biriga mos juftlik edi. Garchand XX asr o‘zbek adabiyotida bunday juftlik ko‘p uchrasa ham, ularning aksariyati sho‘rolar mafkurasiga moslashtirilgan, o‘z taqdiridan ham ko‘proq omma manfaatini o‘ylaydigan stereotip obrazlar edi.

¹³ Хушбок Ж. Туркий дунё ёғдуси. – Тошкент: 2021. – В. 18.

Nurali Qobul qahramonlari ham ulardan keskin farq qilmasa-da, har birining o‘z taqdiri, o‘z “men”i, o‘z individi bor.

Qissada qarindosh-urug‘chilik masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. “ – Kechki sutidan endi dekcha ham to‘lmaydi. Xolangning qizini ko‘zi yorigan ekan, shirgurich qilib bormoqchi edim”, – deydi bir o‘rinda Enaqiz xola uloqcha echkini emib qo‘yganidan nolib. O‘zbek xalqida urchga, an’anaga aylangan odatlardan biri yangi chaqaloqli bo‘lgan xonadonga kulcha chiqarish. Yozuvchi bu o‘rinda mana shu yaxshi odatimizni ko‘rsatib o‘tgan.

Shu o‘rinda Sharqda qarindoshchilik, oilaviy munosabatlarning muqaddas hisoblanishiga to‘xtalib o‘tsak. Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo‘rg‘on hisoblangan. O‘zbek oilalarining serildizlik, serbutoqliligi barcha xalqlarni hayratlantirib kelgan. Oilani axloqiy-ma’naviy qadriyatlarning boshi deb hisoblaydigan bo‘lsak, mana shu qo‘rg‘onni mustahkamlaydigan, unda tinchlik hukm surishini ta’minlaydigan posbon, uning muqaddasligini saqlovchi mo‘tabar zot bu ayollar, onalardir. Oila deganda er-xotin va farzandlar munosabatidan tashqari aka-uka, opa-singil, aka-singil, opa-uka munosabatlari ham tushuniladi. Alovida-alohida ro‘zg‘or qilib ketgan aka-ukalar orasidagi iliq jigarlik munosabatlarini saqlab qolish, ular orasiga sovuqchilik tushirmaslik ko‘p hollarda ayollarga bog‘liq.

Afsuski, Zulayhoning onasi – Enaqiz xola va tog‘asi – Samandar orasida ko‘prik vazifasini o‘tashi kerak bo‘lgan Maston xola ular orasidagi sovuq munosabatni butunlay uzib ketadi: – Samandar senga aka emas, sen unga singil! Yomonligingdan senlar Shodmonqul bechoraning boshini yedilaring! Shuni aytadilar o‘zi, baloqdagi bit boshga chiqadi, deb! Ko‘raman, hali eshigimga yalinib bormaganlaringni (54-b.)! Maston xola “Bitta qizingiz ekan, Enaqizoyichcha! Shuni qo‘sh-qo‘llab so‘radik. Bersangiz ham berasiz, bermasangiz ham berasiz”, – degan gapiga Zulayhoning onasi: “Qizim yosh, aylanay. Mastonoy o‘zingiz ham bilasiz. Maktabni bitirsin, so‘ngra bamaslahat bir ish tutarmiz, o‘rgilay” – deb javob bergani uchun aka-singil orasini uzib chiqib ketadi. Bu ham yetmagandek, turmush o‘rtog‘ining o‘limiga ularni sababchi ham qilib ko‘rsatadi. To‘g‘riso‘zligi,

qishloq raisiga aytgan gaplari sabab, Yusuf do‘m uni qamattirib yuborgani, qamoqdan sil kasalligini orttirib kelib, vafot etganligini bilib ham Zulayho va uning onasi Enaqiz xola qalbiga zarba beradi.

Qarindoshlik, ular orasidagi munosabatlar haqida islom dinining muqaddas kitobi Qur’oni karimning “Sho‘ro” surasi 23-oyatida: Allohning imon keltirgan va solih amallarni qilgan bandalariga beradigan xushxabari ana shudir. (Ey, Muhammad) aytin: “Men sizlardan bu (da’vatim) uchun haq so‘ramayman, faqat qarindoshchilikdagi do‘stlik (yaqinlik)nigina (so‘rayman),¹⁴ – deb marhamat qilingan. “Sho‘ro” so‘zining ma’nosi – maslahat, kengash demakdir. Enaqiz xola ham akalari bilan maslahatlashib ish ko‘rishini aytdi. Lekin Maston xola uni so‘zini ikki qilgan hisoblab, har xil qarg‘ishlar bilan “siylab” chiqib ketdi. Maston xola mакtab yoshidagi qizchani kelinlikka so‘rab borishdan oldin “qiz oila uchun tayyor emas”, “hali yosh” degan javob olishi mumkinligini o‘ylab ham ko‘rmaydi.

Qadim-qadimdan qarindoshlar orasida qizlar oldi-berdisi ko‘p hollarda ikki oilaning, ba’zan ikki urug‘ning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarining mustahkamlanishi yoki aksincha yomonlashishi bilan tugagan. Ba’zi hollarda turmush qurgan qarindosh oilalar farzandlarining nuqson bilan tug‘ilishi kuzatilgan. Yoki sovchilik marosimlarining o‘zidayoq qandaydir sabablar bilan to‘y qilishga kelisholmasa qarindoshlar o‘rtasida ko‘ngilxiralik paydo bo‘ladi. Shu o‘rinda Nurali Qobul xalqimiz mentalitetidagi mana shu kabi nuqsonlarni mahorat bilan ochib bergen.

“Adabiyot va axloq orasidagi bog‘liqlik, robita haqida fikr yuritganda, muhim bir holatni qayd etmoq lozim. Axloq adabiyot uchun havo kabitidir, havoning borligi sezilmaydi, lekin yo‘q bo‘lgan yoki kamaygan zahoti uning hayotiy zaruriyati bilinadi. Axloq chinakam badiiy asarning qon-qoniga singib ketgan bo‘lib, uni ajratib ko‘rsatish, ya’ni bu axloqqa tegishli, bunisi tegishli emas, deya tasniflash mumkin emas. Adabiyot butun turish-turmushi bilan yuksak insoniy axloqqa suyanadi va oxir-oqibatda o‘z asarlari vositasida uni targ‘ib

¹⁴ ҚУРЬОНИ КАРИМ маъноларининг таржимаси. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2001. – Б. 48615

qiladi”¹⁵. Axloqiy-ma’naviy tarbiya hech qayerda qonunlar kabi qat’iy belgilab qo‘yilmagan bo‘lsa-da, xalq tomonidan o‘rnatilgan, belgilangan me’yorlardir, asrlar davomida barqaror an’analarda avloddan avlodga o‘tib kelayotgan qonun-qoidalardir. Mana shu me’yorlarga, yozilmagan qonun-qoidalarga amal qilib yashashimiz bizning axloqiy-ma’naviy jihatdan qay darajada barkamolligimizni belgilaydi. Ba’zi axloqiy mezonlar borki, ular qonun bilan ham belgilab qo‘yilgan. Masalan, qimorbozlik.

Qimorga qaramlik – bu ko‘plab salbiy psixologik, jismoniy va ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Dastlab qo‘sishimcha daromad topish, keyinchalik uning sirtmog‘iga tushib yutqazilgan pulning o‘rnini qoplash maqsadida kunlab, haftalab, oylab va hatto yillab ketkazilgan vaqt natijasida inson o‘z shaxsiy hayotiy ehtiyojlari uchun sarf qilishi kerak bo‘lgan bebaho ne’matini yo‘qotadi. Tavakkalchilikka asoslangan qimor kabi o‘yinlar insonda umidsizlik va nochorlik hissiyotlarini keltirib chiqaradi. Yirik summadagi mablag‘ni yutqazish psixologlar fikricha, inson huzur-halovatini yo‘qotishga olib keladi va depressiya, migren, ichak kasalliklari, stress bilan bog‘liq boshqa muammolarga duch keladi. O‘yinga berilib ketganlar yotganida ham, turganida ham, har doim pul tikib yutish haqida o‘ylashadi. Oqibatda oiladagi mas’uliyatini unutadi, ayol, bola munosabatlaridan uzoqlashadi. Inson o‘ziga, yaqinlariga va xayrli ishlarga ajratishi kerak bo‘lgan mablag‘larni, vaqtini, muhimi sog‘lig‘ini asossiz tarzda yo‘qotadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, badiiy ijodda qimorbozlik bilan bog‘liq voqealar keng o‘rin egallamaydi.

“Salom, tog‘lar” qissasidagi Yangiboy obrazi ham qimorga mukkasidan ketganligi sabab odamlar undan o‘zini olib qochadi. U haftaning uch-to‘rt kunini qimorda o‘tkazadi. Hatto Oyqor oshib o‘tib, ikki-uch kun tojiklar bilan qimor o‘ynab, yutib yoki yutqazib kelar edi. O‘z uyida ham tez-tez qimorbozlar yig‘ilishini o‘tkazib turar edi. Hech qachon oilasiga bir chaqa ham bermaydigan Yangiboy ana shu xasisligi (xotini va farzandlariga ehtiyojlari uchun pul bermasligi) va qimorbozligi sabab o‘z farzandi o‘limiga sababchi bo‘ladi. Asarda

¹⁵ Karimova Y. Adabiyot – ma’naviyat farzandi. // Tafakkur va talqin. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016. – B. 9.

bu epizod quyidagicha tasvirlangan: ...O'shanda hamma qimorbozlar Yangiboyning uyiga yig'ilishibdi. Abdumajid ismli o'g'li har galgidek otasining tizzasiga suyanib o'tirgan ekan. U otasi ko'rpaning ostiga qistirib qimor o'ynayotgan puldan o'g'irlab onasiga berar, onasi uni qarz-havolalariga ishlatar ekan. O'sha kuni u ko'rpaning chetidan chiqib turgan bir so'mlikni sekin tortganida otasi ko'rib qolibdi. Uyalgan Abdumajid chordona qurgancha yerga tikilib qolibdi. Yutqazib alam qilib o'tirgan otasi jahl ustida uning bo'yniga bir musht uribdi. U: "Ih", deya boshini yerga qo'yibdi. Og'zi-burnidan qop-qora qon ketibdi – shakar tomiri uzilib ketgan ekan...

Onasi dod solib, eriga yopishibdi, qarg'abdi. U xotin bo'lib erini birinchi marta qarg'ashi ekan. Eri uni shunday tepibdiki, sho'rlik ayol ikki oy deganda zo'rg'a o'ziga kelibdi. Bo'yida besh oylik bolasi bor ekan, u ham nobud bo'libdi. G'oyibnazar onasi uchun juvonmarg bo'lган Abdumajidni ko'p o'ylardi...(65-b.).

Shunday qilib, qonunan taqiqlangan, axloqiy me'zonlar tomonidan ham qoralangan, dinimiz man etgan amallarni bajargan Yangiboy o'g'li – Abdumajidning, hali tug'ilмаган go'dagini qotiliga aylandi. Qimorbozlik butun bir oilaning halokatiga sabab bo'ldi. Abdumajid yosh bo'lsa ham otasining pulini so'roqsiz olish mumkin emasligini bilib uyalib yerga tikilib qoldi. Butun oila mas'uliyati yelkasida turgan ota esa farzandi va xotini ehtiyojini qondirish vazifasi ekanligini unutgan. Shu sabab ona bechora qo'ni-qo'shnilaridan qarz-havola qilib kun kechiradi. Qimorda yutqazayotganligining alamini bolasidan olgan ojiz ota oxir oqibat farzandkush bo'ldi.

Yozuvchi Yangiboy qimorboz voqeasi, Abdumajid fojiasini ishonchli tasvirlaganidan bu o'rinda kitobxon qalbida qimorga ham, qimorbozga ham cheksiz nafrat uyg'onadi. Bu o'rinlar o'qirmanlar uchun juda katta tarbiyaviy maktab, o'rnak vazifasini bajarishi shubhasiz.

Tarixdan ma'lum bo'lган eng dahshatli urushlardan biri – ikkinchi jahon urushi. Sovuq urush davri insonlarning ma'naviy qiyofasi qanday ekanligini ko'p jihatdan ko'rsatib berdi. G'oyibnazarga o'xshagan vatanparvarlar birinchilardan bo'lib, qishloqqa kelgan harbiy komissarlik ro'yxatidan o'tib, urushga jo'nadi.

Ammo Qamariddinga o‘xshashlar esa xoinlik to‘nini kiyishdi. “— Hamma askarlikka yozilayotgan mish.

- Oyqor oshib, Panjakentga qochib ketayotganlar ham yo‘q emas, — dedi bo‘sh kosani dasturxonning chetiga qo‘yarkan onasi.
- Bugun uch-to‘rt kishi uyga kelmay, to‘ppa-to‘g‘ri dalaning boshidan toqqa qarab ketdi...
- Ularning ichida Qamariddin ham bor deyishyapti-ku, — dedi ajablanib Toshbuvi.
- Undan faqat xoin chiqardi” (104-b.).

Hayitda, bayram kunlari beva singlisini bir yo‘qlamaydigan Samandarning o‘g‘li ham o‘ziga o‘xhash. Na qarindosh-urug‘chilikni, na amma, na jigar tushunchalarini anglaydi. Qarindoshi Zulayhoga tegajaklik qilishdan ham or qilmagan bu yigit elga kelgan tashvishdan o‘zini chetga oladi. Tojikistonga qochib ketadi. Qishloq yigitlarini birma-bir ro‘yxatga olib, urushga jo‘natayotgan Yusuf do‘m ham o‘z o‘g‘lini urushga jo‘natmaslik maqsadida Dushanbega o‘qish bahonasida qochirib yuboradi. Urushdan qochish ham xoinlikka teng. Lekin bugungi tinch zamonda ularni qoralashdan ham yiroqmiz. Yusuf do‘m ham bir ota sifatida o‘z o‘g‘lining hayotini saqlab qolish uchun qo‘lidan kelgan tadbirni qildi. Qamariddin ham o‘z jonini qutqarish uchun shu yo‘lni tutgandir, ehtimol. Axir, hamma ham o‘z jonini xalqi, vatandoshlari uchun fido qila olmaydi. Bu haqiqatni tarix ko‘p bor isbotlagan.

Qissada eng chiroyli tasvir Zulayho va G‘oyibnazar o‘rtasidagi munosabatlar tasviri. Barcha xalq, barcha millat, barcha davr uchun xos bo‘lgan muhabbatning milliyligimiz bilan uyg‘unlashgan ko‘rinishi kitobxonga ma’qul keladi. O‘zbek yigitlari, ba’zan, sevgan qizini erkalab, ismining o‘rniga boshqa otlar bilan chaqiradi. G‘oyibnazar ham Zulayhoni erkalatib “Qorako‘z” deb chaqiradi.

“G‘oyibnazar qiziq: Zulayho bilan yurganida hech qachon uning otini aytib chaqirmaydi, “Qorako‘z”, deydi. Aytishicha, Zulayhoning ko‘zi qoramiqday qora

emish. Bu gaplarni u qanday topar ekan? Bu ismni undan boshqa hech kim bilmaydi...

Tavba, namuncha u hadeb G‘oyibnazarni o‘ylaydi. To‘g‘ri, u Zulayhoga ko‘p yaxshiliklar qilgan... Biroq shuning uchun uni shu qadar ko‘p o‘ylashi kerakmi (46-b.)”? Mana shu jumlalarning o‘ziyoq Zulayhoning G‘oyibnazarga bo‘lgan munosabatini yoritib bergen. Yozuvchi ham ortiqcha bayonchilikka berilmagan, izohga hojat qoldirmagan. Ular orasidagi sof, samimiy munosabatlar mana shunday hayotiy tasvirlarda ochib beriladi. Bir o‘rinda G‘oyibnazarning Zulayhoga xat berish jarayoni ham bor. Lekin xatda ham “sevdim”, “o‘ldim”, “kuydim” kabi jumlalar uchramaydi. Yozuvchining mahorati shundaki, urush davridan hayotiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantira olgan.

Yangi o‘quv yili boshlanishidan oldin G‘oyibnazar har galgidek kitoblarini Zulayhoga berar ekan, tumandan olib kelgan ro‘molining uchiga allaqachon yozib qo‘yan, lekin berishga yuragi betlamay yurgan qog‘ozni tugib berdi. Kitoblar bilan birga qip-qizil ro‘molni olar ekan, umrida birinchi marta sovg‘a olayotganligi sababmi, uyalganidanmi yuzlari yal-yal yonib ketdi:

– Qorako‘z, anavi tugunnni yechib ko‘ring! – u shunday dedi-yu otileganicha ko‘chaga chiqib ketdi...

*Qoramiqday qaro qosning,
Qalbginamni qiynaydi.
Qilichmisol kipriklarining,
Qaro ko ‘zni qiymaydi...*

Zulayho xatni o‘qib, bir zum turib qoldi. She’rning mohiyatiga unchalik tushunib yetmasa-da, bu satrlar ro‘moldan ham qimmatli ekanini tushundi. Maktubni darhol kitoblarining orasiga yashirdi... (49-bet).

To‘rtlik Nurali Qobul ijodiga mansub. Unda alliteratsiya (q tovushining ohanglashuvi) san’atining muvaffaqiyatlari qo‘llanilishi bilan birga adabiy tilimizda iste’moldan chiqib ketgan, lekin shevada mavjud bo‘lgan “qoramiqday” so‘zining qo‘llanilishi tahsinga loyiq. Zero, “adabiy tilning shakllanishi, baland maqomi, sheva xazinasidagi so‘zlarning iste’molga olib kirilishi va esdan chiqqan tub

so‘zlearning qayta qo‘llanishida adiblarning benazir badiiy tafakkuri vositachilik qiladi”¹⁶.

“Qoramiq” so‘ziga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha ta’rif berilgan: “**Qoramiq.** Qir-adirlarda, g‘allazorlarda o‘sadigan, doni zaharli bir yillik begona o‘t. **Qoramug‘.** q. qoramiq. Qoramug‘ning donasiday Ko‘zidan aylanay shuni. “Boychechak”¹⁷. Demak, xalq tilida va yozuvchi asarida “qoramiq” so‘zi qizlar (va bolalar)ning qop-qora ko‘zlariga nisbatan ishlatilmoqda.

Bu misralar orqali yozuvchi G‘oyibnazarning Zulayhoga bo‘lgan muhabbatini ko‘rsatib bermoqda. Zulayho uchun ham, G‘oyibnazar uchun ham mana shu xatning o‘zi yetarli. O‘zi yoqtirgan insondan tuhfa qilingan ro‘mol hamda hech qanday munosabat va fikrlar bildirilmagan, to‘rt misradan iborat xatni Zulayho eng qimmatli narsa bilib avaylab olib yuradi. Unga bag‘ishlangan to‘rt qator she’r tun-u kun o‘z xayollari og‘ushida yuradigan Zulayhoni shoshirib qo‘yadi. U o‘zini qo‘yarga joy topolmay, cheksiz shirin tuyg‘ular bag‘rida his qiladi.

Zulayho Sharq ayollariga, o‘zbek qizlariga xos bo‘lgan mehnatkashligi, mehribonligi bilan birga ibo, hayo kabi fazilatlar jam bo‘lgan go‘zal obrazdir. Buni Zulayhoning G‘oyibnazarga bo‘lgan muhabbati cheksiz bo‘lsa-da, uning xatiga javob yozmaganligidan ham bilsa bo‘ladi. Yoki har safar Toshbuvi xola ularnikiga kirib G‘oyibnazarning topish-tutishi yaxshi bo‘lib qolganligini, uning boshini ikkita qilib qo‘ymoqchiliginı aytgan vaqtida u uyalganidan biror bahona bilan chiqib ketishi, xuddi, G‘oyibnazar yozgan xatni muallimasi Muhabbat opa bilib qoladigandek undan qo‘rqishi, hijolat chekishi Zulayhoning milliy ruhda tarbiya topgan qiz ekanligini ko‘rsatadi.

Toshbuvi xola G‘oyibnazarni uylantiraman deb niyat qilgan bo‘lsa ham, G‘oyibnazar Zulayhoga bo‘lgan munosabatni oshkor qila olmaydi. Qishloqdoshlarining: “– Sizni qiynab yurmay deb shundoqqina qo‘shningizning qizini ko‘ndirib o‘tiribdi, yana nima kerak”, – degan hazilidan so‘ng Toshbuvi xola

¹⁶ Karimov B. Qodiriy so‘zining qadri. // So‘z xiyoboni. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 98.

¹⁷ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. – Тошкент: О‘zbekiston, 2020. – Б. 339.

bitta-yarimta suqilib, shayton oralamasin degan maqsadda Enaqiz xolaga ko‘nglini yoradi. Enaqiz xola ham indamay rozi bo‘lib, to‘y marosimlarini boshlab yuboradi.

Zulayhoga yetishishni yulduz qadar yiroq his qilgan G‘oyibnazar xursand. Zulayho ham bu kunlarni orziqib kutgan. Biroq har bir qizda bo‘lgani kabi uning ham ko‘ngli allanechuk g‘alati tuyg‘ularga limmo-lim edi. Ehtimol, onasini yolg‘iz tashlab ketayotganligi uchundir.

Fotiha to‘yi tasvirlarida yozuvchi yana bir milliy odatimizni ohib beradi. Odamlar ko‘zidan uzoq bo‘lish uchun o‘tinxonada o‘tirgan Zulayho oldiga qo‘shni qiz Gulandom kiradi:

– Biznikiga yurarkansiz, enam ayttila, – dedi u qo‘lidagi parvardani sanar ekan.

- Voy, tashqarida odamlar bor-ku?
- Odamlar uyga kirib ketishdi.
- Otanglar qayerda?
- Shu yerda, samovar qaynatyaptila, hayla.
- Urushmaydilarmi?
- Yo‘q, endi siz katta kelinchak bo‘lyapsiz-ku, qanday urishadila?
- Sekinroq gapirsang-chi, mushtdek qizcha bo‘la turib, uyalmaysan-a!

Ular bog‘ orqali soyga tushib, Gulandomlarnikiga ketishdi (74-b.).

Bu dialog to‘yi bo‘layotgan qizning uyatdan odamlar, qarindoshlar ko‘ziga ko‘rina olmasligi, ko‘zdan uzoqroq yurishi bilan bog‘liq o‘zbekligimizga xos ko‘rinish bilan birga “urushmaydilarmi” so‘rovining o‘zidan Zulayhoning qay darajada soddaligi ko‘rinadi.

Zulayho Qarshiuchgan cho‘qqisining etagidan qurigan shox-shabba terib kelgani borganda, unga sovchi jo‘natib, quruq qaytgan Qamariddin uning ortidan kelib, yo‘lini to‘sadi: – Seni yaxshi ko‘raman, Qorako‘z! Mening uchun sen bir tomon-u sendan boshqa butun dunyo bir tomon. Sen esa men bilan gaplashishni ham istamaysan. Nima, mening biror kishini yaxshi ko‘rishga haqqim yo‘qmi? ...Rahm qil! O‘sha G‘oyibnazardan qayerim kam? Sen meniki bo‘lishing kerak, Qorako‘z! Ishonaman, sen meniki bo‘lasan! To‘g‘rimi, Qorako‘z (87-b.)?

Qamariddinga uni sevmasligini tushuntirib yo‘lda davom etmoqchi bo‘lsa ham u Zulayhoni qo‘yib yubormaydi: Birdan tashlangan Qamariddin Qorako‘zni mahkam quchoqlab oldi. Ikkisi ham yo‘lning o‘ng tomonidagi kichkina soylikka zarb bilan ag‘darildi... Yiqilishi bilanoq Qorako‘zning oyoq-qo‘li bo‘shashib, ko‘z oldi qorong‘ilashib ketdi. U harsangning ustiga yiqilgan edi. Qamariddin hamon uni qo‘yib yubormas, bosh-ko‘zi demay, to‘g‘ri kelgan joyidan o‘par edi. Qorako‘z jon alfozda uning badanini tishladi. Qamariddin alam bilan chinqirib, o‘rnidan turib ketdi. Zarb bilan urilgan tarsakidan Qorako‘z bir zum o‘zini yo‘qotib qo‘ydi. Qamariddin yelkasini ushlagancha so‘kinib dodlardi. Qorako‘z butun kuchini to‘plab o‘rnidan turarkan, qo‘liga ilingan toshni oldi. Bexos boshiga tushgan zarbadan Qamariddin gursillab yiqildi... (89-b.).

O‘zini yo‘qotib qo‘ymay, qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham or-nomusini himoya qila olgani, Qamariddinga taslim bo‘limgani va uni boplab jazolaganidan ko‘rinib turibdiki, u Barchinoy, To‘maris, Bibixonim, Xonzodabegimlarga xos va mos avlod. Unda ham o‘ziga xos mardlik bor. Uyga qaytayotganida kech bo‘lib qolgani uchun xavotir olib, uni izlab chiqqan onasi bilan G‘oyibnazarga ko‘z yoshlarini ko‘rsatmay, bu voqeani sir tutishida ham uning aqli raso ekanligi ko‘rinib turadi. Aytsa, ish chuvalashishi, gap-so‘z ko‘payishi, yigitlar mushtlashishi, jigarlar (aka-singil: Samandar-Qamariddinning otasi va Enaqiz-Zulayhoning onasi) o‘rtasidagi munosabat battar chalkashishi mumkinligini sezgan holda bu voqeada u g‘olib bo‘lganligi uchun sir tuta qoladi. Bir necha kundan so‘ng G‘oyibnazar bilan bo‘lgan suhbatda Qamariddinni cho‘ponlar kaltaklabdi, degan vaqtida, “men urdim” yo‘lto‘sarlik qilgani uchun deb aytadi. Bundan ko‘rinadiki, Zulayho har qanday holatda ham G‘oyibnazarga yolg‘on gapira olmaydi.

G‘oyibnazar va Zulayhoning nikoh to‘ylaridan hech qancha vaqt o‘tmasdan Matqobil amaki urush boshlanganligi haqidagi xabarni olib keladi. Ishq otashida mast bo‘lib yurgan juftlik uchun borliq faqat ishqdan iboratdek edi. Sovuq urush xabaridan so‘ng G‘oyibnazar urushga ketishga tayyorgarlik ko‘ra boshladi, Toshbuvi, Enaqiz, Zulayholarning uzoq yig‘i-sig‘isidan so‘ng G‘oyibnazarning urushga jo‘nab ketish kuni keldi.

O‘z suygan insoningni olis manzilga, yana dahshatli olov bag‘riga jo‘natishdan og‘ir narsa yo‘q bo‘lsa kerak dunyoda. Har qancha bo‘lsa ham Zulayho o‘zini tutdi. Hali kelinlik chillasidan chiqishga ulgurmay yorini urushga jo‘natgan Zulayho uchun viqorli Oyqor ham mung‘ayib qolganday tuyuladi. “Salom, tog‘lar” qissasida Zulayho boshiga tushgan savdo – xotin-qizlarning urush tufayli yaqinlaridan uzoqda bo‘lishi, yoridan ayrilish, hijron motivini jahon adabiyotida, xususan, qardosh xalqlar adabiyotida ham uchratishimiz mumkin. Masalan, Chingiz Aytmatovning “Jamila” qissasi qahramoni Jamila ham to‘ylaridan hech qancha vaqt o‘tmasdan turmush o‘rtog‘ini urushga kuzatadi. O‘zi esa front ortida xizmat qiladi. Zulayho ham Jamila kabi dala ishlariga chiqqa boshlaydi. G‘oyibnazar ketganidan keyin u ishlagan brigadaga o‘roqchi bo‘lib ishga chiqadi. Oy-kuni yaqinlashayotgan Zulayho G‘oyibnazar yozgan xatga javob yozadi:

Qoramiqday qaro ko ‘zlar

Qaro qoshga intizor.

Qaro kunning qilichlari

Qalbima bermang ozor...

Zulayhoning farzandi Otaqo‘zi tug‘ilgach, u yana dala ishlariga qaytadi. O‘roqchilar orasida kelinchaklar ko‘pchilikni tashkil etardi. Ayrim shilqim aravakashlar va xirmon ishchilari yoshi bir joyga borib qolgan bo‘lsa ham, ularga gap tashlashar, behayo so‘zlar aytishardi. Bunday paytlarda Qorako‘z qo‘rqqanidan birorta ayolga mahkam yopishib olardi. Ba’zi erkaknamo, hech nimadan qaytmaydigan ayollar ular bilan basma-bas aytishar, og‘zidan bodi kirib shodi chiqardi. Zulayho esa ularning gap-so‘zlaridan uyalib, boshqa tomonga ketib qolardi.

G‘alla o‘rimida ba’zan ayollar ham hali mo‘ylovi sabza urmagan bolalar bilan hazil-huzul qilib qo‘yar edi va bu el orasida gap-so‘z bo‘lardi. Bittasi bosti-bosti bo‘lsa, ikkinchi bir gap-so‘zlar paydo bo‘laverardi. Lekin Zulayho bunday hazil-huzullardan uzoqroq yurishga, bunaqa qiz-juvonlarga qo‘shilmaslikka harakat qilardi. Qo‘li bo‘shadi degunicha yolg‘iz o‘zi xayol surib o‘tirardi. Uning

bu qiliq‘ini yoqtirmaydigan ayollar maza-bemaza gaplar bilan uni kamsitishsa ham, achchiq-tizziq gaplar bilan jahlini chiqarsa ham u indamay o‘tiraverardi.

Zulayho va Jamila obrazlarini qiyoslaydigan bo‘lsak, Zulayho yuqoridagi fikrlardan bilish mumkinki, iboli, hayoli, og‘ir-vazmin, mulohazali ayol obrazi. Ch.Aytmatov Jamilasi esa bu borada uning aksi: sho‘x, ko‘nglidagini “tars-tars” aytadi-qo‘yadi, erkaknamo xarakterli ayol obrazi.

Jamila va Zulayho taqdirlari juda o‘xhash bo‘lsa-da har ikkisining xarakterlari har xil. Shu sabab bu o‘xhash taqdirlar yakuni ham turlicha. Zulayho hazillardan, gap-so‘zlardan uzoqroq yurishga harakat qilsa, Jamila buning aksi. U hattoki yigitlardan ham tortinib o‘tirmaydi. Armiyadan qaytib kelgan yigitlar bilan qiz-juvonlarning suv bo‘yida tapir-tupur olishib bir-birini suvga itarib o‘yin kulgu qilgan vaqtida Jamilaning o‘zini tutishidan ham buni bilsa bo‘ladi. Faqat Doniyor unga qarab turganini ko‘rgachgina: – Yetar, hazilning tagi zil bo‘lmasin tag‘in! “Nari tur”,¹⁸ – deya unga hazil qilayotgan yigitlarning ko‘kragidan itarib yuboradi.

Jamila hayotni, o‘zini sevardi va oxir oqibat bu sevgisi Doniyorni tanlashga undadi. Zulayhoning esa o‘z juftiga bo‘lgan sevgisi cheksiz va oxir oqibat shu cheksizlikka g‘arq bo‘ldi.

Insoniyatning taqdiri qanday kechishi uning oilasi, atrof-muhit, o‘z xarakteriga ham bog‘liq. Zulayho ulg‘aygan muhit sadoqatni, muhabbatni uning ko‘ksiga jo qilgan (uning onasi Zulayho go‘dakligidayoq beva qolgan bo‘lsa ham ikkinchi bor turmush qurmagan). Zulayho butun vujudi bilan G‘oyibnazarni sevdi. Hayotni, har bir nafasini usiz tasavvur qila olmasdi. Shu sabab ham ayriliqqa chiday olmadi. Aqldan ozish darajasigacha yetay dedi. Oxir oqibat o‘zini halokatga duchor qildi.

Atoqli yozuvchimiz Odil Yoqubov: Nurali Qobulning “Salom, tog‘lar” qissasini o‘qiganimda bolalik va o‘smirlilik chog‘larim lop etib ko‘z o‘ngimda jonlangan edi. Og‘ir urush yillariga to‘g‘ri kelgan bu davr qanchalik mushkul bo‘lmasin, bolalikka xos nurli kechinmalarga boy edi. Nurali Qobul o‘z qissasida og‘ir urush davri voqealarini mana shu nurga, ham ma’yus, ham bolalikka xos

¹⁸ Айтматов Ч. Жамила: кисса. – Ташкент: Шарқ, 2005. – Б. 42.

yorug‘ tuyg‘ularga yo‘g‘irib bera olgan. Shuninig uchun ham “Salom, tog‘lar” qissasi kitobxонни loqayd qoldirmaydi. Qissa qahramonlari Qorako‘z bilan G‘oyibnazarlarning urush tufayli chilparchin bo‘lgan beg‘ubor sevgilari esa har qanday odamni ham chuqur hayajonga soladi,¹⁹ – deb yozadi.

Urush shunday kulfatki, shunday yovki, u barcha ezguliklarni toptab yo‘q qilishga ham qodir. Yozuvchi O.Yoqubov aytganidek, bolalikka xos nurli kechinmalar ham, beg‘ubor sevgi ham ba’zan unga bardosh bera olmaydi.

G‘oyibnazarsiz bu hayotni tasavvur qila olmagan Zulayho o‘z joniga qasd qilmoqchi bo‘ladi: Oy yorug‘ida nim tovlanib turgan muzliklar sari poyintar-soyintar qadam tashlab yurib ketdi... “Alvido tog‘lar! Yer yuzida hamma bir-birini sevadigan bo‘lganda, odamlar orasidan nafrat va xusumat yo‘qolganda, bizni abadiy uyqudan uyg‘oting! Biz shunda: “Salom, tog‘lar” – deya qayta tug‘ilamiz (138-b.)!

Muzliklar bag‘ri tomon oshiqayotgan Zulayhoning xayoliga kapitan Rusovdan kelgan xat keladi va orqaga qaytishga harakat qiladi. U iziga qaytmoqchi bo‘lib archaga yopishadi. Afsuski, qor ko‘chkisi barchasini tep-tekis qilib ketadi. Shunday qilib, Jamila sevgisi tufayli oilasidan voz kechib, Doniyorni tanlab, o‘zi xohlagan, izlagan baxt tomon ketdi. Zulayho esa turmush o‘rtog‘iga bo‘lgan mehri, muhabbatи tufayli o‘zi sevgan tog‘ va muzliklar qariga qo‘silib ketdi.

Yozuvchi Zulayho obrazi misolida o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan iffat, ornomus, sadoqat kabi fazilatlarni ko‘rsatib bermoqchi bo‘lgan, bizningcha. Axir, boshqacha bo‘lishi ham mumkin emasdi. O‘zbek adabiyotida eng ko‘p kuylangan mavzulardan biri aynan shu – ayol sadoqati. Nafaqat, nasriy asarlarda, balki dramatik, lirik asarlarda ham bu mavzu qayta-qayta qalamga olingan. O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov xuddi shu mavzuni qalamga olib, “Ayol” she’rida Zulayho kabi turmush o‘rtog‘ini urushga jo‘natgan va undan ayrilgan beva qismatini yoritadi.

...Uning ham panohi qaytmadi jangdan,

¹⁹ Ёкубов О. Адабиётимиз келажаги. // Ўзбекистон маданияти. – 1980. - № 36. – Б. 2.

O'n to 'qqiz yoshida beva qoldi u.

*Sevgidan yetimu umrdan yarim,
Qurigan ko 'ksida yolg 'iz belanchak.
Abadiy firoqni, hayhot, do 'stlarim,
Abadiy visol deb bildi kelinchak²⁰.*

1965-yilda yozilgan ushbu she'rda yoridan ayrilgan o'n to'qqiz yoshli kelinchakning sochlari bir umr yor ko'ksi emas, muzday bolishda qolganligi, yoriga bo'lган sadoqati tufayli abadiy firoqni abadiy visol deb bilgani kuylangan. Sadoqatni bo'yniga tumor qilib taqqan o'zbek ayollariga xos bo'lган xarakter ochib berilgan.

Afsuski, guruch kurmaksiz bo'lмаганidek, bugungi tinch zamonimizda, barcha sharoitlar muhayyo bo'lган jamiyatimizda ham she'rda aytilgan "o'zini ming bitta bozorga solganlar" uchraydi. Urush davrida ham, urushdan keyingi davrlarda ham bu kabi ayollar bo'lганligiga shoir ishora qilgan va ularga o'rnak uchun beva ayol sadoqati kuylangan. Ba'zi ayollar turmush o'rtog'i hayot bo'la turib, ularga xiyonat qilishadi. Nafaqat, Jamila, balki o'zbek adabiyotida ham bunday obrazlarni uchratishimiz mumkin (Masalan, "Ikki eshik orasi", "Chinor" asarlaridagi kabi). O'n to'qqiz yoshli beva ayol esa turmush o'rtog'idan bir umrga judo bo'ldi, jangchi vafot etdi. Lekin ayol unga bo'lган sadoqatini saqlab qoldi. Shu sabab ham shoir uni ulug'lab, kitobxonlarga murojaat qiladi.

Lirikada kuylangan bu mavzu nasrda – "Salom, tog'lar" qissasida yanada kengroq yoritib berilgan. Qissaning she'rdan farqi shundaki, u fojiali yakun topdi. Zulayhoning taqdiri qiyoslangan obyektlardan farqli yakun topishiga asosiy sabab uning qalbida va atrofida kechgan kolliziylar tufaylidir. Qissaning fojiali – Zulayhoning o'limi bilan yakun topishida yozuvchining ma'lum bir maqsadi amalga oshirilgan. Urush insonlar boshiga yetkazgan kulfatlardan yana birini ko'rsatgan.

²⁰ Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. Биринчи жилд. Шеърлар ва достонлар. – Тошкент: Faafur Fu'lom nomidagi Adabiyet va san'yat nashriyoti, 2000. – Б. 83.

“Ayol” she’rida kuylangan sadoqatli beva “Salom, tog‘lar” qissasidagi Zulayho obrazi bilan taqdirlari, qismatlari yaqin, lekin “Jamila” qissasi qahramoni Jamilani ham qoralashdan yiroqmiz. Axir, u ham inson, u ham nozik qalbli ayol. Uning ham sevishga, sevilishga haqqi bor edi. Jamilaning Doniyor bilan ketib qolishiga bir necha sabablar bor. Birinchidan, Jamila Zulayho kabi o‘zi sevib, ko‘ngil qo‘yib turmushga chiqmagan. Ikkinchidan, Jamilaning Zulayhodagi kabi oilani mustahkamlovchi, er-xotinni bog‘lab turuvchi ne’mat – farzandi ham yo‘q. Uchinchidan, Jamila Zulayho kabi o‘ziga turmush o‘rtog‘ining bor-yo‘g‘i deb baho bera olmas edi. Chunki Sodiq har safar xat yozganida otasiga, oyisiga, ishchan oyisiga salom yo‘llar, ana undan keyin butun qavm-qarindoshlarining sog‘lig‘ini so‘rar va oxirida “shuningdek, xotinim Jamila ham eson-omon yuribdimi?” – deb bir og‘iz qistirib o‘tardi. Axir, Jamila bu oilaga shu inson uchun, Sodiq uchun kelgan. Afsuski, u hammadan keyin (ota-onasidan keyin bo‘lsa ham mayli edi), butun qarindosh-urug‘lardan so‘ng eslanadi. Shu sabab ham “Jamila har safar xatni qo‘liga olishi bilan o‘z-o‘zidan qizishib ketar, uni harislik bilan tez-tez o‘qiy boshlardi. Lekin xatning oxiriga yaqinlashgan sayin yuzidagi quvonch alangalari so‘nib, rangi o‘chib, qoshlari yana chimirilib qolardi. Ba’zida xatni oxirigacha o‘qib chiqishga ham sabri chidamay hafsalasi pir bo‘lardi-yu, g‘ing demasdan, go‘yo qarz olgan narsasini qaytarib berayotganday bo‘shashib, xatni oyimning qo‘liga tutqazardi”²¹, – deydi yozuvchi.

Adabiyotshunoslik lug‘atida san’atkor ifodalamoqchi bo‘lgan fikr badiiy obrazda tugal aytilmaydi (ya’ni kitobxon og‘ziga chaynab solib qo‘yilmaydi). Badiiy obrazning ayrim chizgilari punktir (uzuq-uzuq chiziqlar) bilan tortiladi. Ya’ni san’atkor badiiy obrazda ma’lum imkoniyatlar yaratadi-da, ularni ro‘yobga chiqarishni o‘quvchiga qoldiradi. Bu xil imkoniyatlar, ayniqsa, “obyektiv tasvir” yo‘sindan borilgan, yozuvchi xolis kuzatuvchi mavqeyida turgan asarlarda kuchli namoyon bo‘ladi. Garchi asarda tasvirlangan narsa bitta bo‘lsa-da, o‘quvchilar (ijodiy tasavvur imkoniyati, xarakteri, dunyoqarashi va b.ga ko‘ra) turlichalbo‘lgani uchun konkret badiiy obrazlarning ongida turlicha akslanadi, turli

²¹ Айтматов Ч. Жамила: кисса. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 16.

xulosalarga olib keladi,²² – deyiladi. Shu o‘rinda aytishimiz mumkinki, yozuvchi Jamilani ham, Sodiqni ham qoralamagan yoki oqlamagan. Mana shu birgina xatdan kitobxonning o‘zi xulosa chiqarishiga qo‘yib bergen.

Aslida, Sodiq Jamila uchun alohida ikki enlik xat yozganida edi, “Jamilam” deb uni sog‘inganligi haqida aytganida edi, “meni kut, men, albatta, qaytaman” deganida edi, ehtimol, Jamila ham turmush o‘rtog‘iga kerak ekanligini, Sodiq olisda bo‘lsa ham oila baxtini, uning sevgisini his qila olar edi. Ana o‘shanda u ham munosib javob qaytarib, uni kutishi mumkin edi. Ammo Jamila hech qachon Sodiqning iliq tuyg‘ularini, sevgisini his qila olmadi. Shuning uchun ham, balki, Jamila o‘zi xohlagan, kutgan mehrni izlab boshqadan topdi. Taniqli adabiyotshunos, tanqidchi Ozod Sharafiddinovning bir fikri bor: Davrlar har qancha o‘zgarmasin, insonni harakatga keltiruvchi asosiy omil shaxsiy manfaat bo‘lib qolaveradi. Insonning bu xislati ruslarning “Baliq chuqur joyni izlaydi, inson esa yaxshi joyni” degan maqolida yaxshi ifodalangan²³. Xuddi shunday, bu hayotda hamma narsa ijobiy ma’noda manfaatlar evaziga quriladi. Bizningcha, Chingiz Aytmatov bu asarni faqat Jamilaning sevgisi yoki xiyonatinigina ko‘rsatib berish uchun yozmagan, aksincha mehr-muhabbat bor joyda “hayot” bo‘lishini uqtirmoqchi bo‘lgan. Oila mustahkamligida qanaqa davr bo‘lishidan qat’iy nazar oila boshi mas’ul ekanligini yana bir bor ko‘rsatib bergen. Zulayho esa hamisha G‘oyibnazarning sevgisini, unga kerakligini his qildi. Shuning sabab turmush o‘rtog‘i uchun jon berishga ham tayyor edi. Umuman, har ikki qahramon (Zulayho va Jamila) misolida sevgisiz, muhabbatsiz yashab bo‘lmaslikni yana bir bor ko‘rshimiz mumkin. Zulayho haqiqiy o‘zbek ayoli timsoli – mehribon qiz, g‘amxo‘r qo‘shti, sadoqatli yor, mehnatkash fuqaro. Bu asarlar qachon, qaysi davrda yaratilmasın ular bizga yashash sharoitimidandan, hayotimizda yuz berayotgan voqealardan kerakli xulosalar chiqarib, sermazmun hayot kechirishimizga dasturul amal bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, amerikalik afg‘on yozuvchisi Xolid Husayniyning “... urushda or-nomus tinchlik paytidagidan ham ko‘ra ko‘proq

²² Қуронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 47.

²³ Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарк, 2004. – Б. 238.

ahamiyatga ega”,²⁴ – degan fikrlarini keltirishni joiz bildik. Chunki jangga kirayotgan har qanday jangchi ortida ayol kishi turadi. Jangga kirishish uchun jasoratni ana shu ayoldan oladi. Xoh u ona, xoh rafiqqa, opa-singil yoki farzand bo‘lsin.

O‘z ijodini dastlab hikoyachilikdan boshlagan Nurali Qobul qissachilikka qo‘l urar ekan, uning qissalari birin-ketin dovruq qozona boshladi. Har bir yozgan qissasi yozuvchilar, adabiyotshunoslar, tanqidchilar tomonidan yuqori baholandi. Har qanday san’at maydoniga mashqlar evaziga kirib boriladi. Mashqlaringizni kuzatuvchilar fikrlari bilan siz o‘z yo‘lingizni topib, insonlar uchun nimalar kerakligiga o‘rgana borasiz va xalq nimani xohlashini to‘la anglab yetasiz. Nurali Qobul ham so‘z san’ati maydoniga she’r va kichik nasriy asar – hikoyalar mashqi bilan kirib keldi. Dastlabki mashqlari ham e’tibor va e’tiroflarga sazovor bo‘ldi. Shundan so‘ng, qissa janrida barakali ijod qildi va yirik nasriy asarlar – roman, roman-monolog, roman-epopeya, roman-pamfletlari bilan nafaqat o‘zbek, balki boshqa xalqlar adabiyotini ham zabit etdi. Asarlari chet tillariga, xususan rus, qirg‘iz, tojik, qoraqalpoq, turk, ingliz, ukrain, ispan, bolgar va boshqa xorijiy tillarga tarjima qilindi. Sobiq ittifoqning M.Gorkiy, B.Polevoy mukofotlari laureati, Xalqaro Ahmad Yassaviy mukofoti laureati, Xalqaro Chingiz Aytmatov akademiyasining faxriy akademigi unvoniga sazovor bo‘ldi.

Yuqorida keltirib o‘tganimiz “Salom, tog‘lar” qissasining dastlabki nashrida quyidagicha parcha asar tarkibida uchraydi: Dabdurstdan toshlar shaqirladi. Qorako‘z cho‘chib tushdi. Qo‘rquvdan qo‘li bo‘shashib, o‘tini bog‘i yerga tushib ketdi. Bog‘i uzildi shekilli, shoxlar har tomonga sochilib yotardi. Qorako‘z qo‘rqib joyida turib qoldi. Qo‘rqa-pisa nimchasining cho‘ntagidan gugurt olib yoqdi-da, yerga tashladi. Namxush tog‘ shamolida ohista shitirlab turgan sarg‘ish xazonlar ohista lovullab yona boshladi. Bu voqealarning hammasi qandaydir qisqa muddatda sodir bo‘ldi. Yon tomondagi erkak kishining piching aralash xunuk kulgusi eshitildi. Qiyalikda nos chekaverib sarg‘ayib ketgan chirkin va orasi ochiq tishlari ko‘rinib, tirjaygancha Qamariddin turardi²⁵. Shomdan so‘ng atrofga

²⁴ Хусайний Х. Минг қуёш шуъласи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. – Б. 338.

²⁵ Хушбок Ж. Туркий дунё ёғудси. – Тошкент: 2021. – Б. 22.

qorong‘ulik cho‘kkan bir vaqtda Jovli Xushboq aytganidek, “bo‘ri yoki odam ekanligini ajratolmayotgan qiz qanday qilib yigitning “nos chekaverib sarg‘ayib ketgan chirkin va orasi ochiq tishlari”ni, tirjayib turganligini ko‘rishi mumkin”.

Qissadagi dalillanmagan, kitobxon ishonishi qiyin bo‘lgan bu epizodik sahna yozuvchi tomonidan keyingi nashrlarda olib tashlandi va quyidagicha chop etildi: Dabdurstdan toshlar shaqirladi. Qorako‘z cho‘chib tushdi. Qo‘rquvdan qo‘li bo‘shashib, o‘tini bog‘i yerga tushib ketdi. Bog‘i uzildi shekilli, shoxlar har tomonga sochilib yotardi. Qorako‘z qo‘rqib joyida anchagacha turib qoldi.

Yon tomondagi erkak kishining piching aralash xunuk kulgisi eshitildi. Qamariddin...

Qorako‘z nafrat bilan, Qamariddin esa qandaydir yoqimsiz najot ko‘zi bilan bir-biriga tikilib, anchagacha jim turishdi (89-b.).

Yozuvchining o‘z xatosini tushunib, uni vaqtida to‘g‘irlash natijasida asar kitobxonning cheksiz mehriga sazovor, takrorlanmas qissa holiga keldi.

Umuman olganda, yozuvchi obraz tizimi tarkibiga kiruvchi personaj, detal, joy, makon, davr kabilarni asar kompozitsiyasiga mohirlik bilan birlashtirgan. Ularning badiiy-estetik ta’sirini oshirish uchun muallif nutqi, monolog, dialog kabi shakllaridan hamda turli badiiy tasviriy-ifodaviy vositalaridan unumli va o‘rinli foydalangan.

“Salom, tog‘lar” qissasida yozuvchining mahorati yana shunda ko‘rinadiki, asar qurilishi faqat muallif nutqi va dialogik nutqlardan iborat emas. Monologik nutqlardan ham keng foydalangan. Buni asosan Zulayhoning o‘zi bilan bo‘lgan suhbatlarida ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, peyzaj qissaning umumiylazmum-mohiyatini ochishda muhim rol o‘ynagan. Asar tili ravon, sodda, xalqchil. Undagi tabiat tasvirlari, obrazlar, xususan, Zulayho obrazi bilan tanishar ekanmiz, Norboy Xudoyberganovning “Nurali Qobul o‘tkir ijtimoiy muammolarni dadil ko‘tarib chiqib, ularni chuqur idrok etishga, beqiyos badiiy umumlashmalarni, original, yangi tiplar yaratishga astoydil kirishgan yozuvchi sifatida tanilyapti”,²⁶ – degan e’tirofi qanchalar to‘g‘riligiga ishonch hosil qilamiz. Haqiqatda, “Salom, tog‘lar”

²⁶ Кобул Н. Кечиккан турналар. – Тошкент: Тафаккур, 2015. – Б. 229.

qissasi g‘oyat murakkab palla – ikkinchi jahon urushi va undan keyingi davrdagi tog‘ qishlog‘i odamlari hayoti, eng muhimi, ikki sevishgan qalb egasi G‘oyibnazar bilan Zulayhoning buloq suviday tiniq, shaffof muhabbat haqidagi ehtiroslarga to‘la yoniq qissadir. Adibning mahorati shundaki, u sevgining qudratini, ayriliq azobining qanday fojialarga olib kelishini o‘ziga xos uslub, badiiy bo‘yoqlarda ko‘rsatdi. Kitobning so‘nggi sahifasini yopganda muhabbat qo‘ygan kishisidan ayriliqda yashash pirovard natijada fojiaga olib keladi, degan fikr qalbimizda aks sado beradi.

1.2-§. Davr voqeligi va uning badiiy talqini

Adabiyotning eng katta vazifalaridan biri jamiyatning ijtimoiy holatini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatishdir. Hech bir soha adabiyotchalik jamiyatning ijtimoiy ongini rivojlantira olmaganligi sababli ham adabiyot, kitobxonlik, har qanday davrda o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ijodkorlar o‘z ijod namunalari orqali xalqining dunyoqarashini va xohish-istiklarini tasvirlash bilan bir qatorda ma’lum bir davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni gavdalantirish, shu davr hayoti haqida xulosalar chiqarishi mumkin. Qissalardagi shu jihatlarni tadqiq etish orqali yozuvchilarning davr voqeligini badiiyatda qanday tasvirlash mahorati o‘rganilgan²⁷.

Badiiy adabiyot taraqqiyotining ichki omillari mavjudligini e’tirof etar ekanmiz, adabiyot taraqqiyotiga ta’sir o‘tkazadigan bir qator tashqi omillar, xususan, ijtimoiy-siyosiy omillar ta’sirini ham yodda tutish lozim bo‘ladi. Zero, “bir davr adabiyotining g‘oyaviy-mazmuniy hamda poetik xususiyatlari, avvalo, o‘sha davrning ijtimoiy tarixiy shart-sharoitlari bilan belgilanadi”²⁸. Shu ma’noda, milliy o‘zlikni anglash, milliy tarixni o‘rganishga munosabat o‘zgara boshlagach, badiiy adabiyotda ham tarixiy mavzularga e’tibor kuchaydi. Har bir davrning o‘ziga xos muammolari bo’lgani kabi o‘sha davrga xos bo’lgan qahramon qissaga

²⁷ Кўбаев К. Ўзбек қиссаларида тарихий ҳақиқат ва бадиий маҳорат (60–80-йиллар): Филол. фан. номзоди... дис. – Тошкент: 2001;

²⁸ Куронов Д. Чўлпон насли поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 8.

o’zi mansub davr, zamon, voqelik muammolarini olib kiradi, demakki, jamiyat, ijtimoiy hayot ham badiiy talqin etiladi.

Tarixiy shaxslar va tarixiy voqealar aks ettirilgan asarlar real manbalarga asoslansa-da, ularda badiiy to‘qima nisbatini ham unutmaslik lozim. Urush va uning oqibatlari yoritilgan asarlar orqali urush davridagi ijtimoiy-iqtosodiy, axloqiy-ma’naviy holat qanday kechganligini ko‘rishimiz mumkin. XX asrning atoqli yozuvchilari Chingiz Aytmatovning “Yuzma-yuz”, Valentin Rasputinning “Omon bo‘lsang unutma”, O‘lmas Umarbekovning “Urush farzandi” qissalari orqali urush va uning oqibatlari haqida muayyan ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. “Yuzma-yuz” va “Omon bo‘lsang unutma” qissalarida urush davri voqealarini aks etgan bo‘lsa, “Urush farzandi” qissasida urushdan keyingi tinchlik zamonlarda ham urush insonlar taqdiriga salbiy ta’sir etishda davom etayotgani aks ettirilgan.

O‘lmas Umarbekovning “Urush farzandi” qissasi qahramoni Anna-Mariya Vengriya fuqarosi. U esini tanigandan buyon otasini fashistlar qo‘lida o‘lgan, vatan uchun jonini fido qilgan inson, onasining suratdagi turmush o‘rtog‘i deb biladi. Afsuski, hayot haqiqatlarini har doim ham yashirib bo‘lmaydi. Sho‘x qizaloqni qo‘snnisi “fashistning bolasi” deb haqorat qilgach, asli haqiqatni bilishga harakat qiladi. Nima uchun u “fashistning bolasi?” Anna-Mariyani kutdirmay, ko‘p o‘tmay bu haqiqat qaror topadi. Bir kuni Anna-Mariya maktabdan qaytib kelsa, uylari ostonasida bir nemis ularni kutayotganini ko‘radi va uyiga taklif etadi. Onasi kelgach nemis kishi bilan uzoq tortishadi va bu tortishuvlardan qiz biladiki, haqiqiy otasi shu kishi. Urush davrida urushdan qochgan nemis soldati Anna-Mariyaning onasidan boshpana so‘raydi. Ayolning turmush o‘rtog‘i ham urushda bedarak yo‘qolgan. Keyinchalik ayol va nemis soldati bir-biriga ko‘ngil qo‘yadi. Ularning muhabbati mevasi sifatida Anna-Mariya dunyoga keladi. Urush tugagach, yigit o‘z yurtiga qaytib ketadi. Anna-Mariyaning otasi ruslarning dushmani, ya’ni germaniyalik nemisligi sabab, u sal sho‘xlik qilsa atrofdagilar uni “fashistning bolasi” deya tanbeh berardi. Atrofdagilarning unga nafrati uning ham boshqalardan nafratiga sabab bo‘ldi. Bu voqealar go‘zal Anna-Mariyaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini yo‘qotib boraverdi.

Qissa voqealarida Anna-Mariyaning hech qanday aybi va gunohi yo‘q. Uning hayoti shunday kechishiga birinchi navbatda urush, ikkinchidan esa kattalar (onasi va nemis soldati) sababchi. Ammo jabrini doim Anna-Mariya tortdi. Yigirma yoshdan oshganda ham, urush tugaganiga yigirma yildan oshgan bo‘lsa ham u hamon urush oqibati sabab baxtsiz qahramon. Bu kabi urush va uning asoratlari aks etgan asarlar juda ko‘p. Chunki urush mavzusi va uning salbiy oqibatlari butun dunyo ijodkorlari uchun mangu mavzudir. Yozuvchilar urush mavzusini asarga olib kirar ekan, kitobxonlar urush oqibatlari qanday bo‘lganligi bilan tanishishi va undan tegishli xulosa chiqarishi bosh maqsad bo‘ladi. Biz uchun mavzu obyekti bo‘lgan taniqli yozuvchi Nurali Qobulning “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissasida ham urush davri fojialari yoritib berilgan.

Adabiyotshunos U.O‘jaboyev badiiyatda urush mavzusi haqida fikr yuritib, milliy adabiyotimizda urush davri haqiqati bor bo‘yi bilan aks etgan, urushning nafaqat inson joniga, balki uning ma’naviyatiga, axloqiga, ishonch-u e’tiqodiga, or-u nomusiga daxl qiladigan shafqatsiz qiyofasi katta mahorat, chuqur bir insoniy dard bilan badiiy talqin etilgan asarlar borligini, ular tom ma’noda o‘zbek harbiy prozasining jiddiy yutuqlari ekanligini e’tirof etib shunday yozadi: ...ularda oldingidek, ayniqsa, aksariyat urush ko‘rgan yozuvchilarimiz asarlarida uchraganidek, urushni tantanavor tarzda, g‘alaba marshi sadolari jo‘rligida emas, balki u qanday bo‘lsa, shundayligicha – bor dahshati, fojiasi, inson boshiga keltingan cheksiz musibat va kulfatlari bilan ko‘rsatishga intilish bor... Badiiy asarda tasvirlanayotgan har bir davrning o‘z takrorlanmas ruhi, ohanglari bo‘lishini yaxshi bilamiz. Ikkinchi jahon urushi davridagi hayat esa o‘zining o‘taketgan shafqatsiz ruhi, fojiali ohanglari bilan ajralib turadi²⁹.

Shu ma’noda, yozuvchi Nurali Qobulning “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissasi ham o‘zining o‘ta kuchli realizmi, shafqatsiz ruhi va fojiali ohangi bilan o‘quvchi qalbini larzaga soladi.

Yozuvchi tomonidan muvaffaqiyatli tanlangan sarlavha asarning o‘quvchilar tomonidan qizg‘in kutib olinishini ta’minlovchi badiiy faktlar ekanligi ma’lum.

²⁹ Ўлжабоев У. Замон талаби ва ижодкор масъулияти. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2012. – Б. 269.

Nurali Qobul tomonidan tanlangan sarlavha asar badiiyatiga alohida joziba bag‘ishlagani e’tirofga loyiq. Ma’lumki, o’zbek xalqi nekbin, umidli, tilidan shukronasi tushmaydigan xalq. Pishiqlikda og‘zi biror bir ne’matga tekkanda, ming shukronalar qilib, Yaratgandan kelasi yil ham shu paytlarga eson-omon yetkazishni duo qilib so‘raydi. “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” sarlavhasidagi milliy ruh, mazmunida anglashilgan fofia(viylik) bilan to‘qnashib mohiyatan kontrastlik hosil qilgan. Aynan ana shu kontrastlikning o‘ziyoq asarning birinchi jumlasidagi “sukunat” obrazini moddiylashtiradi. Shu o‘rinda adabiyotshunos olim A.Rasulovning “Badiiy asarning nomi – semiotik kalit. Kalit esa asar mohiyati, borlig‘ini belgilovchi konsepsiyaning aniq, lo‘nda ifodasi... Janr, sarlavha, konsepsiya (tasvir predmeti salmog‘i) asarning ilk semiotik markazida yarqirab ko‘zga tashlanadi. Ilk semiotik markaz deganda aksariyat hollarda birinchi misra (satr, jumla) tushuniladi”,³⁰ – degan gapini eslash joiz.

Darhaqiqat, asarda aks etgan hayot manzaralari, muhit qiyofasi, insoniy taqdirlar, davr ziddiyatlari qissaning ilk jumlasidayoq yarq etib ko‘zga tashlanadi. Mahoratli adib nozik ta’b ruhshunos kabi o‘quvchi ongu shuurini avval boshdanoq butunlay zabit etish uchun davr va muhit qiyofasini yoritishda peyzaj tasviridan o‘rinli foydalangan.

Peyzaj muammosini maxsus monografik planda tadqiq qilgan M.Sultonova mazkur vositaning badiiy asardagi o‘rni masalasi haqida shunday mulohaza yuritgan: Yozuvchi o‘z g‘oyaviy niyatini faqat qahramonlarning xatti-harakatlari orqali emas, balki ularni o‘rab turgan tabiat manzaralarini tasvirlash orqali amalga oshiradi. Peyzaj tasviri orqali o‘quvchiga ta’sir etishni, undagi go‘zallik tuyg‘ularini tarbiyalashni ham ko‘zda tutadi³¹. Olma fikridan shuni anglash mumkinki, peyzaj tasviri qahramon xarakteri bilan uyg‘un kelishidan tashqari, kitobxon qalbiga tarbiyaviy, ma’rifiy va estetik ta’sir vazifasini ham bajaradi.

Qissada keltirilgan tabiat tasviriga e’tibor qarataylik: Borliq oppoq va qo‘rqinchli sukunat og‘ushida. Hududsiz kengliklar, ko‘z ilg‘aydigan neki bor, hammasi oq, oppoq. Qisqa va sertashvish kunduzlar ham yurakka vahm soluvchi,

³⁰ Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б. 52-53.

³¹ Султонова М. Пейзаж санъати. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 9.

g‘oyat cheksiz tuyuladigan bu sukunatni buzolmas edi. Oyqorning bebosh Toshoxur shamoliga ko‘krak tutgan, bulutlarga sanchilib turgan cho‘qqilarni ham qalin qor bosdi. Izg‘irin muzlikka aylangan qoyalarni yalab-yulqab chiyillar, jarliklar tepasida qor quyuni o‘ynardi.

O‘n-o‘n besh yillar berisida Oyqorga bu qadar qalin qor tushmagandi...³². Bir qarashda tabiat tasviriga xizmat qilayotgandek, aslida muayyan bir badiiy maqsad bilan tanlangan so‘zlar zalvori sovuq urush davri qiyofasini to‘ldirish uchun chizgigina emas, shu bilan birga ular asar qahramoni Anvarning bola qalbida kechayotgan ruhiy talotumlarning ko‘zgudagi aksidek tuyuladi.

“Qo‘rqinchli sukunat”, “qisqa va sertashvish kunduz”, “vahm soluvchi, cheksiz sukunat”, “bebosh Toshoxur shamoli” (Sangzor vohasida g‘arbdan esadigan shamol – aslida fashizm balosi ham g‘arbdan kelayotgan edi), “bulutlarga sanchilib turgan cho‘qqilar”, “qoyalarni yalab-yulqab chiyillagan izg‘irin”. Zukko o‘quvchi shu o‘rinda yozuvchining “zohirda botinni bera olish” (Qozoqboy Yo‘ldoshev) mahoratini kashf etgandek bo‘ladi.

Yozuvchi borliqni oppoq, ammo qo‘rqinchli sukunat og‘ushida, deya tasvirlar ekan, sukunat so‘ziga alohida ma’no yuklaydi. Nazarimizda, bu sukunat urush davri odamlarining jur’ati va jasoratida,adolati va shafqatida, vijdoni va iyomon-e’tiqodida kechayotgan sukunat. Yozuvchi “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar”da front orti hayoti manzaralarini tasvirlar ekan, urush davrining shafqatsiz haqiqatlaridan biriga – ocharchilik hamda u tufayli insonlar a’moli va amalidagi evrilishlar, aynashlar, og‘ishlar tug‘dirgan fojialardan so‘zlaydi.

Urush yovuzlik va kulfatlar doyasi. Yozuvchi “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar”da kichik bir O‘sma qishlog‘i odamlarining urush davri hayoti misolida ocharchilik balosining so‘ngsiz iztiroblarini, g‘am-u tashvishlarini katta bir insoniy dard bilan aks ettiradi. Ocharchilik ertaklardagi yovuz dev kabi yo‘lida uchragan tirik jonni o‘z domiga tortadi. Ularning shirin joniga chang solar ekan,

³² Қобул Н. Бўри ови. – Тошкент: Ижод-Пресс, 2017. – Б. 3. (Keyingi ko‘chirmalar shu manbadan olinadi va beti qavs ichida beriladi).

insoniy hamiyatlarini toptaydi, imon-e'tiqodlarini qayta-qayta imtihon qiladi, sabr-toqatlarini, qanoatlarini sinab, odamiylik sha'nlarini oyoq osti qiladi. Yozuvchi davrning shafqatsiz manzaralarini 10 yoshli bola – Anvar ruhiyati, uning ko'zi va qalbidan o'tgan fojiaviy tasvirlarda beradi.

O'tmishda bo'lib o'tgan voqealar aks ettirilgan asarlarda odatda konflikt syujetning tugun boshlangan qismidan boshlanishi ko'p uchraydi. Uning eng keskinlashish jarayoni esa kulminatsion nuqta bilan bog'lanadi. "Badiiy asar voqealarni aks ettirgani, uning markazida inson obrazi turgani uchun ham, insonning real hayotida mavjud konfliktlarning bari unda aks etadi. Shu nuqtayi nazardan konfliktlarning uchta turini farqlash mumkin: 1) xarakterlararo; 2) qahramon va muhit; 3) ichki (psixologik). Konfliktning mazkur turlari badiiy asarda aralash holda zuhur qiladi va uzviy aloqadi bo'ladi"³³.

"Bug'doy pishig'iga yetmaganlar" qissasida ham konflikt syujetdagi voqealarning asosini tashkil etadi. Birinchi galda asarda qahramon bilan muhit o'rtasidagi ziddiyat sarlavha darajasiga ko'tarilganligida asar qahramonlari va muhitning konflikti katta ekanligini ko'rsatadi. Qahramon va muhitning ziddiyati misolida urush hamda ocharchilik iskanjası bilan insonlar o'rtasidagi kurash tasvirini keltirish mumkin. Sanam va Anvarlarning o'zi bilan o'zi suhbati va bahsga kirishi bayon qilingan bir necha o'rinalar ichki konfliktga misol bo'ladi. Qissada konfliktning dastlabki ikki turining ishtirok etishi urush davridagi voqealarni aks ettirishdagi zaruriyat, uchinchisi yozuvchi tomonidan syujet rivojlanishi, xarakterlar mantig'idan kelib chiqib badiiylashtirilgan to'qimadir.

Bir burdadan non, bir stakandan choy berib, shu o'lmas ovqat bilan bolalarni ushlab turgan maktabning ham qattiq sovuq tufayli yopilib qolganligidan afsus chekayotgan Anvarning iztirobli o'ylari endi o'z xonadonlariga ko'chadi: Qishning endigina bir oyi o'tdi. Qolgan-qutgan yeguliklar bilan bir hafta, uzoq borsa o'n kun chamasi tirikchilik qilish mumkin. Anvar onasining g'amgin nigohidan ana shu o'n kundan keyingi tashvish va tahlikani uqardi. Uyda non yopilmas, ancha vaqtdan beri xonodon tandirga yuk bo'ladigan unni ko'rmagandi. Arpa un tandirga

³³ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 144.

ilashmasdi ham. Har tong uyg‘onganda kenja singlisi tushida ko‘p non ko‘rganini aytadi.

– Non? Qay go‘rda? Qiz bolaning tushi teskari keladi. Bug‘doy pishig‘iga yetmaguncha emin-erkin non yeish qayda? – g‘amgin javob qiladi Sanam. – Bir amallab tut pishig‘iga yetganimizda edi... (8-b.).

“Hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun” shiori ostida ikkinchi jahon urushi davrida front orti hayotida yo‘l qo‘yilgan ko‘plab adolatsizliklar, beshafqatliklar badiiyatda ham o‘z aksini topgan. O.Yoqubovning “Er boshiga ish tushsa”, O‘.Hoshimovning “Ikki eshik orasi”, “Dunyoning ishlari”, N.Eshonqulning “Urush odamlari”, Salomat Vafoning “Elat” kabi asarlarida kaltabin, xudbin rahbarlarning front orti mehnat jabhalarida oddiy xalq ustida olib borgan noinsoniy siyosatlarining oqibat natijasi jang maydonlarida yuz berayotgan xunrezliklardan mohiyatan farq qilmaganligi haqqoniy talqin etilgan. “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissasida ham urush davri adolatsizliklari xuddi shunday uslubda o‘zining yaqqol aksini topgan.

Nurali Qobulning omma qiyofasini yaratishdagi mahorati voqealar rivojida yaqqol ko‘rinadi. Qissadagi Sanam, Qo‘ysin xola, Erali tegirmonchi, Usmonali, Zuhra xola, Ahmad omborchи kabi individual obrazlar syujet mantig‘iga mos, pishiq yaratilgan, ayni paytda muallif, yuqorida ta’kidlagandek, ommanning qiyofasi, uning xarakterli jihatlarini ham bir necha o‘rnarda yorqin aks ettira olgan deyish mumkin: Shu yil yozda Qo‘ysin xola otasidan meros qolgan kattakon o‘rigini kestirdi. Bu o‘rik shunchaki oddiy mevali daraxt emasdi. Qishloq bolalarining do‘sti ham edi. Uni kesishayotganda, bolalar xuddi ilon tajovuz qilgan qaldirg‘och polaponlardek duch kelgan tarafga chopib, chirqillashdi. Biroq ularning nolasiga hech kim qulq solmadi. Qo‘ysin xolaning o‘zi ham bu ishga ichi ezilib qo‘l urdi. O‘rikni kestirish yetti uxbab tushigayam kirmagan edi. Mevali daraxti borlarga o‘tgan yozda qo‘sishimcha soliq solishdi. Qishloqning bola-baqrasiyu o‘tgan-ketganlar non o‘rnida yeydigan zardoli uchun soliq to‘lash Qo‘ysin xolaga og‘irlik qildi. Qish oldidan ko‘zini chirt yumib kestirib tashladi (16-b.). “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissasida aks etgan urush davri

ocharchiligi, nafaqat, o‘zbek xalqida, balki butun dunyo xalqlarida hukmronlik qilar edi. Qardosh adabiyot vakili Chingiz Aytmatovning “Yuzma-yuz” qissasida ham Saida tilidan aytilgan shunday fikrlar bor: Qani endi qishdan omon-eson chiqib olsak. Uyda jo‘xori ham oz qolgan, qishning yarmigacha arang yetishi mumkin... Xalqning turmushi ilgarigidek emas, tanqislik, ularning ham bahorga yetar-yetmas donlari qolgan...³⁴. Yoki To‘tioy tomonidan “Mana qish ham kirib keldi, bolalarimning bo‘lsa kiyim-kechagi yo‘q – yalang‘och, bor ishonganimiz ikki qop jo‘xori qoldi, xolos, bu nima bo‘lardi”³⁵, – degan jumlalaridan ham ko‘rinib turibdiki, ochlik balosi barcha xalqlarni o‘z domiga tortmoqda edi.

Sho‘ro davri mafkurasingin hosili bo‘lgan ijtimoiy mutelik, qo‘rqaqlik, jur’atsizlik o‘sha davr odamlarining psixologiyasiga singib ketganini och qolgan bolalarining iltijosiga chidolmay kolxoz omboridan g‘alla o‘g‘irlagan Abdurahmon ayiqning ko‘pchilik oldida kolxoz raisi va uning shotirlari tomonidan urib o‘ldirilgan holatida ham ko‘rish mumkin. Bunday xunrezlikka chidolmay bosh ko‘targan birgina inson – Erali tegirmонchi shunday deydi: – Insolini it yeganlar! – dedi choponining etagini qoqib. – To‘rt bolani ko‘z oldimizda yetim qilishdi-ya! Frontda o‘layotganlarning yetimlari yetmasmidi sen noinsoflarga! Ko‘zimiz o‘lgan qo‘yning ko‘zidek bo‘lib biz qarab turdig-a! Hayf odamgarchilik... (39-b.)!

Qissa mutolaasi davomida yozuvchi vaziyat, holatlarni davr ruhiga, hayot haqiqatiga mos yarata olganiga ishonch hosil qilasiz, odamlar ongida shakllangan qullik fojiasi, mutelik, qo‘rqaqlik psixologiyasi ildizlarini anglab yetgandek bo‘lasiz. O‘sha davr odamlarining ruhiyatida hali ham 37-yillar qatag‘onining fojiali ayblovlari dahshati o‘rnashib qolgani, buning ustiga urush davrining o‘ziga xos siyosati ham ularni sarosimaga tushirib qo‘ygani sir emas. Bunday holatda shaharlik tatar vakil, Ahmad omborchi, Xudoybergan rais kabi xudo bexabar rahbarlar davlat nomidan gapirib, istaganlaricha qora xalqni ezib, huzurlanganlari asarda ta’sirchan ifodasini topgan.

³⁴ Айтматов Ч. Сарвқомат дилбарим. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1969. – Б. 15.

³⁵ Айтматов Ч. Сарвқомат дилбарим. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1969. – Б. 24.

Ham ish haqi uchun beriladigan bug‘doydan urib qolib, ham ish haqidan qirqib qolayotganlarini bilishsa ham asarda tasvirlangandek: “...hech kim indamadi. Faqat kecha-yu kunduz xirmonda ishlaydigan Haqberdi polvon (bir oy ichida Haqberdi amakining ikkita bolasi ochlikdan o‘lib qoladi – ta’kid bizniki-G.Q.) o‘zini tutib turolmadi:

– Biz ochdan o‘lsak, kelgusi yili frontga kim g‘alla yetkazib beradi? – dedi u tumandan kelgan vakilning yuziga tik qarab. – Faqat ber deyishni bilasizlar, insof ham katta gap. O‘g‘ri bo‘l, g‘ar bo‘l, evi bilan bo‘l degan gap bor axir...

– Siz davlatga qarshi gapiryapsiz, – javob qildi vakilning jahli chiqib. – Bu so‘zlariningiz uchun javob berasiz.

– Men davlatga emas, senga o‘xshagan salsa desa kallani oladiganlarga qarshiman! – dedi battar qizishib Xaqberdi chol.

Vakil u bilan gaplashishga hazar qilgandek burnini jiyirib, nari ketdi. Oradan ikki kun o‘tgach, militsionerlar Haqberdi amakini olib ketishdi. Sibirga, mehnat bataloniga yuborishar ekan... Odamlar u kishi haqida gaplashishga ham cho‘chishardi. Haqberdi haqida gaplashganlarni ham hibsga olisharkan. Suhbatga uning nomi oralasa, odamlar asta-sekin tarqala boshlaydigan yoki gapni boshqa mavzuga burishadigan bo‘lishdi (13-b.). Shu o‘rinda kolxoz omboridan g‘alla o‘g‘irlagan Abdurahmonni ham o‘g‘ri sifatida qoralashimiz mushkul. Davlatdan o‘z ish haqini talab qilgan Haqberdi chol kabilar Sibirga surgun qilingach, ularning ulushlari ham urush uchun tortib olingach, ochlikdan sillasi qurigan farzandlarining holiga chiday olmagan otalar nima qilib bo‘lsa ham ularni saqlab qolish yo‘lida har tomonga o‘zlarini urib ko‘radilar, kerak bo‘lsa o‘g‘irlilik ham qiladi. Abdurahmonni to‘g‘ri tushunishimiz mumkin bo‘lgan yana bir jihat u qiynalib kun ko‘rayotgan xalqning emas, ulardan oxirgi donlarigacha tortib olayotgan davlatning g‘allasini o‘g‘irladi. Uning farzandlarining o‘limini tomosha qilib o‘tirishdan ko‘ra shu ishni qilib ko‘rishi o‘sha davr uchun tabiiy hol edi.

Bugungi kunda kimdir o‘g‘irlilik qilsa unga nisbatan bizda cheksiz nafrat uyg‘onadi. Chunki bugun ishlagan, mehnat qilaman, halol luqma yediraman degan odamga imkoniyatlar juda ko‘p. Har kim qilgan mehnatiga yarasha nasibasini

oladi. Lekin urush davrida buning umuman imkoni ham, iloji ham yo‘q edi. Urush davrida o‘g‘irlik qilib, o‘z jonini saqlab qolmoqchi bo‘lgan ayrim qahramonlardan ham ba’zan nafratlanib ketamiz, ularga la’natlar aytamiz. “Yuzma-yuz”dagi Ismoil ana shunday kitobxonning nafratini uyg‘otadigan qahramondir. Bir o‘zi norasda uch bolasiga jo‘xori atalani qoshiqlab ularhib, erining o‘lik-tirigidan bexabar, boriga qanoat qilib, bahorda sigiri bolalab farzandlarining og‘zi sut-qatiqqa tegishidan umid qilayotgan To‘tioylarning sigirini o‘g‘irlab ketgan o‘g‘ri butun ovul ahlining qarg‘ishiga qoladi. Mirzaqulning: – Qani, xaloyiq, qo‘zg‘aling! Otliqlar otda, otsizlar piyoda soyma-soy izlanglar! Yo‘qolgan mol sadqayisar, ammo bu ishni qilgan muttaham itni topish kerak!³⁶ – degan da’vatidan bilishimiz mumkinki, ularning bor nafrati o‘g‘irlangan molga emas, yetim bolalarning bor umidini yo‘qqa chiqargan, uvoldan qo‘rqmagan, qora niyatli iblisga qaratilgan edi. Chunki shu bugungacha ham ovulda bunday voqealar bo‘lib turardi, lekin bunchalik odam to‘planishmasdi. Odamlar odatda tabiiy ofatlar kelganda shunday birlashadi. Ammo bu qattol urush davrining ma’naviy ofati edi. Bu ma’naviy ofatga yakdil bosh ko‘tarib chiqqan insonlar eng og‘ir, eng qiyin sinov paytida ham “Hazrati inson” bo‘lib qolganlardir.

To‘tioyning molini o‘g‘irlagan Ismoil bilan davlat omboridan g‘alla o‘g‘irlagan Abdurahmon o‘rtasida, ularning insoniylik tuyg‘ulari o‘rtasida osmon va yer qadar farq bor edi. Shu sabab farzandlari uchun o‘g‘irlik qilib qurban bo‘lgan Abdurahmonga hammaning rahmi keldi. Xattoki qilib qo‘yan ishlari yaxshi bo‘lmaganligini his qilgan kolxzoz raisi ham o‘g‘irlangan g‘allani Abdurahmonning yetimlariga tashlab ketadi. Ismoilning urushdan qochib, yashirinib yurgani kamdek, issiqlik uchun go‘sht yeyish maqsadida bir beva-bechoralarning sigirini o‘g‘irlashi esa, nafaqat, ovul ahlining, balki yori uchun “o‘limga tik borib” “boshini kesib tashlasa” ham “hech kimga bermayman” degan Saidaning ham nafratiga sabab bo‘ldi. Shu sabab azob-uqubatlar chekib, ko‘z qorachig‘idek ardoqlab saqlagan kishisini, bir zumda begonalashgan sevgilisini

³⁶ Айтматов Ч. Сарвқомат дилбарим. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1969. – Б. 82.

o‘zi tutib beradi. U yashirinib yotgan joyga Mirzaqul va miltiqli soldatlarni boshlab boradi.

“Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissasida ikki o‘g‘li urushga ketib, birisidan qora xat olgan, ayoli yotig‘liq kasal, bolalari ochlikdan birin-ketin qirilayotgan Haqberdi polvonningadolat talab qilgani tufayli boshiga tushganlari hatto ozmi-ko‘pmi qonunni biladigan, xatli-savodli Amirqul muallimga o‘xshaganlarni ham qimirlatolmadi. Uning bor-yo‘g‘i topgan gapi: “Sovuq urib o‘lmasa, u yerda ochdan o‘lmas-ov”, – degani bo‘ldi.

Qissaning ana shu o‘rinlari o‘quvchi qalbini larzaga soladi. Chunki bu tasvirlarda qo‘rquv, xiyonat, shafqatsizlik ildiz otganda millat ruhiyatida kechayotgan tanazzul, xo‘rlik va xorlik yaxshi ochilgan. Ayniqsa, qissa qahramoni Sanam tarafidan aytilgan quyidagi gaplar o‘z hamqishloqlarining amali va a’moliga berilgan haqli baho edi: – Tavba, – deya jig‘ibiyron bo‘lardi Sanam. – Odamlar buncha ham beburd bo‘lishmasa, muncha ham soyasidan qo‘rqishmasa? Hatto Haqberdi bechoraning ochlikdan o‘layotgan bolalarining og‘ziga suv tomizishga ham cho‘chishadi. Tavba, bu dunyoda odamning odamdan katta yovi yo‘q ekan-a (14-b.)?

Yozuvchi qissada peyzaj, portret va dialog o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni Haqberdi amaki, Abdurahmon, Anvar kabi obrazlarning xarakteri va ruhiyatidagi tabiiy oqim asosiga qurgan. Natijada kompozitsiyaning syujet, obraz, tasviriy usullar (peyzaj, portert) kabi tarkibiy qismlari bir-biri bilan mutanosiblikda tasvirlangan.

Yozuvchi ochlik iskanjasida qolgan urush odamlari qiyofasini ham ta’sirchan ko‘rsata olgan: Ko‘zлari ichiga tortilib, homilador o‘roqchi juvonlardek ozib ketgan Karomat o‘zini chalg‘itish uchun uzzukun mayda-chuyda tashvishlar bilan ovora, ko‘z yoshlarini ichiga yutardi (9-b.), – deya Anvar ko‘zi bilan opasining och-nahor qiyofasi tiklanadi. So‘nggi burda nonni, bir yalam atalani bo‘lsada bolalarim yesin, deya farzandlari uchun jon chekayotgan “onasining esa yuzlari so‘lg‘in tortib, kundan kun qoqsuyakka aylanib borardi. Daf’atan qaragan kishining ko‘zi ayolning turtib chiqqan chakka suyaklariga va ikki chakkasidan

oqarayotgan sochiga tushardi. Rangi o‘ngib ketgan kamzuli egnida xalvirab turar, ayolning bor saxti-sumbati ikki yelkasidan iborat edi” (9-b.). Anvarning opasi aytishicha, hademay tut pishig‘i keladi, so‘ngra arpa, sal o‘tmay bug‘doy pishadi, bu orada tog‘dan qorlar ketadi. Afsuski, bu safargi bug‘doy pishig‘iga qishloq aholisi katta talofat, katta yo‘qotishlar bilan chiqadi.

Urush tufayli sodir bo‘lgan voqealar, odam bolasi boshiga tushgan balolar, fojialarni sanasak ado bo‘lmaydi. “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissasi orqali Nurali Qobul urushning ana shundaysov uq balolari – beva qolgan ayollar, yetim bo‘lgan farzandlar, bolalik baxtini tuyolmay ulg‘ayib qolgan go‘daklar, bir dona lavlagi uchun bir-birining og‘zi burnini qon qilib mushtlashgan o‘rtoqlar, ochlik balosidan azob chekayotgan aholi, quturib o‘lgan xo‘kizning, harom o‘lgan qo‘yning go‘shtini yegan odamlar, oila boshi – erkagining o‘limidan so‘ng bolalarining qornini to‘yg‘azish uchun mushuk so‘ymoqchi bo‘lgan bevalar, yersovunni andiz deb yeb, shishib o‘lgan odamlarning achchiq qismati ta’sirchan ifodalangan. Bu asarida frontorti voqealarining dahshatini, front ortidagi qahramonliklarni va qo‘rroqliklarni, razilliklarni aks ettirgan bo‘lsa, “Oq qayin qo‘shig‘i” voqeiy qissasida esa yozuvchi jang maydonlaridagi hayotni va qahramonliklarni oolib beradi.

O‘zbekiston Qahramoni Said Ahmadning O‘tkir Hoshimov bilan bo‘lgan suhbatida shunday jumla bor: Urush arafasida eng yaxshi harbiy kadrlar repressiyaga uchradi. Buning jabrini ham xalq tortdi. Urushning dastlabki yillari, ayniqsa, og‘ir kechdi. Ne-ne navqiron yigitlar yog‘och miltiq bilan tankka qarshi borib, fashist zambaragiga yem bo‘ldi³⁷. Yozuvchining “Oq qayin qo‘shig‘i” qissasida urushning ana shunday dahshati tasvirlangan.

Asar Azizovning istirohat bog‘ida urush boshlanganligi haqidagi xabarni eshitishi bilan boshlanib uning urushga borishi, urushdagi voqealar va sovet soldatlarining g‘alabasi bilan yakunlanganligigacha bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga

³⁷ Кўркув салтанати (Адиб Саид Ахмад билан Ўткир Ҳошимов сұхбати) // «Шарқ ўлдузи». -1989. -№4.-Б.173.

oladi: Nimalardir deb g‘ing‘irlayotgan radio taqqa to‘xtadi. Rus tilida yurakni g‘ulg‘ulaga soladigan qat‘iy ohangda: “Diqqat! Diqqat!” degan so‘zlar eshitildi. Radiokarnay atrofida qisqa muddatda tumonat odam to‘plandi. Ular yoshli ko‘zlarini dastro‘mollari, qo‘llari bilan artishar, ayrimlari piqillab yig‘lashardi. Ko‘pchilik rus tilida nimalar deyilayotganini aniq tushunmasa-da, gap nima haqida borayotganini anglab, sarosimada edi...

Odamlar xomush bo‘lib, og‘ir-og‘ir qadam bosgancha bog‘ni tark etishardi. Bog‘ to‘ridagi dorbozlar ham joy-joyida qotib qolishgan, dor ustida o‘ynayotgan bola dorda o‘tirgancha piq-piq yig‘lardi³⁸.

Urush xabari qissada badiiy detal. Hech ikkilanmasdan uni yozuvchining badiiy topilmasi deyish mumkin. Yozuvchining mahorati shundaki, urush xabarini u istirohat bog‘ida asar qahramonlariga yetkazyapti. Bundan maqsad urush xabarining insonlar qalbiga bergan zarbasi va uni kitobxonga ta’sir doirasini oshirish. Bu manzara xuddiki, to‘yda aza bo‘lgandek taassurot qoldiradi. O‘z nomi bilan istirohat bog‘i. Bolalar va katta yoshdagilar dam olish, toza havoda aylanish, dorbozlar o‘yinini tomosha qilish va hokazo ko‘ngilochar tomoshalar uchun tashrif buyuradigan joy. Qissada ham shu maqsadda tashrif buyurgan insonlar orasida asar qahramoni Azizov ham bor edi. Afsuski, bu gal ularning quvonchi uzoqqa bormadi. Radiodan SSSR Tashqi Ishlar ministri V.M.Molotovning fashistlar Germaniyasi urush e’lon qilmasdan yurtimizga xoinona bostirib kirganligi haqidagi bayonoti o‘qilgach, bir zumda bog‘ huvillab qoladi. Bog‘ni insonlar orzu qilgan tinch, xursandchilik hayot, beg‘ubor maskani ma’nosida ramziy qabul qilishimiz mumkin. Urush xabari kelgunicha insonlarning hayoti, qalbi zavq-shavq bilan limmo-lim edi. Ko‘ngilochar tomoshalar, sayrlar, shod-u xurramlik, bolalarning beg‘ubor kulgusi. Sovuq xabar tufayli bu hayot, qalblar huvillab qoldi, xuddi bog‘ kabi. Aslida mumtoz adabiyotda ham, og‘zaki poetik ijodda ham bog‘ vatan, bog‘bon yurt egasi ramzi hisoblanadi.

³⁸ Кобул Н. Кечиккан турналар. – Тошкент: Tafakkur, 2015. – Б. 139. (Keyingi ko‘chirmalar shu manbadan olinadi va beti qavs ichida beriladi).

Yozuvchi bu yerda peyzaj va portret vositalarini o‘zaro uyg‘un qo‘llar ekan, ularning zimmasidagi badiiy vazifasidan kelib chiqib avval peyzajni beradi. Chunki u makon tasviri sifatida o‘quvchida avval voqea kechadigan joy haqida to‘liq tushuncha va tasavvurni shakllantiradi. Keyin esa ana shu tasavvurga personaj tasviri kiritiladi. Natijada badiiy matn kontekstidagi kompozitsion qurilish aniqlik ko‘rinishiga ega bo‘ladi.

“Urush” so‘zining tub mohiyatini hali to‘la tasavvur etmagan qahramonimiz kabi g‘o‘r va sodda bolalarning vaqtichog‘ligi urushdan oldingi davrlardagidek serzavq va ko‘ngilli bo‘lmasdi. Tabassumlarida ham hazinlik bor edi. Urush tufayli ular o‘z-o‘zidan bosiq va aqlii bo‘lib qolgandi, bir necha yoshga ulg‘ayishgandi. Vaziyatning og‘irlashib borishi, non olish uchun shomdan tonggacha, tongdan shomgacha, uzluksiz navbatda turishlari bolalik shodliklarini, zavq-u shavqlarini erta tark etishga majburlagandi.

Qissada tasvirlanishicha, 1942-yilning iyunida bitiruvchilarning barchasiga harbiy xizmatga chaqiriq qog‘ozi berildi. Harbiy tayyorgarlik va mashg‘ulotlar ikki oygina davom etib, urush maydonlariga jo‘nashdi. Azizov ham bitiruvchilar qatorida urushga jo‘nadi. Frontga yetmasdan Tixvindayoq nemislar tomonidan bombardimonga uchradi. Tun sukunatini buzib komanda yangradi. Yaralangan kavaleriyachilarga tezda yordam ko‘rsatilsin, yaralangan otlar vagonning o‘zidayoq otib tashlansin! ...Bir marta ham jang qilishga ulgurmasdan yarador bo‘lish soldatlarga alam qilar, o‘lganlarning yuzida esa “Bizda nima gunoh edi?” degan alam va dahshat qotib qolgan edi. Haqiqatda, endigina 17-18 bahorni qarshilagan, qalbida vatanga bo‘lgan muhabbat alangalangan, otalari, erlari, jigarlaridan judo bo‘layotgan qo‘ni-qo‘shnilarning alami uchun o‘ch olish o‘tida yonayotgan yosh yigitlarning ko‘pchiligi urushga yetib bormayoq qirilib ketishdi. Urushga yetib borganlari esa g‘oyatda dahshatli va qo‘rqinchli manzarani ko‘rib sarosimaga tushib qolar, ko‘pchilikning esa fashistlarga nisbatan g‘azabi qo‘zirdi. Sinyavinodagi qurshovda yerto‘lada yotgan soldatlar ertangi kunidan umid qilib, o‘z istaklari bilan o‘rtoqlashardi. Ular orzulari har birlarining milliy zaminlari, ona tuproqlariga tutash:

Okrujko: ...Agar men tirik qolsam, o‘zim tug‘ilib o‘sgan kolxozga borib, ona qishlog‘im tuprog‘ini quchib o‘paman!

Qodirov: Men tirik qolsam pashshani ham o‘ldirmayman. Hayotning qadriga endi yetdim.

Kulshiboyev: Men Qozog‘iston yaylovlariga yetib olsam bas...So‘ng shu yaylovda oyog‘imni uzatib mazza qilib o‘lishga ham roziman!

Krasnov: Agar men tirik qolsam Sibirdagi har bir qarag‘ayni bag‘rimga bosib o‘paman, yuzlarimga bosaman (148-b.)!

Yozuvchi bejiz turli millatga mansub soldatlarning qalbiga quloq tutmayapti. Bu yovuz urush barchani birdek o‘z domiga tortdi. O‘zbekni dalasidan, rusni o‘rmonidan, qozoqni yaylovidan ayirib, barchasini qonli janggohga tashladi. Yozuvchi jangchilarning umid, ilinj qorishiq orzularida ham aslida urushga va urush olovini yoquvchilarga katta ayblov o‘qiydi.

Soldatlarning orzu-umidlарining chek-chegarasi yo‘q. Afsuski, ko‘pchiligining orzulari armonligicha sovuq urush qarida qolib ketdi. Tiriklikning o‘zi eng katta baxt ekanligini anglagan qahramonlar millati, dini, harbiy unvonlaridan qat’iy nazar qalin do‘sit bo‘lib ketishdi. Yozuvchi bekorga asarga Sinyavino jangi tasvirini olib kirmagan. O‘sha davrda “myasurobka” nomini olgan bu jang dahshatlari ko‘z oldimizda gavdalanadi. Mislsiz talofat, ko‘plab qurbon bo‘lgan jangchilar sabab ham jang shunday nom olgan. Adabiyotshunos Matyoqub Qo‘shjonov ham 1990-yilda yozilgan “Tepki bosildi” badiiy-biografik asariga xuddi mana shu jangni kiritgan.

Yozuvchi Azizov tilidan urush voqealarini tasvirlab berar ekan, urush SSSR qo‘shinlarining g‘alabasi bilan yakunlanganiga qaramay, keyingi davrlarda ham urushda yaqin do‘sstaridan ayrilganligini, soldatlar tunashiga joy tayyorlash maqsadida xonani bo‘shatish uchun tashilgan yuzlab o‘liklarning bilmagan holda tanklar tomonidan majaqlanishi, yaralangan soldatlarga tezroq yordam berish maqsadida yarador otlarning miyasiga otib ketaverGANI – urush dahshatlarini eslatib turadigan holatlarga duch kelishini mahorat bilan tasvirlagan. Urush maydonlaridagi dahshatli manzara, qo‘rqinchli va ayanchli voqealarni yorita olgan.

Urush tufayli insonlar qanday yo‘qotishlarni boshidan kechirganlarini ochib bergen. Qissada syujet kompozitsiyasining obrazlar kompozitsiyasi hamda bayon kompozitsiyasi bilan yaxlitlikda namoyon bo‘lishi voqealarning ishonchli va sermazmun bo‘lishini ta’minlagan.

Har qanday ijtimoiy davr o‘sha davrda yashayotgan qahramonlarini xohlaydimi yo‘qmi o‘ziga moslashishga majbur qiladi. “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissasida ham Anvarning otasi urushga ketgunicha, hattoki, tovuq so‘yishga ham qo‘li bormagan, qon ko‘rsa ko‘ngli ozadigan inson bo‘lgan. Lekin u ham yashash uchun, oilasi uchun kurashishi, eng muhim elning unga bildirgan ishonchini oqlashi uchun jang maydonlarida odam o‘ldirishga majbur edi.

Yozuvchi bu tasvir bilan urushning insonlarni tinch mehnat qo‘ynidan olib, bir-birini qirishga, qon to‘kishga majbur qiladigan yovuz kuchini ko‘rsatadi.

“Oq qayin qo‘shig‘i” qissasida urush nafaqat biz uchun keraksiz fojia, balki nemis soldatlari uchun ham ayanchli kechganligini ko‘rsatib o‘tadi. Zero, urushda g‘olib tomon bo‘lsa-da, g‘oliblar bo‘lmasligi ayni haqiqat. Bu haqiqatni yozuvchi asir olingan nemis soldatlarining ichki ruhiy holatini chuqur psixologik teranlik bilan ochib bergen. G‘alaba e’lon qilingach “hayiqib turgan nemislar urush tugaganligini anglashdi. Ularning yuzida aks etib turgan qo‘rquv va dahshat o‘rnini bizning quvonchimizga qo‘shilganday ishonchsiz va zo‘rma-zo‘raki nim tabassum egallardi” (165-b.). Garchi urushda nemis soldatlari mag‘lub bo‘lgan bo‘lsa-da, ular urush nihoyasiga yetganidan mammun.

Xuddi shunday holat O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida ham aks etgan. Nemis soldati bilan o‘zbek askari ocharchilik tufayli kartoshka qidirib qazib olayotgan vaqtida, ular o‘zaro bu qirg‘inbarot jang, sovuq urush jonlariga tekkani haqida suhbatlashadi. Asarda bu holat shunday keltiriladi: ...Soldat hammasini gapirib berdi. Oldingi liniyaga bir haftacha kuxnya kelmabdi. Neytral zonada kartoshka polizi bor ekan. Kechasi Bondarenko ikkalasini kartoshka kavlab kelishga yuborishibdi. Quyuq tuman ekan. Kartoshka qazishayotganda o‘n qadamcha narida nemischa shivir-shivirni eshitib qolishibdi. Nemislar ham och qolib, ikkitasini kartoshka kavlashga yuborgan ekan.

Bondarenko endi otmoqchi bo‘lganida nemislar “ne shtrlay, ne shtrlay” debdi. Ruschani uncha-muncha bilarkan. Buni qarangki, gapdan gap chiqib, gurunglashib qolishibdi. Ruschani biladigan boyagi nemis urush joniga tekkanini, uyini, uchta bolasini sog‘inganini aytibdi. Qozoq ham sakkizta bolasi borligini, kolxozda “molshi” bo‘lib ishlashini aytibdi. Bondarenko onasini sog‘inib ketganini gapiribdi. Keyin ular u yoqqa – bular bu yoqqa ketaverishibdi³⁹. Yozuvchi O‘tkir Hoshimov ham romandagi bu parcha orqali urushning insoniyat boshiga hech zamonda va hech kimga baxt olib kelmasligini ko‘rsatgan. Qaysidir tomonning qo‘li baland kelishi mumkin, lekin umri hazon bo‘lishini – shirindan shakar farzandlarining ilk kulgusi, ilk qadamlari, ilk “dada” degan ovozidan bebahra qolishi, bolalar urush tufayli ocharchilikdan halok bo‘lishmasa ularning oldilariga sog‘-omon qayta olmagan otalarning, mo‘ysafid ota-onasini so‘nggi manzilga kuzata olmaganliklari uchun bir umr armon bilan o‘tgan farzandlarning qalblari alam dog‘idan ado bo‘lishini aks ettirgan.

Istiqlol davri o‘zbek adabiyotining sermahsul ijodkori Ulug‘bek Hamdam ham o‘z asariga mana shunday epizodik sahnani olib kirgan. “Ota” romanida Po‘lat va Nikita okopda yaralangan holda og‘riqdan baqirayotgan dushman askariga yordam berishga, uning hayotini saqlab qolishga harakat qiladi: O‘q yosh yigitning old yelkasiga tekkan chamasi, uning ko‘krak qismida qon dog‘lari bor edi. Nikita astoydil yechinib olgan, ichki kiyimini bint o‘rnida dushmanning yarali yelkasiga o‘rab bo‘layozgan, endi o‘zi bilan olib kelgan spirt og‘zini yopib, pichoqchasini ryukzakiga joylayotgandi. Ajabtovur manzara edi bu⁴⁰! Yaralangan askarning dod-voyiga chiday olmay unga yordam berishga oshiqqan yigitlar taqdirida yashash yozilgan bo‘lsa o‘lmaydi deya unga qo‘lidan kelgan yordamni ko‘rsatadi.

Asardagi bu manzara ham ayanchli, ham ta’sirli qilib tasvirlangan: Po‘lat o‘z dushmanini ilk bor mana shunday yaqindan ko‘rayotgan edi. Tavba, – dedi u o‘ziga o‘zi, dushmanim dushmanga ham o‘xshamas ekan.

³⁹ Ҳошимов Ў. Сайланма: Икки жилдлик. Жилд 2. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти., 2002. – Б. 56.

⁴⁰ Hamdam U. Ota. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2023. – B. 35.

– Boyagina pulemyotini akillatayotganida mana shu kelishgan yigitchani so‘yloq tishli badbashara-yu bahaybat devdek tasavvur qilganligini o‘ylab Po‘latning kulgisi qistadi. – O‘zimizga o‘xshagan, hatto o‘zimizdan ham ojizroq odam ekan-ku…

Nikita olmon askarchasining yelkasiga qoqdi. Po‘lat “Omon bo‘l!” degandek boshini xiyol egib xayrlashdi⁴¹. Asar davomida ular dushmaniga yordam bergenliklari uchun o‘zlaridan minnatdor bo‘ladi. Negaki, birinchi marta dushmanini o‘ldirmadi, aksincha unga yordam berdi. Demak, ularda hali insoniylik hissi saqlanib qolgan. Shu sabab ular xursand.

Shu o‘rinda, Nurali Qobulning “Oq qayin qo‘shig‘i” qissasiga keltirgan epigrafiga e’tibor qaratsak: Bir necha asr muqaddam Sharqdan G‘arba borib, o‘ziga o‘xshaganlarni o‘ldirgan olomon singari insoniy tuyg‘u va aql idrokni yo‘qotgan millionlarcha kishilar G‘arbdan Sharqqa qarab yo‘l olib, o‘ziga o‘xshashlarni o‘ldirishi kerak edi.

G‘arbliklar boshqalarni o‘ldirmoq va o‘zlarini halok etmoq uchun Sharqqa qarab yo‘l oldi (138-b.). Shu epigrafning o‘zi asar g‘oyasini, mazmunini ochib bera olgan. Ko‘rinib turibdiki, epigraf tanlash borasida ham yozuvchi yuksak badiiy did egasi. “G‘arbliklar boshqalarni o‘ldirmoq va o‘zlarini halok etmoq uchun” deganida Lev Tolstoy hech mubolag‘asiz haq edi. Yozuvchi Nurali Qobul “Oq qayin qo‘shig‘i” qissasi orqali boshqalarni o‘ldirmoq va o‘zlariga bo‘ysundirmoqchi bo‘lgan G‘arbliklarning aksariyat qismi qirilib ketgani va oxir oqibat mag‘lub bo‘lganliklarini tasvirlagan.

“Biz g‘alabadan quvonib ko‘z yoshi qillardik. Bu faqat urushda g‘olib chiqqanligimizning quvonch yoshi bo‘lmay, quroldoshlarimiz, ota-onalarimiz va farzandlarimizga tutayotgan azamiz ham edi” (165-b.). Ha, garchi g‘alabaga erishilgan bo‘lsa ham yozuvchi yuqorida keltirilgan bиргина jumlaning o‘zida urushda g‘oliblar bo‘lmasligini yana bir bor ko‘rsatgan.

Urushning insonlar xarakterini o‘zgartiruvchi yovuz qudratga egaligini Anvar tilidan yozuvchi aytib o‘tadi: Olis-olislardan Moskvadan ham uzoqda urush

⁴¹ Hamdam U. Ota. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2023. – B. 36-37

bo‘layapti. Odamlar bir-birini o‘ldirishayapti. Hatto miltiq uchidagi nayza bilan ham bir-birovini o‘ldirisharkan. Qanday yomon. Otadigan miltiqqa nayzaning nima keragi bor? Ko‘proq o‘ldirish uchunmi? Nega odamlar bir-birini o‘ldirishadi? Nemis deganning qorni to‘q, usti but bo‘lsa, nega boshqalarni o‘z holiga qo‘ymaydi? ...opasining aytishicha, otasi urushga ketgunga qadar hatto tovuqning ham boshini kesmagan, qonni ko‘rsa ko‘ngli behuzur bo‘lib, yuzini teskari burib olarkan. Endi esa, Erali amaki aytganidek, butun boshli odamlarni o‘ldirish kerak. O‘ldirmasang, seni o‘ldirishadi. Harbu zarbning taomili shunday ekan (5-b.). Shu o‘rinda biz ham epigraf muallifi Lev Tolstoya murojaat qilmoqchimiz: Urushdan maqsad odam o‘ldirishdir, urushning quroli – joususlik, xiyonat, xoinlarni taqdirlash, aholini g‘orat qilish, ularni talash yoki armiyani oziq-ovqat bilan ta’minlash maqsadida ularning bor-yo‘qlarini o‘g‘irlash, harbiy makr deb atalgan yolg‘onchilik...jaholat, bag‘ritoshlik, fosiqlik va aroqxo‘rlikdan iborat. ...kimki xalqni ko‘proq o‘ldirsa, unga ko‘proq mukofot beriladi... Bir-birlarini o‘ldirmoq uchun ertaga bo‘ladigan urush singari, bir joyga to‘planishadi, bir-birlarini o‘ldirishadi, o‘n minglarcha odamni mayib qilishadi-yu keyin esa shuncha odamni o‘ldirishgani uchun (buni yana ham ortiqroq qilib ko‘rsatib) shukronasiga toatibodat qilishadi, qancha ko‘p odam o‘ldirishgan bo‘lsa, xizmatlarini shuncha katta qilib ko‘rsatib, o‘zlarini g‘olib deb e’lon qilishadi. Xudo bularga qanday qarab va bu gaplarga qanday qulog solib tururkin⁴²!

Professor Usmonjon Qosimov adabiy ta’sir masalalari haqida shunday deydi: – Adabiyotimizning keksa avlod vakillarining katta bir xizmati ham, ijodiy balog‘atining yorqin bir jihatni ham shunda ko‘rinadiki, ular qisqa vaqt ichida jahon adabiyoti taraqqiyotida ham eng oldingi o‘rinda turgan mashhur klassiklarning ijodini chinakam iste’dodlarga xos ixlos va salohiyat bilan o‘rganib, ularning boy tajribalari va yuksak mahoratini go‘yo “o‘zlariniki” qilib oldilar⁴³. Shu ma’noda, Nurali Qobul ham urush mavzusida yozarkan, keltirilgan epografi va ba’zi bir qahramonlarining yurish-turishiga qarab mantiqiy xulosaga kelish mumkinki, u

⁴² Толстой Л. Уруш ва тинчлик / роман / 3-4-китоблар / – Тошкент: Камалак, 2019. – Б. 268.

⁴³ Qosimov U. Adabiyotning hayotbaxsh kuchi. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008, – Б. 65.

o‘zigacha shu mavzuda bitilgan eng sara va nomdor asarlarni, jumladan, L.Tolstoyning “Urush va tinchlik” epopeyasini ham sinchiklab o‘qigan, undan ijodiy foydalangan. Bu borada L.Tolstoy, Ch.Aytmatovlarni N.Qobulning ma’naviy ustozlari deb bemalol aytal olamiz.

Yuqoridagi har ikkala yozuvchilarning fikrlaridan bir narsa ma’lumki, qaysi davr va qaysi makon bo‘lishidan qat’iy nazar, urushning maqsadi odam o‘ldirish, odamlar boshiga kulfatlar yog‘dirish. Nurali Qobul urush mavzusiga bag‘ishlagan ushbu qissalarida urushning insoniyat boshiga keltirgan ana shunday ulkan falokatlarini ochib bergan. To‘g‘ri, qissa mutolaasi davomida yozuvchi bayonchilikka ko‘proq e’tibor bergenligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Lekin bu bayonchilik kitobxon g‘ashini keltirmaydi, aksincha, uning o‘qishliligini oshiradi. Ba’zi o‘rinlarda bir to‘xtam mavjud emas. Masalan, “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissasi qahramoni Haqberdi haqida gap ketganda yozuvchi uni bir o‘rinda Haqberdi chol, bir o‘rinda Haqberdi amaki deb ataydi. Lekin bu jihatlar qissaning badiyiligiga salbiy ta’sir etmaydi.

Yozuvchi “Qulon quduqqa qulasa” qissasida “Adabiyot –adolat, sadoqat, samimiyat va to‘g‘rilik, hayotga katta aql, teran tuyg‘u ko‘zi ila sog‘lom fikr-la boqish demakdir”, – deb aytib o‘tgan (180-b.). Haqiqatda, adabiyot bizning qalb ko‘zimizni ochuvchi, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi mayoqdir. Urush haqidagi asarlarni o‘qib, kitobxonlarning urushga nafrati ortadi, bugungi kunimizdan shukronalik hissini tuyadi. Bugunini qadrlaydi. Tahlilga tortilgan har ikki qissada “hayotiy voqelik an’anaviy sxemaga tushgan voqealar silsilasidan iborat bo‘lmay, bevosita real voqealarning o‘zaro badiiy shartlilik qonuniyati asosida sabab – oqibat munosabati bilan bog‘langan izchil sistemasidan iborat”⁴⁴. Yozuvchi qissalari bilan tanishish jarayonida adib asarlari hayotiy voqea-hodisalar va hayotiy qahramonlar taqdiri zamirida paydo bo’lganiga ishonamiz. Yozuvchi tasvirda davrni ham, qahramonni ham, muhitni ham ayamaydi.

Eng asosiysi, Nurali Qobulning “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissasi ham, “Oq qayin qo‘shig‘i” qissasi ham kitobxonga urushda g‘oliblar bo‘lmasligini

⁴⁴ Холмуродов А. Ўзбек қиссачилиги: тараккиёт муаммолари. Филол. фанлари д–ри ...дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 13.

mudom eslatib turadigan katta bir insoniy dardning ifodasi o‘lar oq yuzaga kelgan asarlardir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ishimizning birinchi bobiga quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin:

1. Nurali Qobul o‘z ijodi bilan adabiyotga Baxmal koloritini – o‘zi tug‘ilib o‘sgan qishlog‘i, mag‘rur tog‘lari, baxmalliklar hayot tarzi, urf-odatlari, shevasini olib kirdi.
2. Yozuvchi “Salom, tog‘lar” qissasi qahramoni Zulayho obrazi misolida jamiyatni, urush davri voqealarini va shu orqali ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda ma’naviy-axloqiy masalalarni yoritib bergen.
3. XX asr o‘zbek adabiyotida Zulayho va G‘oyibnazar kabi juftlik ko‘p uchrasa ham, ularning aksariyati sho‘rolar mafkurasiga moslashtirilgan, o‘z taqdiridan ham ko‘proq omma manfaatini o‘ylaydigan stereotip obrazlar edi. Nurali Qobul qahramonlari ham ulardan keskin farq qilmasada, har birining o‘z taqdiri, o‘z “men”i, o‘z individi bor.
4. Qadim-qadimdan qarindoshlar orasida qizlar oldi-berdisi ko‘p hollarda ikki oilaning, ba’zan ikki urug‘ning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarining mustahkamlanishi yoki aksincha yomonlashishi bilan tugagan. Ba’zi hollarda turmush qurgan qarindosh oilalar farzandlarining nuqson bilan tug‘ilishi kuzatilgan. Yoki sovchilik marosimlarining o‘zidayoq qandaydir sabablar bilan to‘y qilishga kelisholmasa qarindoshlar o‘rtasida ko‘ngilxiralik paydo bo‘ladi. Shu o‘rinda Nurali Qobul xalqimiz mentalitetidagi mana shu kabi nuqsonlarni mahorat bilan ochib bergen.
5. Yozuvchi obraz tizimi tarkibiga kiruvchi personaj, detal, joy, makon, davr kabilarni asar kompozitsiyasiga mohirlik bilan birlashtirgan. Ularning badiiy-estetik ta’sirini oshirish uchun muallif nutqi, monolog, dialog kabi shakllardan hamda turli badiiy tasviriy va ifodaviy vositalaridan unumli va o‘rinli foydalangan.
6. “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissasida mahoratli adib nozik ta‘b ruhshunos kabi o‘quvchi ongu shuurini avval boshdanoq butunlay zabit etish uchun davr va muhit qiyofasini yoritishda peyzaj tasviridan o‘rinli foydalangan.

7. “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissasida “Hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun” shiori ostida ikkinchi jahon urushi davrida front orti hayotida yo‘l qo‘yilgan ko‘plabadolatsizliklar, beshafqatliklar, kaltabin, xudbin rahbarlarning front orti mehnat jabhalarida oddiy xalq ustida olib borgan noinsoniy siyosatlarining oqibat natijasi jang maydonlarida yuz berayotgan xunrezliklardan mohiyatan farq qilmaganligi haqqoniy talqin etilgan.

8. Nurali Qobulning urush kulfatlari yoritilgan “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissasi ham, “Oq qayin qo‘shig‘i” qissasi ham kitobxonga urushda g‘oliblar bo‘lmasligini mudom eslatib turadigan katta bir insoniy dardning ifodasi o‘laroq yuzaga kelgan asarlardir. Urush mavzusiga bag‘ishlagan ushbu qissalarida urushning insoniyat boshiga keltirgan ulkan falokatlarini ochib bergen.

II BOB. NURALI QOBUL QISSALARINING G‘OYAVIY-BADIY XUSUSIYATLARI

2.1-§. Yozuvchi nasrida inson va tabiat uyg‘unligi in’ikosi

O‘zbek adabiyotshunosligida yozuvchilarning o‘ziga xos uslubi, qissalarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan⁴⁵. Nurali Qobulning qissachilikdagi badiiy mahorati, uning o‘ziga xos uslubi haqida gap ketganda, qissalaridagi inson va tabiat mavzusiga to‘xtalmaslikning iloji yo‘q, bizningcha. Chunki go‘zal Baxmal tog‘larida, tabiat qo‘ynida tug‘ilib o‘sgan ijodkorning qalbiga bu mavzular juda yaqin bo‘lishi tabiiy.

A.Navoiy asarlari va Z.M.Boburning “Boburnoma”si orqali tabiat tasvirlari, jadid adabiyoti darsliklari orqali inson va tabiat munosabati bilan tanishganmiz. Lekin o‘zbek adabiyotida inson va tabiat munosabati aks etgan, alohida yoritilgan asarlar kam uchraydi. Ayniqsa, bir yozuvchi ijodining salmoqli qismi bu mavzuga bag‘ishlangan holatlar. Nurali Qobul qissalarining barchasida esa bu mavzu uchraydi. To‘g‘ri, barcha qissalarida asarning asosiy g‘oyasini tashkil etmasligi mumkin. Lekin albatta, tabiat tasvirlariga – inson va tabiat, inson va jonivor, inson va o‘simliklar olami munosabatiga duch kelamiz. Bular bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi, bir-birisiz yashay olmasligini, birining ikkinchisiga ta’siri, bir-biriga bo‘lgan munosabatlar javobsiz qolmasligi, e’tibor rag‘batlantirilishi, befarqlik va salbiy munosabatning jazolanishini ko‘rishimiz mumkin.

Inson va tabiat muammosi, munosabati aks etgan asarlar qaysi millat vakili tomonidan yaratilmasin, unda harakatlanayotgan obrazlar qaysi din, qaysi millat vakili bo’lmash, ularning ichki kechinmalari, orzu-istiklarida umuminsoniy tuyg‘ular o‘z ifodasini topishi zarur. Chunki tabiat mavzusi global mavzu

⁴⁵ Холдоров Д. Ҳозирги ўзбек қиссаларида бадиий услуг муваммоси (Шойим Бўтаев ва Назар Эшонкул қиссалари мисолида). Филол. фан. б-ча. ф-фа д-ри. (PhD) дис... автореф. – Тошкент: 2017; Раджапова Ф.А. Истиқлол даври ўзбек қиссачилигига услуг ва поэтик тил: Филол. фанлари бўйича фалсафа докт. ...дисс. – Тошкент: 2018. – 143 б.; Каримова Ю. Пиримқул Қодиров қиссаларида маънавий-ахлоқий муваммоларнинг бадиий талқини: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент: 2005;

hisoblanadi. Shu sabab ham inson va tabiat munosabatlari aks etgan asarlar jahon adabiyoti maydoniga kirib keldi. Jek London, Xaruki Murakami, Ernest Seton-Tompson, Ch.Aytmatov, Fyedor Abramov kabi yozuvchilar milliy muammolar umuminsoniy mohiyatni ochishga qaratilgan asarlar yozdi.

XX asrning so‘nggi yillarida o‘zbek adabiyotida inson va tabiat tasviri aks ettirilgan asarlari bilan Asqad Muxtor, Shukur Xolmirzayev, Tog‘ay Murod kabi ijodkorlar shuhrat qozongan. Asqad Muxtorning “Chinor” romanida, “Oliy butunlik”, “Uchish”, “Yer” kabi qator she’rlarida, Tog‘ay Murod asarlarida inson va tabiat bir-biriga uyg‘un ekanligini kuzatishimiz mumkin. Shukur Xolmirzayevning tabiat mavzusidagi “Kulgan bilan kuldirgan”, “Cho‘loq turna”, “Bandi burgut”, “Omon ovchining o‘limi”, “Jarga uchgan odam” kabi hikoyalarining barchasi tabiat va undagi jonivorlarga bag‘ishlangan bo‘lsa ham hech bir hikoya ikkinchisini takrorlamaydi. Har birining yozilish uslubi, mavzusi o‘zgacha. Yozuvchi hikoyalarni shunday mahorat bilan yozganki, ulardan bir necha xulosalar chiqarasiz. Birinchisi, to‘g‘ridan to‘g‘ri anglashilib turgan g‘oyasi bo‘lsa, yana biri ulardagi ramziyiliklar orqali chiqariladigan xulosalardir.

Atoqli adib Xudoyberdi To‘xtaboyev qirq yil avval – 1984-yilda shunday fikr bildirgan edi: – So‘nggi yillarda adabiyotimizga o‘zining ovozi, o‘zining aytadigan gapi, boringki, yuragi to‘la dardi bilan kirib kelgan iste’dodli yoshlar anchagina bo‘ldi. Shulardan biri Nurali Qobuldir. Inson va tabiat birligi, tabiatni sevib e’zozlagan inson, eng avvalo, o‘zini sevib e’zozlagan bo‘ladi – ana shunday mavzularda talaygina hikoya va qissalar yaratgan Nurali Qobul o‘zining so‘nggi qissasini chorvadorlar hayotidan olib yozdi va uni “Yashash uchun kechikma” deb nomladi. Asarga epigraf sifatida uchta hikmatli so‘z keltiriladi. Shulardan biri “Ministr bo‘lgandan ko‘ra, to‘g‘ri gapni aytgan ma’qul, – deb ataladi. Demak, qissada to‘g‘rilik, halollik, vijdonlilik xususida gap boradi. Xudoyberdi To‘xtaboyev ta’kidlaganlaridek, Nurali Qobul inson va tabiat birligi aks etgan qissalarida to‘g‘rilik, halollik, vijdonlilik haqidagi fikrlarini bildirib o‘tadi.

Yozuvchi Nurali Qobulning “Bo‘ri ovi (Tog‘begi)” qissasi “O‘rmon insondan avval, sahro esa undan keyin paydo bo‘lgan (Shotobrian)” degan epigraf

bilan boshlanadi (Birinchi bobimizda yozuvchining epigraf tanlash borasidagi badiiy didiga to‘xtalib o‘tgan edik). Qissa davomida ovchi oilasida tug‘ilib o‘sgan, ammo ovchi otasining tirikchiligidan ko‘ngli ayniydigan bolaning ulg‘ayib, oxir-oqibat otasiga o‘xshab, hattoki, otasidan-da beshafqat ovchi bo‘lganligi hikoya qilinadi.

To‘qqiz yoshida qishloq maktabining birinchi sinfiga borib, “tuya, nor tuya” degan laqabni olgan Jabbor yettinchi sinfni tamomlagach, o‘qituvchilaridan qutulganiga shukr qilib, olis qirlar ortidagi dalalarga cho‘ponlikka ketdi. Uylangungacha bo‘lgan davrda bir o‘zi bitta suruvni boqib yurgan bo‘lsa, uylangandan keyin ostonadan ko‘chaga chiqmay qo‘ydi. Kun qiziguncha cho‘ponlikda orttirgan va otasining mulkiga aylangan yetti-sakkiz qo‘yni boqib kelardi, xolos. Kunlar shu zaylda o‘ta boshladi. Ikki yilga armiyaga ham borib keldi. Armiyadan kelgach, u xizmatdaligida tug‘ilgan o‘g‘li ovunchog‘i bo‘lib qoldi. O‘g‘lining yo‘l-yo‘riqqa yurmasligini bilgan Rahmon ovchi oxiri yorildi: – Bo‘ldi endi. Kuningni ko‘r, o‘g‘lim. Biror joyda ishlab, o‘zingga boshpana qur. Men qarzimdan qutuldim. Mana, akangni qara, xotinini o‘zi qurgan uyga tushirib oldi. Sen bo‘lsang... – dedi ovchi bir kuni nonushta ustida⁴⁶.

Bu gaplardan so‘ng otasi ko‘chaga chiqqan vaqt ikki bo‘g‘cha ko‘rpa-to‘shagi bilan Mirzacho‘lga ko‘chib ketgan Tursunboy cho‘ponning bo‘sh qolgan uyiga ko‘chib o‘tadi. Hayitboy tog‘begining yordami bilan Jarbuloq uchastkasiga tog‘begi bo‘ladi.

Tirikchilik maqsadida dastlab to‘qqiz dona kaklikni otib kelgan Jabbor xotini Gulasalga: – Biror ishning boshini ushlaguncha endi tirikchilik mana shu. Otam mening ham tanglayimni ovdan qaytganda ko‘targan. Lekin men seni ov qilib boqmoqchi emasman, – deb aytadi (174-b.).

Gulasal Jabborning gaplari va harakatlarini kuzatib turib, “Axir, jonivorlarga ozor berib...”, – deya oldi.

⁴⁶ Қобул Н. Бўри ови. – Тошкент: Ижод-Пресс, 2017. – Б. 169. (Keyingi ko‘chirmalar shu manbadan olinadi va beti qavs ichida beriladi).

Shundan so‘ng, oshga chumchuq bostirib yekishni xush ko‘rvuchi Fayziqul Sattorovning iltimosiga binoan oltmishtacha chumchuqni otadi. Bu ishidan so‘ng, otasi Rahmon ovchi o‘g‘liga nasihat qildi: – Ertalab chumchuq otganiningni ko‘rdim... Bunaqa mayda-chuyda jonivorlarni otma. Uvoliga qolasan. Odatda ovchilarning dushmani ko‘p bo‘ladi. Tirik jonga ozor bergani uchun ularni ko‘pchilik xush ko‘rmaydi. Ammo ishlari tushsa tovoningni yalashadi... Otish qo‘limdan kelar ekan, deb duch kelgan jonivorga o‘q uzaverma... (185-b.).

Gulasal “bolalari bo‘lsa qarg‘aydi” deb aytgan ko‘kqarg‘a va kakliklarni majburlikdan ov qilgan edi. Chunki kaklik ovlab yemasa, qozon qaynatishga hech vaqosi yo‘q edi. Ko‘kqarg‘a ham betob odamga shifo uchun kerak edi. Lekin chumchuqchalarchi? Ular shunchaki so‘zi hamma joyga o‘tadigan rahbar odamning oshiga bostirma bo‘ldi, xolos.

Ikkinci o‘g‘li tug‘ilganda Jabbor cho‘ponlar va tog‘begilarni olqor bilan mehmon qilishni kelishib oldi. Ertasiga barchasini yig‘ib olqor ovlashga jo‘nadi. Olqorni otish uchun gumburlagan qo‘shotarning ovozidan tog‘ larzaga keldi: ayiq o‘kirib yubordi, bir to‘da kaklik pirillagancha soyga qarab uchdi, atrofni toshrang tog‘ chumchuqlarining bezovta chirqillashi tutib ketdi.

O‘ljani sudrab buloq tomon ketayotgan Jabborning miltiq ushlagan qo‘li qichitqi o‘tga tegib ketdi. O‘t tekkan qo‘lining usti lovullardi. “Qo‘lingga qichitqi o‘t tegib ketganiga shuncha jig‘ibiyron bo‘layapsan! O‘zing esa tog‘ni to‘ldirib yurgan shunday jonivorlarni o‘ldirib, indamay orqalab ketyapsan-ku, ablah! Yorug‘ dunyoga kelgan farzanding quvonchi yo‘lida shunday go‘zal jonivorni qurbon etding! Hech bir mulohazasiz bu ishga qo‘l urding!” – deya xayolan o‘zi bilan suhbatlashardi. Vujudini qamragan fikrdan ma’yus tortib, qadamin sekinlatdi: Istanasang, hozir qo‘lingni achitgan o‘tni ham yer bilan yakson qilib tashlapping mumkin! Sen buning hammasini qorningni to‘ydirish uchun qilasan!.. Nega insonning kun ko‘rishi uchun qurbon bo‘ladigan jonivorlarga qanoat qilmaysan? Ey, ikki oyoqli alvasti! Yer yuzida sendan ozor chekmagan birorta jonivor yoki o‘simplik qoldimi? (200-b.).

Yozuvchi tog‘begi Jabborning qilmishlari orqali ko‘rsatib bermoqchi bo‘lgan insonlarning tabiatga, jonivorlarga yetkazayotgan zararlari haqidagi fikrlarini shu birgina ruhiy konflikt orqali yanada kengroq olib bergan.

Yozuvchi “Yashashga kechikma” qissasida ham “Daraxtlar kesilgandan buyon buloqlarning suvi qurib, odamlar ularni unutishgandi. Hozir negadir bog‘-rog‘ uchun qulay joylarga ham paxta ekib yuborishyapti. Tabiatda mutanosiblik buzilyapti. Paxta dalasida ishlovchi dehqonning soyalashi uchun daraxt, yeishi uchun meva-cheva kerak-ku”, (72-b.) – deb aytib o‘rib ketgan.

Jabbor tog‘begining o‘tini vada qilgan odamiga, terisi bilan go‘shtini Jizzax harbiy komissariatida ishlaydigan Shuvalovga berish uchun Rahmon ovchining talabi bilan ayiq ovlash jarayoni qissada juda ta’sirchan, juda achinarli qilib tasvirlangan: Ayiqchalar g‘ingshigancha tepalikka qarab, o‘rmalab borishardi. Ular sodir bo‘lgan voqeа toqqa ikki oyoqli g‘alati maxluqlarning kelishi bilan bog‘liqligini sezishgandi. Tez-tez orqalariga qarab qo‘yishar, bir-birini turtgancha pildirab qochishardi.

Ona ayiq boshini changallagancha archa ostiga o‘zini urib, yer timdalab o‘kirardi. Uning ovozi borgan sari bo‘g‘ilib, xirillay boshladi. So‘ngra uzuq-yuluq ingradi va xirillagancha jimb qoldi (211-b.).

Yaralangan ona ayiqning o‘kirishidan uning bolalari onamiz bizdan bezovtalanyapti deb o‘ylab, boshlarini ikki yonga sarak-sarak qilib, ingichka ovozda javob qaytardi. Ikki oyoqli jonzotlar yaqinlashgan sari beixtiyor qo‘rqib qocha boshladi. Ayiqchalar g‘ingshib, bir-birini turtib, tez-tez orqalariga havotirli qarab, pildiragancha tepalikka qarab o‘rmalab ketdi. Yozuvchining mahorati shundaki, bu ov sahnasi ta’sirli chiqishi uchun ona ayiq va uning bolalari tanlangan. Ayiqchalarning pildirab nima qilarini bilmay qolishini ko‘rib, oramizda shunday razil kimsalar borligiga achinasiz. Beixtiyor ovchiga – tog‘begiga nafratingiz uyg‘onib, onasiz qolgan ayiqchalarga rahmingiz keladi.

“Aytish o‘rinliki, N.Norqobilov inson va tabiat munosabatlari aks etgan qissalarning aksariyati hayvonot olami bilan bog‘liq. Yozuvchi ba’zi boshqa bir qahramonlar yoki ijtimoiy, maishiy mavzudagi qissabop voqealar haqida yozganda

ham syujet va qahramon tubiga chuqurroq kirib borish maqsadida tabiat, jamodot, hayvonot olamidan unumli foydalanadi. Inson obrazini ochishda tabiat elementlari yetakchiligi kuzatiladi”⁴⁷. Xuddi shu fikrlarni yozuvchi Nurali Qobul qissalari uchun ham keltirishimiz mumkin.

“Johillik va qotillik (Yangi qor tushgan kun...)” qissasida ham ena tilidan Suyunboyning ayiq o‘tini pullash maqsadida ov qilishi keltirib o‘tilgan: Tirik jonga ozor berish sening yo‘rgagingda tekkan kasal. Hamma bemazagarchilikni aqling yetib turib qilasan!.. Bugun kiyik otsang, ertaga ayiq! Hech kim qilmagan tirikchilikni qilib, ayiqlarni so‘yib, o‘tini pullaysan⁴⁸!

Qissa qahramoni Suyunboy qo‘y go‘shti medasiga tekkanligi sababli bir hafta kiyik, bir hafta olqor otib yeydi. Yana o‘z ishini boshqalarning aybini aytib haspo‘shlamoqchi ham bo‘ladi: – Haliyam jonivorlarni ilgargidek otmayapmanku! Jon desin! Qo‘y go‘shti yeyish jonioimga tekkan, har haftada bitta kiyik yoki olqor otaman. Shu bilan kamayib qolarmidi? Kamayganda menga nima! Hech qachon kiyiklarni suruv qilib boqishmasa kerak? Kattalarning o‘zi kelib xohlagancha otishadi. Iblis Xolbek ularga yaxshi ko‘rinish uchun kiyiklarni otish qulay bo‘lgan joyga haydab keladi⁴⁹.

Ko‘rinib turganidek, Suyunboyning birgina gapidan ma’lumki, bu qissada ham “Bo‘ri ovi” qissasidagi kabi tog‘begilarning o‘zi mumkin bo‘lmagan ovga bosh-qosh bo‘lishadi. “Katta”larga yaxshi ko‘rinish uchun olqorlar, kiyiklar yuradigan, ularni ovlash qulay bo‘lgan joylarga olib borishadi. Tog‘ni asrash, kesish mumkin bo‘lmagan daraxtlarni himoya qilish, jonivorlarni asrash kabi vazifalar zimmasida bo‘lgan tog‘begilarning o‘zlarini aslida tabiatga ziyon berayotgani, jonivorlarga qiron keltirayotganini yozuvchi har ikki qissasida ham ko‘rsatib o‘tgan. To‘g‘ri, “Johillik va qotillik” qissasida “Bo‘ri ovi”dagidek voqealar tog‘begi atrofida emas, cho‘ponlar atrofida yuz beradi. Lekin Suyunboyning yuqorida keltirib o‘tganimiz birgina jumlasining o‘zidayoq yozuvchi bu fikrlarni aytib o‘tgan.

⁴⁷ Fayzullayev X. Normurod Norqobilov nasrida inson va tabiat muammosining poetik talqini. Fil.fan.fal.dok (PhD) disser. avtoreferati. Qarshi, 2021, – B. 15.

⁴⁸ Кобул Н. Жохиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 6.

⁴⁹ Кобул Н. Жохиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 6.

Surxon vohasi farzandi Shukur Xolmirzayev ham o‘z tug‘ilib o‘sgan yurti tabiatni va insonlarini ko‘plab qissalarida aks ettirgan. “Yur, tog‘larga ketamiz!” qissasi ham ana shunday qissalardan biri. Qissada yuqorida tahlil qilgan qissalarimizdagи kabi mavzu aks etgan. Archazor tog‘lar, qir-adirlar, bepoyon dashtlar-u cho‘lning kengliklari shunchalik mehr-muhabbat bilan tasvirlanganki, ko‘z oldimizda muhrlanib qoladi. Qissani o‘qish jarayonida yer yuzida Qodir podachi singari insonlar borligidan hafa bo‘lib ketasiz.

Qodir podachi ham Jabbor tog‘begi va Suyunboy cho‘ponlar kabi tabiatga, jonzotlarga ziyon keltiruvchi xudbin, shafqatsiz inson. Qissada bola Nuralining kattalardan eshitgan fikrlari keltiriladi: – Bu odam vaqtida katta mergan bo‘lgan. Bir otishda o‘n bitta kiyikni otgan. Keyin negadir kasal bo‘lib, olti oy yotgan. Tuzalib chiqqach, merganlikni tashlagan.

Mana, yana boshlabdi chog‘i, nevarasi aytdi, kecha ayiq otib kelganmish⁵⁰!

Qodir podachi ham oshnasining to‘yini kiyik go‘shti bilan o‘tkazib berishga va’da berib, bir emas, ikki emas, o‘n bitta kiyikni otadi. Jallod kabi kiyiklarga qiron keltiradi. Olti oy yotib qolgach, ovchilikni tashladim deydi. Afsuski, o‘rgangan ko‘ngil, yana ov qiladi, ayiqni ham otadi. U tabiat bag‘ridagi hayvonlar u yoqda tursin, hattoki o‘zi boqib katta qilgan Qoraboya ozor berishdan ham tab tortmaydi. Tog‘dan cho‘lga ko‘chish jarayonida qishloqdoshlaridan eng oxiri yo‘lga chiqadi. Necha yillar ularga hamroh bo‘lgan, butun qishloqning havasi keladigan Qoraboyni “qarib qoldi” deya, keraksizga chiqarib, daraxtga bog‘lab tashlab ketadi. Keyinchalik Nuralining kuchukchasi – Qoraboyni olib qo‘yish uchun harakat qiladi. Uddasidan chiqqa olmagach, kuchukchani kaltaklab, qishloq itlariga talatadi. Qodir podachini shafqat nima ekanligini bilmaydigan qonxo‘r deyishimiz mumkin. O‘z ayoli Oygul kampir ham u haqda: Polvon bolam, u yejish uchun otmaydi, yo‘q! Otishdan, jonlini jonsiz qilishdan huzur topadi. Oti o‘chsin uning⁵¹! – deb aytadi.

“Men bir oz muddat cho‘ponlik ham qilganman. Biroq o‘sha paytda (sirtdan o‘qirdim) kursdoshlarimdan cho‘ponlik qilayotganligimni yashirardim. Endi

⁵⁰ Холмирзаев III. Сайланма: V жилд: Қиссалар. – Тошкент: Sharq, 2016. – Б. 211.

⁵¹ Холмирзаев III. Сайланма: V жилд: Қиссалар. – Тошкент: Sharq, 2016. – В. 226.

bilsam, hayotimning eng pokiza davri o'sha paytlar bo'lgan ekan"⁵², – deb eslaydi yozuvchi. Cho'ponlar hayotini yaxshi bilganligi sababli bir qancha qissalarida cho'ponlar hayotini yoritadi. Odatda asarlaridagi cho'ponlar pok vijdonli, jonivorlarga mehribon ("Tubsiz osmon", "Yashashga kechikma") qilib tasvirlanadi. Lekin Suyunboy obrazi boshqa cho'pon obrazlarining umuman aksi.

"Bo'ri ovi" qissasi qahramoni Jabbor tog'begi eng mayda parrandalar: chumchuqlar, kakliklardan tortib olqor, ayiq, tulki, bo'ri kabi qimirlagan jonivorlarning barchasini ovlashni kasb qilib oladi. "Yur, tog'larga ketamiz!" qissasi qahramoni Qodir podachi ham xuddi shunday. Shu o'rinda yana Oygu kampirning fikrlariga murojaat qilamiz: – O, bu yer yutkur ovni tashladim degani bilan kunora bir narsani otmasa, ko'ngli joyiga tushmas edi... O'shanda o'zi kasal bo'lib yotibdi deng... Qish qattiq kelmadimi, esingizda bor, qor qalin tushdi. Jonivor kakliklar tog'dan pastga qarab enishdi. Yaxshi odamlar ularga don sochdi. Bu bo'lsa... Men kapada edim. O'tovga kirsam, u yo'q. Tashqariga chiqdim. Yo'q. Qarasam, qorda sudralib ketibdi. Orqasidan chopdim. Bir chaqirim yurib qo'ygan ekan, "Nima bo'ldi sizga?" deyman. "Kaklikning ovozini eshitdim", deydi. Qo'lida miltiq⁵³.

Bo'ri ovlaganlarga davlat tomonidan pul ajratilishini eshitgan tog'begi bosar-tusarini bilmay qoldi. Aslida bu tadbir suruvlarga hujum qilayotgan, qo'ylarni bo'g'izlab ketayotgan bo'rilarga qaratilgan bo'lsa-da, tog'begi qimirlargan bo'ri borki, otib pul qilishni odat qildi. Mashinada sahroga borib ham bo'ri ovlab keldi. Geologlar tog'ni o'rganish uchun kelganda tog'begini tog'ni yaxshi biladi deb ularga yo'lko'rsatuvchi qilishdi. Tog'begi bu vaziyatdan ham bo'ri ovlash uchun foydalandi. Geoglarning vertolyotida ham bo'ri ovлади. Har bir ovlagan bo'risini o'zi davlat idoralariga sudrab yurmay Mahkam buxgalterga olib kelib tashlab ketardi. U esa bo'ri uchun berilgan pulning yarmini o'ziga olib qolib, tog'begiga qolgan yarmini berardi.

An'anaviy peyzaj Nurali Qobul uchun o'z qahramonlarining turli ruhiy holatlarini va tushunchalarini chuqurroq ifodalash usulidan tashqari, ayni paytda,

⁵² Қобул Н. Ватан ва миллат қадрига етган ҳаққа етади...// Жиззах ҳақиқати. – 1994. – № 23. – Б. 3.

⁵³ Холмирзаев Ш. Сайланма: V жилд: Қиссалар. – Тошкент: Sharq, 2016. – Б. 227

tabiat go‘zalliklarini zavq-shavq bilan targ‘ib etish orqali tabiatni asrab-avaylashga da’vat etish yo‘li hamdir. Shu bois uning asarlarida qishloq tabiatining betakror go‘zalliklarini, so‘lim manzaralar tasvirini tez-tez uchratish mumkin⁵⁴. Nurali Qobulning inson va tabiat munosabatiga bag‘ishlangan qissalarida tabiat go‘zalliklari: viqorli tog‘lar, azim daryolar, sho‘x soylar, chechaklar barq urib yotgan so‘qmoqlar, musaffo osmon, oppoq pardek bulutlar, yam-yashil daraxtlar, sirli o‘rmonlar, sayroqi qushlar, barcha-barchasi inson zavq olishi uchun yaratilgan. Ular o‘rtasida muvozanat buzilmasligi kerak deya tasvirlanadi. To‘g‘ri, yer yuzidagi barcha ne’matlar inson uchun yaratilgan deb bilamiz. Lekin ulardan oqilona foydalanish, ularga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishimiz ham zarur. Har narsaning chegarasi bo‘lgani kabi insonning tabiat ustidan hukmronlik qilishining ham chegarasi bo‘lmog‘i lozim. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, yaxshilik ham, yomonlik ham javobsiz qolmasligi barchamizga ma’lum. Adabiyot esa yana bir bor buni eslatib qo‘yadi, xolos. Tabiat unga bildirgan har bir munosabatimiz uchun javob qaytaradi. Unga bergan mehrimiz va e’tiborimiz uchun bizni siylaydi. Unga ozor yetkazadigan bo‘lsak esa albatta, jazolaydi.

Yozuvchi Nurali Qobul ham inson va tabiat munosabati aks etgan asarlarida bu an’anani davom ettiradi. Jonivorlarga ozor berib, tabiatga ziyon yetkazganlar Allohnинг qahriga duchor bo‘lishini yana bir bor eslatib o‘tadi. Jabbor tog‘begi ham, Suyunboy cho‘pon ham qilmishlarining badalini to‘laydi.

Otasi Rahmon ovchining qilmishlarini yoqtirmaydigan, uning ovchilik orqasidan tirikchilik qilishini xush ko‘rmagan Jabbor tog‘begi ham otasi kabi ovchiga aylandi. Tog‘begi ovlagan bo‘rilarini pullash jarayonlarining birida Mahkam buxgalter bilan kelisholmay qoladi. Har doim pulni Mahkam buxgalter orqali olib o‘rgangan tog‘begi bu safar o‘lgan sigiri o‘rniga sigir olish uchun ko‘proq pul talab qiladi:

– Xullas, bu yog‘ining hisob-kitobi o‘zimizga qoldi. Bu yerda Mannon ham bor... Senga uch yuz, – dedi Mahkam past ovozda. – Men bir yo‘la pul bilan

⁵⁴ Мирзаев И. Янгича тафаккур ва ҳозирги ўзбек насрининг тараққиёт йўллари: Филол. Фанлари д-ри. дисс. – Тошкент: 1991. – Б. 95.

vedomostniyam olib keldim. Kechagi ikkita bo‘ringga yana yuz so‘m to‘g‘irlatib beraman.

- Hech bo‘lmasa yarmini bering. Sigirim o‘lib qoldi, sigir olmoqchiman...
- Shuncha paytdan buyon seni ovora qilmay, osmondan tushgandek pul olib kelib beraman. Lekin o‘z aqling bilan biror marta bola-chaqangiz bor, sizniki oz bo‘ldi deb aytmaysan. Tag‘in gapirasani-a...
- Teng yarmini olib qolasiz-ku? Yana nima kerak sizga? Pulni yoningizdan berayotganingiz yo‘q-ku?!
- Shunday deydigan bo‘lsang bir tiyin ham ololmaysan! Bildingmi?! Shuncha jonivorni otganing uchun, istasang, kerakli joyga tiqtirib qo‘yishim ham mumkin! Noshukur ekansanku!
- Haqorat qilmang meni! Pul kerak bo‘lsa pishirib yeng! Lekin haqorat qilmang! – dedi Jabbor yelkalarini titrab
- Kim bo‘psan! O‘zi sening ota-bobongni nazari past o‘tgan!...
- Ovozingni o‘chir! Otib tashlayman hozir!
- Otasan! Ot qani! Sendaqa odam otadiganni men loydan yasayman (236-b.)!

Mannon kassir ularni yarashtirmoqchi bo‘lgani sari Mahkam past tushgisi kelmasdi. Mahkam buxgalterning gaplari tog‘begining etidan o‘tib suyagiga taqaldi. Miltig‘ini olib, Mahkamga o‘qtaldi. Mahkam tog‘ga qarab qocha boshladi. Tog‘begi xuddi bo‘rini nishonga olganday tepkini bosdi. Qo‘shotar gumburlab, o‘q Mahkamning o‘ng yelkasini o‘pirib ketdi. So‘ng miltig‘ini soyga uloqtirib, turgan joyida ho‘ngrab yig‘lab yubordi. U Mahkamni otib qo‘ygani uchun emas, bolalarini o‘ylab yig‘lardi. Oxirgi marta qachon yig‘laganini eslolmasdi ham. U uyiga yaqinlashgan sari adoyi tamom bo‘lardi. “Yalanglikda so‘ppayib turgan uyining tomi va ichi-tashi bir suvoq bilan qolib ketganini, tomorqasi devor bilan o‘ralmaganini o‘yladi. Bedazor oralatib ekilgan nihollar hali bo‘y cho‘zmagan, suvsab yotardi. Bo‘rilarning ortidan quvib yurganimcha, shu ishlarni qilsam bo‘lmasmidi, deya o‘yladi nadomatdan yuragi achishib...

...U bir daqqa tegirmon etagidagi majnuntolzorda qolib ketgan bolaligiga qaytmoqni istadi..." (238-b.).

Tog‘begi oxir oqibat o‘zini falokatga duchor qildi. O‘ziga o‘zi choh qazidi. U ham baxtli oila sohibi bo‘lishi, farzandlari xursandchiliklariga sherik bo‘lishi, ularga mehr va ota bilan birga ulg‘ayish imkoniyatini yaratishi mumkin edi. Afsuski, umrining eng gullagan, kuchga to‘lgan davrini sovuq panjaralar ortida o‘tkazishiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbek adabiyotiga absurd obrazni birinchi bo‘lib Nurali Qobul olib kirdi, deb e’tirof etishadi adabiyotshunoslar. Bu absurd obraz esa Suyunboy obrazidir. Hech bir maqsadsiz yashaydigan, birovga nafi tegmaydigan, bema’ni hayot kechiradigan Suyunboy obrazi ham o‘zini o‘zi falokat yoqasiga olib boradi. Olqor, kiyik, ayiq ovlab o‘ldiradigan cho‘pon, hattoki, aka-uka Abdumurod va Saidmurodlarni ham hech bir sababsiz o‘ldirib yubordi. O‘ldirgani kamdek, ularning jasadini ayiqlar yashaydigan g‘orga olib borib, ularga yem qilishga harakat qildi. Ayiqlar unga nisbatan insofli ekan, jasadlarni g‘orning qarshisidagi yalanglikka olib chiqib qo‘yadi.

O‘zi ham aka-ukalar kabi o‘lim topadi: Suyunboyning yuzi-ko‘zları o‘ziga o‘xshash yapaloq, quloqlari katta-katta o‘g‘li yig‘lagancha g‘ovdan kirgandayoq hamma narsaga tushungan edim... Otasini Jiydalining dashtida birov o‘ldirib ketibdi. Jarbuloqlik o‘tinchilar kelib aytishibdi⁵⁵.

Qishloq ahli Suyunboyning jasadini olib kelib, murdasho‘y va go‘rkovga iltimos qilib, bir amallab ko‘mishadi. Qabristonga kam odam borganligi sababli ko‘mish juda ko‘p vaqtini oladi. Oradan hech qancha vaqt o‘tmay, ukasi Isrofil akasining qanday o‘lganligini tekshirish, bilish uchun o‘limi bilan bog‘liq ishni tergovga oshiradi. Butun qishloq tergovga qatnaydi. Uchta doktor va ikkita militsioner kelib qabrni ochib tekshirishdi. Oxir oqibat, Suyunboyning jasadi jondorlarga yem bo‘ldi:

– Yomonligidan yergayam sig‘madi bechora. Qabrini ochib, ichak-chavog‘ini ag‘dar-to‘ntar qilishibdi, – dedilar sekingina...

⁵⁵ Қобул Н. Жоҳиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 35.

– Suyunboyning qabrini ochganlar yaxshi ko‘mishmagan ekan, Mushukjarning yovvoyi itlari jasadini yeb ketibdi, – dedi biz bilan ketayotgan hamqishloqlardan biri.

– Qabrini ochishganda ukasining ko‘ziga arvohlarmi, insu jinsmi ko‘ringan ekan, o‘ziga kelmay yotgan mish, doktorlar odam bo‘lishi gumon, deyishibdi, – dedi kimdir⁵⁶.

Shunday qilib Suyunboy ham o‘z qilmishlariga yarasha jazolandi. Hayotda hech bir maqsadsiz yashab, faqat birovlarga ozor bergan cho‘pon oxir oqibat tabiat bag‘riga, yerga ham sig‘madi. Aniqrog‘i yer ham bunday razil odamni qabul qila olmadi.

Nurali Qobulning “Yashashga kechikma” qissasini ham loqayd o‘qiy olmaysiz. Undagi hayotiy, jonli obrazlar qismati sizni o‘yga toldiradi, beedad hayajonga soladi. Asar qahramoni Nurulla xissiyotli, oljanob fazilatlarga ega. Lekin u ko‘p hollarda ichki tuyg‘ularini pinhon tutmaydi. Ana shu oshkorlik uning romantik tabiatiga juda yarashgan. Yozuvchining inson konsepsiyasi mazkur qahramon talqinida aniq ifodasini topgan. Uning chin insoniyligi, hayvonot olami uchun jon kuydirishi kitobxonlar uchun maktab vazifasini bajaradi.

Ijodkor xalqimizning shonli tarixi sahifalariga nazar tashlasak, ular hamisha va hamma vaqt ma’naviy-axloqiy mezonlarni o‘zida mujassamlashtirgan, o‘zlarining hayotiy kuzatishlari hosilasida paydo bo‘lgan fikr-mulohazalarini bayon qilib borganliklariga guvoh bo‘lamiz. Shu ma’noda, yozuvchi Nurali Qobul ham o‘zi ko‘rgan, hayotiy kuzatishlari natijasida paydo bo‘lgan hosilalarni: insonlarning tabiatga vijdonsizlarcha munosabatini qissalari orqali bayon qildi.

Sevimli yozuvchimiz O’tkir Hoshimov “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”ida: Odam o‘z manfaatiga mos kelish-kelmasligidan qat’iy nazar ezgu amallarni bajarsa va qilish mumkin bo‘lmagan ishlardan tiyilsa, insofli bo‘ladi. Buning uchun u mukofot olmasligi mumkin. Ammo iymoni to‘kis bo‘ladi. Shu boisdan bunday insonni iymoni deydilar.

⁵⁶ Кобул Н. Жохиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 39.

Odam ezgu amallardan manfaat topolmagani uchun ulardan voz kechsa va qilish mumkin bo'lmagan ishlarni qilsa, noinsof bo'ladi. Buning uchun u jazolanmasligi mumkin. Ammo iymonga shikast yetadi. Shu boisdan bundaylarni iymonsiz deydilar. Iymonsizlik esa qabohatlar uchun darvozani lang ohib qo'yish bilan teng,⁵⁷ – deb aytib o'tadi. Xuddi shunday. Jabbor tog'begi tog'ni larzaga keltirib qilgan xunrezliklari uchun jazolanmadidi. Ammo iymonsizga aylandi. Iymonsizlik esa uning uchun qabohatlar darvozasini lang ohib berdi. Oxir oqibat hayvonlardan so'ng, hattoki insonni o'ldirishga ham harakat qildi. Afsuski, uning bu aybi jazosiz qolmasligi aniq edi.

Dunyoning ulug' donishmandlaridan biri, benazir shoir va mutafakkir, valiy inson – Jaloliddin Rumiy “Ichindagi ichindadur” asarida: – Noto‘g‘ri ishlar qildim dema, to‘g‘rilikni tut. O‘sanda hech qanday egrilik qolmaydi. To‘g‘rilik Musoning hassasi kabidur, egrilik esa sehrgarlarning sehriga o‘xshaydi. To‘g‘rilik o‘rtaga chiqishi bilan ularning hammasini yutadi. Agar bir yomonlik qilgan bo‘lsang, o‘zingga o‘zing qilgandirsan. Sening yomonliging o‘zgaga qanday ta’sir qiladi,⁵⁸ – degan o‘tli fikrlarni keltiradi. “Johillik va qotillik (Yangi qor tushgan kun...)” qissasi qahramoni Suyunboy ham o‘ziga o‘zi yomonliklarni ravo ko‘rdi. Enaning “egrilikni qo‘y, to‘g‘rilikni tut” degan o‘gitlariga qaramay, o‘z bilganidan qolmadi. Jonzotlarga, insonlarga ozor berishdan tiyilmadi. Uning ham barcha yomonliklari o‘ziga qaytib keldi.

Yozuvchi qissalaridagi falsafaga ko‘ra, tabiatning yuragi o‘zini ardoqlagan odamlar bilan uyg‘unlik kasb etadi. O‘ziga qarshi borgan, azaliy qoidalarni buzgan odamlardan tabiat ayovsiz o‘ch oladi. Nurali Qobulning markaziy obrazlar tizimini insonlar tashkil etadigan qissalaridagina emas, markazida hayvonot olami turgan qissalarida ham “tabiat o‘chi” falsafasi badiiy xulosa bo‘lib kelgani jihatidan ahamiyatlidir.

Dunyo yaralibdiki, unda inson o‘z aql-zakovati, ongi bilan boshqa hayvonot olamidan ajralib turishi bilan ulug‘lanadi. Badiiy adabiyot ham insonga tabiatan

⁵⁷ Hoshimov O‘. Daftar hoshiyasidagi bitiklar/to‘ldirilgan va qayta ishlangan nashri. – Toshkent: Sharq, 2012. – B. 15.

⁵⁸ Maylono Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadur. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2013. – B. 22.

berilgan shunday imkoniyatni madh etish bilan birga, insoniyat tomonidan tabiatga berilgan, berilajak ijobiy va salbiy ta'sirlarni bot-bot ko'rsatib kelmoqda.

Badiiy asar biror hayvon, jonivor yoki o't-o'lanlar haqida bo'ladimi, baribir uning tag zamirida inson xarakterini, insonga xos xususiyatlarni ochib berish yotadi. Yozuvchi Nurali Qobul ham qissalarida inson va tabiat, inson va hayvonot olami tasvirlarida insonlarga xos xususiyatlarni ochib bergen.

2.2-§. “Tubsiz osmon” va “Oq kema”: qiyos va talqin

Adabiyot – odobiyat, odoblar majmuasi. Adabiyot – o'z ibtidosidan boshlab insonlarni ezgulikka yo'llovchi mayoq. Shu o'rinda bolalar adabiyoti degan bir soha borki, bu sohaning vazifasi, mas'uliyati jamiyat oldida yanada ulkanroq ko'rinadi. Negaki, bugungi bola ertaning egasi, kelajagimizning yaratuvchisi. Ana shu ertamiz egalarining yuragida bunyodkorlik, ezgulik, elga, yurtga, Vatanga, tabiatga mehr-muhabbat uyg'otishda badiiy adabiyotning roli katta. Shu sabab ham bolalar uchun yozilgan asarlarni tahlil⁵⁹ va targ'ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Nurali Qobulning “Tubsiz osmon” qissasi ham o'quvchida ezgulikka, tabiatga mehr-muhabbat uyg'otishi bilan ahamiyatlidir.

Qaysi bir asarni o'qimaylik, unda yozuvchi qalbining zarralarini ko'ramiz. Abdulla Qahhor hikoyalari (masalan, “Bemor” hikoyasi), Zulfiya she'riyati (masalan, “Xotiram siniqlari” dostoni), Shukur Xolmirzayev asarlari. Bu kabi ijodkorlar qatorini uzoq davom ettirish mumkin. Bugungi kun kitobxonlarining sevimli yozuvchilaridan biri Ulug'bek Hamdam ham bergen intervyularining birida qator hikoya, romanlarida o'zining hayoti va yaqin kishilarining taqdirlari asosligini, “xamirturush” bo'lganligini aytib o'tgan (masalan, “Muvozanat” romanida). Nurali Qobul ham ko'plab asarlarida o'zining shaxsiy hayoti, oilasi, yaqin qarindoshlari, o'zi ulg'aygan qishloq odamlari taqdiri haqida yozgan.

⁵⁹ Қосимов А. Адабиётда болалик маънавий-ахлоқий категория сифатида (А. де Сент-Экзюперерининг “Кичкина шаҳзода” ва Ч.Айтматовнинг “Оқ кема” асарлари асосида): Филол. фанлари номз. ...дисс. – Тошкент: 1999. – 127 б.

“Tubsiz osmon”, “Qulon quduqqa qulasa”, “Yashashga kechikma”, “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” kabi qissalari shular jumlasidandir.

Atoqli yozuvchi Said Ahmadning shunday fikrlari bor: Nurali ko‘p mashq qiladi. Hikoyalarini erinmay qayta ishlaydi. Uning adabiyotimizga olib kirayotgan o‘z mavzusi bor. Tug‘ilib o‘sgan tog‘ qishlog‘i kishilarining portretlarini mahorat bilan chizadi. Tabiat manzaralarini ilhom bilan tasvirlaydi. Nurali hikoyalari ixcham tasvirga boy, o‘qishli hikoyalardir. Ayniqsa, uning cho‘ponlar, Jizzax tog‘lari boyliklarini muhofaza qilayotgan ajoyib tabiatli kishilar haqidagi hikoyalari o‘quvchida yaxshi taassurot qoldiradi⁶⁰.

Said Ahmadning Nurali Qobul hikoyalari haqida bildirgan yuqoridagi fikrlarini yozuvchining qissalari uchun ham tegishli deb aytishimiz mumkin. Qissalarining aksariyatida yozuvchi tug‘ilib o‘sgan tog‘ manzaralari, qishloq kishilari xarakterini yoritadi. “Tubsiz osmon” qissasi ham ana shunday qissalardan biri. “Tubsiz osmon” qissasi bola tilidan bayon qilinadi. Asar bola ruhiyati, uning dardli kechinmalari va jamiyat (tashqi muhit)ning bola ruhiyatiga ta’siri natijasida kelib chiqadigan ziddiyatlar asosiga qurilgan.

Ziddiyat, konflikt badiiy asar uchun ahamiyatli. Chunki hayot ham, voqeliklar ham ziddiyatlar majmuidan iborat. Shunday ekan, hayotning badiiy in’ikosi bo‘lmish badiiy asarda ham ziddiyat va qarama-qarshiliklar bo‘lishi tabiiy hol. Akademik Izzat Sulton bu borada “Syujetida konflikt bo‘lмаган асар та’sirchan emas, chunki unda hayotiy haqiqat to‘la va izchil ifodalanmaydi. Faqat hodisalar to‘qnashuvi natijasidagina ularning ichki dunyosi eng to‘la ravishda ochiladi”⁶¹, – degan edi. Birgina bolaning hayoti, qarashlari, uning atrofida bo‘layotgan ziddiyatlar orqali ijtimoiy muammolarni ko‘tarib chiqishga erisha olganligi yozuvchining mahoratidan dalolat beradi.

Asar “Men otarimizning ko‘p yillik qo‘riqchisi – qadrdon Bo‘ynog‘imning bolalashini har galgidek sabrsizlik bilan kutardim” deb boshlanadi. Shu jumlaning o‘zidayoq bolalarcha beg‘uborlik, hayvonlarga bo‘lgan qiziqish va sevish tuyg‘ulari sezilib turibdi. Zotan, “adabiyotning o‘ziga xos xususiyatini belgilovchi

⁶⁰ Хушбок Ж. Туркий дунё ёғдуси. – Тошкент: 2021. – Б. 1.

⁶¹ Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 174.

bosh maqsadi ham insonning turli xil ruhiy kechinmalari, uning ma’naviy olami, hayotda tutgan o‘rni va orzu intilishlarini tasvirlashdan iboratdir”⁶².

Asar bola hayotiga bag‘ishlangan va bola ongi, ruhiyatiga mos qilib yozilgan. Bilamizki, bolalar adabiyoti odob-axloq normalari bilan chambarchas bog‘langan bo‘ladi. Bu tabiiy, chunki asosiy vazifa – yosh bolani ma’nan yetuk inson qilib tarbiyalash. Shuning uchun ham milliy qadriyatlar, umuminsoniylik tuyg‘ular bolalar adabiyotining g‘oyaviy markazidan o‘rin oladi. Busiz mumkin emas, chunki bola tarbiyasi, kelajak avlod ma’naviyati umumjamiyat ishi hisoblanadi.

Bola bola qalbi bilan Bo‘ynoqning bolalashini sabrsizlik bilan va zo‘r quvonch bilan kutardi. Bola uchun quvonchli bo‘lgan bu holat oila uchun aksi edi: – He, tug‘may tug‘uqsiz ket! Yana hammayoqni bosib ketadigan bo‘ldi!... Usiz ham yetim qo‘zilarni boqish jonimga tegib ketdi! – deb nolirdilar achchig‘i chiqqan paytlarda ayam dadamga⁶³. Onasi bu gapni Norbo‘taga eshittirmay aytishga harakat qiladi. Bolaning yonida Bo‘ynoqni deyarli jerkimaydi ham. Lekin nachora bolasi uchun qadrdon do‘stdek bo‘lib qolgan, uning quvonchiga aylangan hayvon haqida bir nima deyolmasa ham vaziyat, o‘sha davrdagi ijtimoiy muhit shuni – Bo‘ynoqni, uning endi tug‘ilajak bolalarini yo‘qotishga majbur qiladi.

Aholi gavjum yashaydigan qishloqdan uzoqda, qir-adirlar bag‘rida cho‘ponlik qilib kun ko‘radigan bu oilaning farzandi, albatta, atrofda tengqurlari bo‘limganligi sababli it bilan, qo‘zi bilan, tabiat bilan do‘st bo‘lishi tabiiy hol. “U bilan qachon bunchalik qadrdon bo‘lib qolganimni eslayolmayman. Nazarimda, esimni tanib ko‘zimni ochibmanki, Burguttepaning yonidagi qo‘tonimizda Bo‘ynoqni ko‘rgandayman. Shundan beri bir-birimizni ko‘rmasak turolmaymiz” (182-b.). Bola Bo‘ynoqni qanchalar yaxshi ko‘rsa, unga mehr bersa, Bo‘ynoq ham Norbo‘taga xuddi shunday iliq munosabatda bo‘lardi. U bilan o‘ynardi, hatto bola yiqilib tushayotsa yumshoq tushsin deb tagiga o‘zini tashlardi, bola toqqa chiqsa unga hamrohlik qilib, uni qo‘rib borardi. Xullas, haqiqiy ajralmas do‘stlar edi.

⁶² Дониёрова Ш. Ижодкор ва услуб. – Тошкент: Турон замин зиё, 2014. – Б. 8.

⁶³ Қобул Н. Жоҳиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 182. (Keyingi ko‘chirmalar shu manbadan olinadi va beti qavs ichida beriladi).

Norbo‘ta bilan Bo‘ynoqning davrasiga keyinchalik yetim qo‘zi qo‘shiladi: Keyin bizga onasini Jiydalining dashtida jondor tortib ketgan, ayam shishada sut beradigan, dadam duch kelgan sovliqni ushlab emizadigan ko‘k yetim qo‘zi qo‘shildi... Shu kundan boshlab u doim orqamizdan ergashib yuradigan, kun bo‘yi Burguttepada yoki Teraklisoydagi kattakon oq terak ostida biz bilan o‘ynaydigan bo‘ldi (184-b.). Shunday qilib do‘stlar safi kengaydi. Onaning tashvishi esa ko‘paydi. Bolalariga, itlarga, yetim qo‘zilarga qarash, ularni ovqatlantirish kerak. Shundoq ham ro‘zg‘orni bazo‘r tebratib, naridan beri kun ko‘rayotgan oila uchun bu og‘irlik qilardi. Shu sababli ona turmush o‘rtog‘iga hech bo‘lmasa yaqinda bolalaydigan Bo‘ynoqdan qutilish haqida tez-tez diydiyo qila boshlaydi. Aslida Bo‘ynoqning bu uyda qolishiga onasining o‘zi sababchi. Chunki Mamadazim cho‘ponning qo‘lida ishlab yurgan vaqtda otasi kuchukcha olib keladi. Uning hamma joyi qora bo‘yni oq bo‘lgani uchun enasi Bo‘ynoq deb nom beradi. Otasi Mamadazim bilan chiqishmay qolgach, uning otaridan ketadi. O‘scha vaqtı “itning itini yo‘qot” deganda onasi itda nima ayb, Norbo‘ta unga juda o‘rganib qoldi deb olib qoladi.

Otasi – Jo‘ravoy vijdonli, oqko‘ngil, faqat urush ko‘rganligi sabablimi cho‘rtkesar, o‘z so‘zida turib oladigan, tezobroq inson. U Mamadazimdan bo‘shagandan keyin o‘zi otar olishga ahd qiladi. Direktor oldiga borganida o‘zini ancha taroziga solgan direktor uchinchisida rozi bo‘ladi: – Olti yuz saralangan to‘qli beraman. Bu yil senga qo‘zi rejasi yo‘q. Yigirmata yaxshi qo‘chqor topib, hech kimga bildirmay suruvga qo‘yib yuborasan. To‘qlilar semiz. Qochish paytida kechalari o‘rilgan bedapoyaga bir-ikki yoyib olasan. Faqat hech kim sezmasin. Kamida yarmi qo‘zilaydi. Qo‘zilarning hisob-kitobini faqat ikkimiz qilamiz. Bu haqda keyin gaplashamiz, – deydi (186-b.). Jo‘ravoy hozir birdan “yo‘q” desa otarni ololmasligini o‘ylab, indamaydi, ichida esa norozilik bildiradi.

Yozuvchi “direktor bovo” misolida ko‘plab shu kabi rahbarlarni nazarda tutgan, menimcha. Xalqning boyligi, ularni oqilona boshqarish topshirilgan “direktor bovo”lar ko‘rsatib berilgan. Adib qahramonning xatti-harakatini ko‘rsatish orqali uning ma’naviy dunyosini tasvirlashni o‘z oldiga maqsad qilib

qo‘yadi. Xalq molidan, xalq mulkidan oqilona foydalanib uni ko‘paytirish, to‘g‘ri taqsimlashga harakat qilish o‘rniga xalq mulkini talon-taroj qilib, yashirinchay o‘llar bilan shaxsiy o‘zlashtirishga urinish ochib berilgan. Shu o‘rinda bola tilidan aytilgan yozuvchining quyidagi fikrlariga e’tibor qarataylik: “Dadamning aytishlaricha, ko‘pchilikning rizqiga ko‘z olaytirganning u dunyo-yu bu dunyosi obod bo‘lmasmish”.

Jo‘ravoyning xarakteri esa direktoring butunlay aksi. Ma’lumki, konflikt xarakterlar, g‘oyalar, guruhlar qarama-qarshiligi ekanligi bilan obrazlarning syujet o‘zanidagi o‘zaro kurashini keskin yoki sokin oqishini ifodalashga xizmat qiladi. Nurali Qobul bir-biri bilan konfliktga kirishgan direktor va Jo‘ravoy obrazlarini turli vaziyatda, turlicha toifa kishilar qurshovida tasvirlaydi. Ularni bunday turli vaziyatlarda tasvirlash qahramonni to‘la anglab yetishga yordam beradi. Axir, ular ham banda, inson, ular ham kamchiliklardan holi emas. Shu sabab Jo‘ravoyni ba’zan samimiy, oqko‘ngil kishi, ba’zan uning aksi holda asabiy, atrofdagilaridan norozi, g‘azabga mingan, jahldor odam sifatida uchratish mumkin. “Direktor bovo” qorin g‘amida vijdonni unutgan obraz bo‘lsa, Jo‘ravoy vijdon uchun qorinni unutadigan obraz. Hattoki, qo‘y-qo‘zilarning junini olayotganda xotini oq qo‘zining junini paqirga solib olib ketgan vaqtidagi bir og‘iz gapida ham buning isbotini ko‘rishimiz mumkin: – Bor ayangga ayt! Junni olib kelib joyiga qo‘ysin! – dedilar qahr bilan. – Bitta qo‘zining juni bilan davlat boyib qolarmidi? Ma, olib bor shu matohini! Dadangga davlat – uy, davlat – xotin, davlat – bola-chaqa. Koshki, shunchalik jonini jabborga bergenini birov bilsa! – Ayam jahl bilan chelakni menga uzatdilar (188-b.).

Norxolning gaplarida haqiqat bor edi. O‘z mehnati bilan emas, o‘zgalar (Jo‘ravoya o‘xshaganlarning) mehnati bilan qornini qappaytiradigan, farzandlarini to‘g‘ri yo‘naltirib, tarbiyalab emas, davlatning qo‘ylarini sotib pul bilan oliygoohlarga kirgizadigan rahbarlar qanday qilib Jo‘ravoylarning qadriga yetishsin. Ahir, ularda samimiylit, vijdon, vatanparvarlik tushunchalari yo‘qku. Shuni bilgani uchun ham Norxol kuyardi: Ikki yil chorvaga yaqinlashganlarning tagida “Volga”si bor. Otang esini taniganidan beri qo‘y boqsa ham, eski “patpat”i

yangi bo‘lmaydi. Hayriyat, yomon bo‘lsa ham Mamadazim hech nima oraga tushib, shu “patpat”ni olib bergan edi. Biror gap deguday bo‘lsang, “Qora non bo‘lsayam halol yeyman” deydi. Huddi hamma haromu dadang halol bu dunyoda!- derdilar ayam jig‘ibiyron bo‘lib (189-b.).

Vijdonan ish tutgani, g‘irromlik qilmasligi sababli Jo‘ravoyning biri ikki bo‘lishi qiyinlashayotgandir. Lekin u farzandlariga, oilasiga halol luqma yegizadi. Norxol ham yetishmovchiliklar sabab jig‘ibiyron bo‘lib tursa ham baribir erini hurmat qilar, turmush o‘rtog‘i nima desa ma’qullab jimgina o‘tiraverardi.

Taniqli munaqqid B.Sarimsoqov badiiylik xususida so‘z yuritib, shunday deb yozadi: Badiiylik – san’atning, jumladan, so‘z san’atining asosiy, doimiy xususiyati. Juda qadim zamonlardan buyon hozirga qadar ko‘plab olimlar badiiylikni xilma-xil talqinlar, ta’rif-u tavsiflar etib kelishadi. Ammo biror bir olim badiiylik haqidagi mening talqinim to‘g‘ri, deb da’vo qila olmaydi. Chunki, san’atning qoni va joni bo‘lmish bu hodisaning sir-sinoatlari beedad bo‘lib, u har bir davr adabiyotida, uning turlicha yo‘nalish va oqimlarida, har bir milliy adabiyot va uning ayricha olingan namoyondasida o‘ziga xos tarzda, o‘ziga xos miqyos va darajada namoyon bo‘ladi⁶⁴. Nurali Qobulning qissachilikdagi badiiy mahorati yana shunda ko‘rinadiki, u insonlarni hech bir salbiy va ijobiy bo‘yoqlarsiz adabiyotga olib kiradi. Oramizdagи odamlarni badiiy adabiyotga olib kirib, bizlarga tanishtirish esa yozuvchidan katta mahorat talab qiladi.

Nurali Qobul ham tog‘ qishlog‘i odamlari, bola obrazlarini yaratar ekan, ba’zan o‘zi ham boladek o‘ylshga, bola ruhiyatiga tushishiga to‘g‘ri keladi. Norbo‘taning singlisi Mo‘tabarning qissa davomidagi tasvirlari juda ishonarli, juda chiroyli chiqqan. Mo‘tabarning akasiga bo‘lgan munosabatlarida, ota-onasiga qilgan xarxashalarida o‘z yoshligingizni, beg‘ubor bolalik, injiq va tozatabat qizni ko‘rasiz. Bu o‘rinda yozuvchi hech qanday mubolag‘a qo‘llamagan, qizaloq qanday bo‘lsa shundayligicha tasvirlagan. Shuning uchun bu epizodga mehringiz tushib qoladi. Aka-singil munosabatlari ham bor bo‘yicha samimiy yoritilgan: – Kel Mo‘ttijon, ikkovimiz achom-achom qilib yotamiz, – dedim.

⁶⁴ Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Фан, 2004. – Б. 3.

– Ho-ho, kerak emas. Sen bilan yotmayman, sen Bo‘ynoq bilan yotgansan. Usting harom bo‘ldi, qo‘llaring ham harom, – dedi. Hm-m, dadam bilan ayam bor-da, bo‘lmasa o‘sha echkining dumiga o‘xshagan sochlaringni yilib olardim! – dedim ko‘rpachaning ostidan mushtimni ko‘rsatib. U bo‘lsa meni masxara qilib, og‘zini qiyshaytirdi. Men indamadim. Yana biror narsa desam hamma gapni, Bo‘ynoq bilan birga uhlaganimni, bir kosada ovqat yeganlarimni dadamga chaqib beradi. Bo‘ynoq bilan birga uhlab yotganimni u ikki marta ko‘rgan. “Dadamlarga aytaman”, deganda chumchuq ushlab berib aldaganman. Hullas, Mo‘tti men bilan o‘ynashdan ko‘ra ayamning orqasidan ergashib, g‘ing‘irlab yurishni yaxshi ko‘radi. Mening ham u bilan o‘ynashga toqatim yo‘q. Bilmay turtib yuborsang ham baqirib yig‘laydi. Qiziq, biror narsani so‘raganda bermasang, huddi kaltak yeganday uvvos solib yig‘laydi (194-b.). Mo‘tabar haqidagi fikrimizni Norbo‘ta aytgan yuqoridagi parcha bilan yakunlamoqchimiz. Shu biringa parcha orqali yozuvchining Mo‘tabarni yaratishdagi mahorati ko‘rinib turibdi. Haqiqiy o‘zbek qizalog‘i. Shu o‘rinda, Nurali Qobulning “Tubsiz osmon” qissasini yozuvchining badiiy olamidan bolalar ruhiyati olamiga o‘ziga xos ko‘prik, adib iste’dodining yangi bir qirrasini namoyish etuvchi asar deyish mumkin. Negaki, Norbo‘taning akasi haqidagi fikr-o‘ylari ham bolalarga xos tasvirlangan. Odatda, o‘zbek oilalarida o‘g‘il bolalar ham, qizlar ham akasiga ko‘proq ishonadi, akasiga orqa qiladi. Ba’zan otasiga, onasiga aytolmagan gaplarini, e’tirozlarini ham akasiga aytadi. Uka va singillar bolalikda bo‘lib turadigan o‘rtoqlar kelishmovchiliklarini ham akaga aytib keladi. Ko‘cha-ko‘yda kimdir hafa qilsa, “akamga aytib beraman” deydi. Onasiga yoki otasiga emas. Aka bor oilalarning aksariyatida bolalik shunday kechadi. Akasi borlar tog‘dek suyanchlari bor deb hisoblaydilar. Xayollarida akasi dunyodagi eng mukammal inson: aqli, hamma ishni bajara oladigan, hech kimdan qo‘rqmaydigan jasur, xullas, qahramon. Shu sababli Norbo‘ta ham atrofida yuz berayotgan razilliklarni akasi kelsa tugatishiga ishonadi: Tezroq kela qolganlarida edi. Qodirqulning qilmishlarini aytib berardim (218-b.).

Nurali Qobulning “Tubsiz osmon” qissasini o‘qish davomida asar syujetiga o‘xhash Shukur Xolmirzayevning “Ot egasi”, Ivan Turgenevning “Mumu”, Chingiz Aytmatovning “Oq kema” asarlari va ulardagи qahramonlar ko‘z oldingizda gavdalanadi.

To‘g‘ri, Shukur Xolmirzayevning “Ot egasi”, Ivan Turgenevning “Mumu” hikoyalari yakuni o‘zgacharoq, har ikkisida ham asar qahramonlari o‘zlari uchun sevimli bo‘lgan hayvonlarini o‘zlari o‘ldirishadi. Lekin bu to‘rtta asarda ham g‘oya bir – tabiatni, hayvonlarni sevish, ardoqlash. Yana o‘xshashliklari – Norbo‘tada it, oq terak va yetim qo‘zi bor. “Oq kema”dagi bolakayda durbin, portfel, toshlar bor. Inotda qabriston, qishloq va oti bor, Gerasimda avval Tatyana, keyin kuchukchasi bor. Inot o‘z otini yaxshi ko‘rgani uchun boshqalarga bermaslik maqsadida otib o‘ldiradi. Gerasim esa kuchukchasiga bo‘lgan mehri sababli, uni boshqaga bermaslik uchun cho‘ktirib o‘ldiradi. (Inot ham, Gerasim ham sevimli hayvonlaridan boshqalar o‘z maqsadlari uchun foydalanishini xohlasmaydi). “Tubsiz osmon” bilan “Oq kema”da esa holat boshqacha yakun topadi.

“Har bir yozuvchining uslubi har xil bo‘lishi tabiiy, lekin qissalar mavzusi va aytilmoqchi bo‘lgan fikr bir-biriga mos keladi. “Asarlarning ba’zi o‘xhash tomonlariga ikki turkiy xalq hayotining yashash tarzi sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Chingiz Aytmatovning bolaligidagi ko‘plab voqealar menga ham tanish tuyuldi. Buni men “Bolalik” asarini tarjima qilish jarayonida his qildim,” – deydi yozuvchi”⁶⁵. Har xil millat vakillari bo‘lsa ham N.Qobul va Ch.Aytmatov asarlari juda o‘xhash. Ikki asarda ko‘tarilgan muammo, qissalar yakuni va h.k.

Azaldan “haqiqat qiyosda bilinadi” deydi xalqimiz. Qiyosiy tahlildan maqsad qiyoslanuvchi obyektlarning o‘xhash va farqli jihatlarini aniqlash, ular orasidagi umumiyliliklarni yuzaga chiqarish, farqli jihatlaridagi yozuvchilar mahoratini ko‘rsatishdan iboratdir.

“Tubsiz osmon” bola tilidan hikoya qilinadi. “Oq kema” asarida ham ko‘plab voqealar muallif nutqidan tashqari bola tilidan hikoya qilinadi. Norbo‘ta ham, “Oq kema” dagi bola ham yetti yosh.

⁶⁵ Тўйчиев А. Нурали Қобул насли поэтикаси (хикоя ва қиссалари мисолида). Фил.фун.фал.док (PhD) диссер. Гулистан, – 2022. – Б. 142.

“O’sha yili u yetti yoshga to‘lib, sakkizga qadam qo‘ygandi”⁶⁶.

“Men kelasi yili sakkizga kiraman, Bo‘ynoq esa o‘n oltiga” (182-b.).

Har ikkisining ham do‘satlari yuqorida sanab o‘tganimizdek, ongsiz mavjudotlar, hayvonlar, jonsiz narsa-buyumlar.

Norbo‘taning Bo‘ynoq, yetim qo‘zi bilan do‘splashish jarayonlarini yuqorida ko‘rib o‘tdik. U yashayotgan muhitda unga eng yaqin bo‘ladiganlari shu do‘satlari edi. “Oq kema” qissasidagi bola yashaydigan joy ham shunga o‘xhash: Qorovulxonada bor-yo‘g‘i uch oila yashaydi... Uch hovlida yolg‘iz bitta bola bo‘lib, u har safar ko‘chma do‘konni birinchi bo‘lib ko‘rar edi⁶⁷. Qolgan ikki oiladan biri befarznad, ikkinchisining esa emizikli qizchasi bor. Shu sababli bola yolg‘iz, jo‘ralarsiz, mana shu narsalar – durbin, toshlar – “cho‘kib yotgan tuya”, “bo‘ri”, “egar”, “tank” qurshovida yashardi.

“Tubsiz osmon”da Norbo‘taning bunaqa sharoitda yashashiga ota-onasining tutgan yo‘li, chorvachilik, poda boqib kun ko‘rishi, turmush, tirikchilik qilishi sabab bo‘lsa, “Oq kema”dagi bolaning bunday sharoitda yashashiga ham ota-onasi sababchi edi. Farqi shundaki, Norbo‘taning ota-onasi birgalikda, hamjihatlikda oila tebratish, tirikchilik qilish uchun bu yerlarda yashayotgan bo‘lsa, “Oq kema”dagi bolakayning ota-onasi turmushning mushtiga chidolmay oila deb atalmish qo‘rg‘onni buzib, ikkisi ham o‘zлari uchun yangi, yaxshi hayot izlab ketganligi sababli, bola yolg‘iz. Afsuski, “Oq kema” qahramoni ota-onasiz, bobosi va o‘gay buvisi bilan yashaydi. Norbo‘ta esa ota-onasi, buvisi, singlisi bilan birga baxtli yashaydi. Norbo‘taning Bo‘ynoq iti bo‘lsa, bolaning Baltek iti bor.

Yuqorida biz Norbo‘taning do‘satlari safi qanday kengayganligi haqida bildik. “Oq kema”dagi bolaning do‘satlari safi ham shunday kengayib boradi. Bolaning portfelga aytgan gaplari bor: Men axir, durbin bilan ham xuddi shunday gaplashaman, endi biz uchtamiz – men, sen va durbin⁶⁸. Norbo‘ta esa “men, Bo‘ynoq, oq terak, yetim qo‘zi” deydi. Har ikkisi ham o‘zining do‘satlari bilan insonlar bilan gaplashganday gaplashishadi.

⁶⁶ Айтматов Ч. Сомон йўли. –Т.:Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – Б. 3.

⁶⁷ Айтматов Ч. Сомон йўли. –Т.:Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – Б. 3.

⁶⁸ Айтматов Ч. Сомон йўли. –Т.:Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – Б. 21.

Norbo‘ta bilan bolaning mashg‘ulotlari ham o‘xhash. Biri qo‘y-qo‘zilarini dalaga haydaydi, yana biri buzoqni yaylovga haydaydi. Asar voqealari davomida har ikkala bola mактабга chiqadi. Ularning eng sevimli mashg‘ulotlari ham o‘xhash: Norbo‘ta Bo‘ynoq bilan tabiatni aylanib, yasama yog‘och miltig‘i bilan tabiatni qo‘riqlaydi, “Oq kema”dagi bola esa durbin va portfelin olib, oq kemani kutadi. Ikkalasining tabiatga bo‘lgan munosabati ham bir xil. Norbo‘ta sovxoz qo‘ylarini qiynaganda (qon ukol qilib, tug‘ishni ko‘paytirib, naslni buzganda, hali tug‘ilmagan qo‘zichoqlarni ona qornidan yorib olib, yoqa va shapka uchun ularning terisini shilganda, Qodirqulning qilmishlarini ko‘rganda) osmonga tikilib, faqat tubsiz osmonda bunaqa razilliklar – hayvonlarni, jonivorlarni qiynamasa kerak deb, yosh bo‘lsa ham insonlarning tabiatga yetkazayotgan ziyonidan afsus chekib zorlanadi.

Akademik Matyoqub Qo‘shjonov qissa haqida shunday deydi: – Bu asarning fazilati shundaki, u orqali biz bola ko‘zi bilan ona yerimizning bir qismini ko‘ramiz, uning har bir giyohi, o‘t-o‘lani, dov-daraxti, tog‘ va toshi, qum-u tuprog‘i, sokin chashma va notinch soylari, yangidan anglagandek bo‘lamiz... Bola beg‘araz, uning tiniq nazari yana ham tozaroqdir. Bolaning beg‘araz nigohi tufayli, ko‘proq o‘z manfaatini o‘ylab, ba’zan hiyla-yu nayranglar ishlatib, o‘z mansabidan foydalanan jamoat mulkiga ko‘z tikkan, bu yo‘lda odamlarni tahqirlashdan ham toymaydigan rahbarlarni; tabiat olamiga vahshiylarcha munosabatda bo‘lib, borliq muvozanatini buzayotgan kimsalar, ularning qing‘ir-qilmishlarini ko‘ramiz⁶⁹. Xuddi shunday, “Oq kema”dagi bola ham O‘razqulning qilmishlarini ko‘rganda, bobosi va xolasi azoblangan vaqtarda baliqqa aylanib, suvga tushishni va oq kemasari suzib ketishni orzu qiladi. Har ikkisi ham moviy cheksizliklarga uzoq tikilib, bu dunyoda bo‘layotgan jinoyatlar, faqat shu moviy kengliklarda bo‘lmasligiga ishonadi.

“Tubsiz osmon” qissasidagi Qodirqul nosfurush bilan “Oq kema”dagi O‘razqul juda o‘xhash obrazlar. Har ikkisi ham tabiat ne’matlarini o‘z manfaatlari uchun qurbon qilishdan tab tortmaydigan qahramonlar. Qodirqul qorin g‘amida

⁶⁹ Кўшжонов М. Этиқод // Ёшлик – 1982. - № 2. – Б 62.

teraklarning po'stini shilib, nos tayyorlab sotadi, muqaddas va shifobaxsh bo'lgan suvgaga oyoqlarini botirib bulg'aydi. O'razqul haqida asardan parcha keltirib, xulosa chiqarishimiz mumkin: O'razqulning ko'nglini topsang, qarabsanki, daraxt kesish ta'qiqlangan o'rmondan ikkita-uchta yog'ochni taxlab olib ketasan-da⁷⁰. Kesish mumkin bo'limgan qayrag'ochlarni kesish ham gapmi, jonivorlarni ham ko'ngilxushlik uchun ov qiladi.

Bolalar turli hissiyotlarga beriluvchan bo'ladilar. Bu hissiyotlar o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Bu hissiyotlarning salbiy yoki ijobiy bo'lishi ko'p hollarda atrofidagilarga bog'liq bo'ladi. Bolaning yashash muhiti, qanday insonlar, kimlar bilan yashashi bola psixologiyasiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. "Oq kema" dagi bola ota-onasiz ulg'ayganligi uchun, bobosidan boshqa hech kimga kerak emasligini his qilgani, o'gay buvisining nolishlaridan bezor bo'lganligi uchun o'z fikrlarini oshkor aytolmaydi. Mo'min cholga o'xshab u ham isyonsiz yashaydi. Norbo'ta esa bolaligini his qildiradigan muhitda, ota-onasi, hamma narsani erinmay tushuntiradigan buvisi, uning xatlari va chizgan rasmlarini e'tiborsiz qoldirmaydigan akasining mehrini his qilib yashaydi. Shuning uchun ham u o'z fikrlarini yaqinlariga ayta oladi. Hattoki, insonlarning jonivorlarga berayotgan zulmiga qarshi chiqib, isyon qila oladi. Tabiatni – teraklarni Qodirquldan, qo'zichoqlarni qassobdan qutqarish uchun harakat qiladi.

Ko'p hollarda adiblarimiz bolalarga atalgan asarlarda ifodaning kontrast, kontrast-parallel usullaridan foydalangan holda kichkintoylarning o'zlariga xos tabiatlarini ochib beradilar, ularning ruhiy dunyosini chuqurroq tadqiq etishga harakat qiladilar. Bunday usulda yaratilgan qissalarda mehnatsevarlik va dangasalik, g'irromlik va mag'rurlik, nohaqlik vaadolat to'qnashadi. "Tubsiz osmon" va "Oq kema" qissalarida ham kontrastlikni ko'ramiz. Har ikki qissa ham bolalar quvonchi bilan boshlanadi va oxiri fofja bilan yakun topadi. Har ikki qissada ham nohaqlik va adolatsizlikka duch kelasiz.

⁷⁰ Айтматов Ч. Сомон йўли. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – Б. 22.

Butun asar davomida faqat ezgulikka xizmat qilgan, eng yaxshi insoniy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan, farzandlariga ham yaxshi ota, ham olajanob inson sifatida o‘rnak bo‘la olgan Jo‘ravoy obrazi kitobxonning cheksiz mehrini qozonadi. Afsuski, shu bilan birga bir umr halollik istab yashagan qahramonning farzandkushga aylanishidan norozi bo‘lasiz.

Hazrat Navoiy “Mahbub ul-qulub”da yomon hukmdorlarni “aqli va insoniyligiga futur yetgan” zotlar deydilar va ularning mavjudligi zamon ahliga hamma vaqt ranj va kulfat keltirishidan iztirob chekadilar. Bu qissalardagi “yomon hukmdorlar” – “yomon va razil rahbarlar”ning mavjudligi ham atrofidagilarga ranj va kulfatlar keltirdi. Har ikki bola o‘limiga ham “yomon hukmdorlar” sabab bo‘ldi, qaysidir ma’noda. To‘g‘ri, butun bir jamiyat ham aybdor. Lekin bari bir mana shu jamiyat boshqaruvi “hukmdorlar” – “rahbarlar” qo‘lida edi. Rahbarlar Jo‘ravoyni otardan qo‘y o‘g‘irlanishi sabab ayblaydi:

– O‘zing yeb qo‘yib, nega bo‘riga to‘nkaysan?! Bo‘ri yegan bo‘lsa kalla-pochchasini olib kelib ko‘rsat! – debdi dadamga o‘shqirib bosh buxgalter Rahim boshmon.

Dadam izza bo‘lib idoradan chiqib ketibdilar. Endi u uyga kamdan-kam kelar, qo‘shotarni ko‘tarib, uzzukun poylardilar. Men esa qanday qilib Bo‘ynoqning bolalarini ogohlantirishni o‘ylardim (237-b.).

Bosh buxgalterning gaplaridan so‘ng Jo‘ravoy Qorovuzni otishni, Norbo‘ta esa uni qutqarishni o‘ylardi. To‘qayga tutash yaylovda yurgan suruvga yaqinlashayotgan Qorovuzni ko‘rgan Norbo‘ta dadasi uni otib qo‘yishidan qo‘rqib ketadi va ogohlantirishga oshiqadi: – Qorovuz! Qayt orqaga! Dadam... ...Qorovuz yalt etib senga qaradi. To‘qayni larzaga keltirib qo‘shotar gumburladi. Qorovuz otilgancha to‘qayga kirib ketdi. Ammo sen joyingdan jilmading... Sen esa... O‘zingning mangu osmoningda qolding... Ko‘zingning so‘nggi nurlari bilan osmonga qaramoqchi bo‘lding-u, miltig‘ini uloqtirib, boshiga mushtlagancha faryod solib kelayotgan dadangni ko‘rding. Uning: “Uyim kuydi, xonam tutadi!” degan so‘zlarini eshitmading (238-b.).

Har ikki qissani o‘qish davomida o‘ylab qolaman, ba’zan har narsaning chegarasi bo‘lgani kabi hayvonot olamiga bo‘lgan mehrning ham chegarasi bo‘lgani ma’qulmi, negaki, ikkita bolakay ham jonivorlarga bo‘lgan mehrlari sabab halok bo‘ladi. Norbo‘ta Qorovuzni o‘q zarbidan qutqarish uchun harakat qildi va o‘qqa o‘zi duchor bo‘ldi. Va doim orzu qilgan beg‘ubor osmoni tomon parvoz qildi. Bechora ota esa farzandkush bo‘ldi. “Oq kema”dagi bola Shoxdor Ona bug‘udan ayirlgani, yana uni o‘z otasi otganligini bilib, hayotning shafqatsizliklariga chidolmay baliq kabi suzib Oq kemaga yetish, baliqqa aylanib qolish orzusi tufayli suvga tushadi, afsuski, u baliq emas edi, baliq bo‘lolmasdi. Shu sababli o‘zi sevgan cheksiz ummonga g‘arq bo‘ldi. Har ikki bolakayning falokatiga, o‘limiga o‘zlari ishongan, sevgan insonlari sababchi bo‘lib qoldi.

Farg‘onalik ijodkor Sharofiddin Yo‘ldoshev bir maqolasida shunday degan edi: Nurali Qobul nomini bilmaydigan, uning asarlarini mutolaa qilmagan kishi topilmaydi rayonimizda. U xalqimizning faxri bo‘lib qoldi. Shu bois ham “O‘zbeklarning Chingizi” degan sifat berilganda aslo mubolag‘a yo‘q. Yuksak insoniy xislatlar, ijodkorlik jasorati, novatorligi, ijod uslubining o‘ziga xosligi va takrorlanmasligi uchun ham jahon tan olgan buyuk adib – Chingiz Aytmatovga qiyoslanadi. “Olg‘a” gazetasi, 17-mart, 1990-yil⁷¹.

Haqiqatda, bu asarlar juda o‘xhash, har ikki yozuvchining ham qissalari birdek sevimli. Lekin tan olib aytish kerakki, “Tubsiz osmon”ning yakuni “Oq kema”nikidan-da hayotiy, ta’sirli va dahshatli. “Xudo haqqi, bu topilma va kashfiyot bilan tabriklayman”, – deya yozganida Boris Polevoy haq edi. Afsuski, bu topilmani inkor etgan kitobxonlar ham bo‘ldi. Qanday qilib odam hayvon uchun o‘lishi mumkin. Bu noto‘g‘ri deb aytishdi. Bunga Said Ahmadning “Yo‘qotganlarim va topganlarim” kitobidagi adibning Abdulla Qahhor va Chingiz Aytmatov haqidagi xotiralarini misol qilib keltirishdi. Said Ahmad “Sovet O‘zbekistoni” gazetasida bosilgan “To‘lqinlar” hikoyasi haqida shunday eslaydi: ...Abdulla aka o‘qib, bosh chayqagan edi.

– Bittagina jumla shundoq yaxshi hikoyani xarob qipti. Nahotki hayvon

⁷¹ Хушбок Ж. Туркий дунё ёғдуси. – Тошкент: 2021. – Б. 7.

uchun odam o'lsa. Odam odam uchun o'lishi kerak.

Hikoyada kolxoz raisi bo'lgan bir ayol selda qolgan mollarni qutqaraman deb, daryoga cho'kib ketardi.

— Hikoyaning hamma joyi mukammal. Tili ham, tasvir ham, holat ham nihoyatda yaxshi. Manaman degan yozuvchi havas qilsa arziyidigan hikoya. Afsus, bitta jumla shuncha mehnatni yo'qqa chiqazgan⁷².

Bu fikrlardan Said Ahmad ranjiydi. Oradan uch-to'rt oy o'tib Chingiz Aytmatovning "Adabiyotda insonparvarlik" degan maqolasida ham Abdulla Qahhor aytgandek fikrlar keltiriladi. Hikoyada hayvon uchun odam o'lishini g'ayri insonparvarlik deb baholaydi.

Albatta, "To'lqinlar" hikoyasi haqidagi bu ikki buyuk yozuvchilar fikriga biz ham qo'shilamiz. Lekin bir narsani e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. "To'lqinlar" hikoyasi qahramoni (kolxoz raisi)ning yoshi katta. U mumkin va mumkin bo'limgan ishlarning farqiga boradigan, qaysi ishdan o'zi jabr ko'rishi mumkinligini biladigan obraz. Qaysidir ma'noda falokat bo'lishi mumkinligini tan olgan holda seldan mollarni qutqarishga intiladi. Lekin Norbo'ta hali yosh bola (go'dak). Otasi Qorovuzni otaman deb uni otib qo'yishi mumkinligi xayoliga ham kelmaydi. Falokatni taxmin ham qila olmaydi. Bolalarcha beg'ubor xayollari bilan, Bo'ynoqqa bo'lgan mehri tufayli uning bolasini qutqarishga harakat qiladi. Shu sabab ham adibimiz Said Ahmad hikoyasi haqidagi fikrlarni "Tubsiz osmon" qissasiga keltirish to'g'ri emas, bizningcha. Nurali Qobulning ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik, odamlarning tabiatga, hayvonot olamiga bo'lgan salbiy munosabati sabab kelib chiqishi mumkin bo'lgan fofiani yoritishdagi "topilma va kashfiyot"ini tan ola bilish kerak.

"Nurali Qobulning jamiyat va tabiat munosabatlarini badiiy tahlil qilish bobidagi xizmati, birinchidan, uning o'zbek nasridagi peyzaj an'anasini o'ziga xos shaklda davom ettirayotganligida ko'zga tashlansa, ikkinchidan, e'tiborni inson omili katta putur yetkazgan ekologik buzilishlar bilan bog'liq muammolarga

⁷² Аҳмад С. Танланган асарлар: III жилдлик. – Тошкент: Шарқ, 2000. Жилд III: Хотиралар. Адабий ўйлар. – Б. 100.

qaratganida ko‘rinadi”⁷³, – deydi adabiyotshunos olim I.Mirzayev. “Tubsiz osmon” qissasida ham ekologik va biologik muammolarni olib tasvirlar ekan, muallif voqeа bayonini o‘quvchiga yetkazish uchun bola tilidan bayon qilish usulini qo‘llagan. Bu usul yozuvchiga qissanavisning ichki kechinmalarini ifodalashga ko‘proq imkon bersa, bolaning idroki yetmaydigan ba’zi joylarini yozishda qiyinchilik tug‘diradi. Yozuvchi bola tilidan hikoya qilar ekan, uning ruhiyatiga va tiliga moslashishi kerak. Bunday holatda muallif tilida bolaning yosh xususiyati, tajribasizligi, o‘yin qaroqligi, xullas, uning butun tabiatni ko‘zga tashlanadi. Asar voqealarining birinchi shaxs tilidan bayon qilinishi qahramonning ruhiy holatini, qalb kechinmalarini ochishda qo‘l kelgan.

Insonni, uning qalbini tushunish qanchalik qiyin bo‘lsa, ma’naviyatini tushunish ham shunchalik qiyin va mushkul ishdir. Chunki, tomchida quyosh aks etganidek, insonning mo‘jaz qalbida butun olam o‘zining bor murakkabligi, rang-barang qirralari, ziddiyat va qarama-qarshiliklari bilan mujassam bo‘ladi⁷⁴. Bunga birgina misol Norbo‘ta.

Bu qissa bolalar, o‘smlilar va katta yoshdagи kitobxonlarga ham birdek manzur bo‘la oladigan o‘qishli asardir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, ishimizning ikkinchi bobiga quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin:

1. Nurali Qobul qissalarida tabiat tasvirlariga – inson va tabiat, inson va jonivor, inson va o‘simliklar olami munosabatiga duch kelamiz. Bular bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi, bir-birisiz yashay olmasligini, birining ikkinchisiga ta’siri, bir-biriga bo‘lgan munosabatlar javobsiz qolmasligi, e’tibor rag‘batlantirilishi, befarqliк va salbiy munosabatning jazolanishini ko‘rishimiz mumkin.

2. Yozuvchi cho‘ponlar hayotini yaxshi bilganligi sababli bir qancha qissalarida cho‘ponlar hayotini yoritadi. Odatda asarlari dagi cho‘ponlar pok vijdonli, jonivorlarga mehribon (“Tubsiz osmon”, “Yashash uchun kechikma”)

⁷³ Мирзаев И. Янгича тафаккур ва ҳозирги ўзбек насрининг тараққиёт йўллари: Филол. Фанлари д-ри дис-си. – Тошкент: 1991. – Б. 293.

⁷⁴ Qarshiboyev M. Ma’naviy yukosalish yo‘lida. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – В. 129.

qilib tasvirlanadi (Lekin Suyunboy obrazi boshqa cho‘pon obrazlarining umuman aksi).

3. Nurali Qobulning inson va tabiat munosabatiga bag‘ishlangan qissalarida tabiat go‘zalliklari: viqorli tog‘lar, azim daryolar, sho‘x soylar, chechaklar barq urib yotgan so‘qmoqlar, musaffo osmon, oppoq pardek bulutlar, yam-yashil daraxtlar, sirli o‘rmonlar, sayroqi qushlar, barcha-barchasi inson zavq olishi uchun yaratilgan. Ular o‘rtasida muvozanat buzilmasligi kerak deya tasvirlanadi.

4. Ziddiyat, konflikt badiiy asar uchun ahamiyatli. Chunki hayot ham, voqeliklar ham ziddiyatlar majmuidan iborat. Shunday ekan, hayotning badiiy in’ikosi bo‘lmish badiiy asarda ham ziddiyat va qarama-qarshiliklar bo‘lishi tabiiy hol. Yozuvchi insonlarning tabiatga, jonivorlarga yetkazayotgan zararlari haqidagi fikrlarini tog‘begi Jabborning ruhiy konflikti orqali yanada kengroq ochib bergen.

5. “Tubsiz osmon” qissasida birgina bolaning hayoti, qarashlari, uning atrofida bo‘layotgan ziddiyatlar orqali ijtimoiy muammolarni ko‘tarib chiqishga erisha olganligi yozuvchining mahoratidan dalolat beradi. Yozuvchi “direktor bovo” misolida xalq mulkini talon-taroj qilib, yashirinchha yo‘llar bilan shaxsiy o‘zlashtirishga urinishni ochib bergen.

6. “Tubsiz osmon” qissasida ham ekologik va biologik muammolarni olib tasvirlar ekan, muallif voqeа bayonini o‘quvchiga yetkazish uchun bola tilidan bayon qilish usulini qo‘llagan. Bu usul qissanavisning ichki kechinmalarini ifodalashga ko‘proq imkon bersa, bolaning idroki yetmaydigan ba’zi joylarini yozishda qiyinchilik tug‘diradi. Asar voqealarining birinchi shaxs tilidan bayon qilinishi qahramonning ruhiy holatini, qalb kechinmalarini ochishda qo‘l kelgan.

III BOB. NURALI QOBUL QISSALARIDA XALQ OG‘ZAKI IJODI AN’ANALARI

3.1-§. Yozuvchi qissalarida folklorizmlarning o‘rnini

Yozma adabiyotda folklorizmlarning qo‘llanilishi juda qadimdan badiiy taomilga aylangan an’anadir. Folklor hamma davrlarda ham yozma adabiyotning mazmun-mundarijasini boyituvchi, uning poetik imkoniyatlarini muttasil takomillashtirib boruvchi badiiy-estetik asos vazifasini o‘tab kelgan. Yozma adabiyotning shakllanishi va taraqqiy etishida og‘zaki ijod janrlari muhim o‘rin egallaydi. Boshqacha qilib aytganda, folklor va yozma adabiyot munosabati qadimgi davrlardan to bugungi kunga qadar davom etib kelayotgan eng izchil badiiy-estetik an’analardan biri sifatida faol namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbek adabiyotida folklor va yozma adabiyot o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish o‘tgan asrning 80-yillarida avj oldi. Bahodir Sarimsoqov o‘zbek adabiyotida birinchilardan bo‘lib folklorizm nazaryasini ishlab chiqdi. U o‘zining “Folklorizmlar tipologiyasiga doir” maqolasida shunday deydi: Folklorizm ... professional ijodkor tomonidan, birinchi navbatda, davr talabi, qolaversa, uning ijod manerasi va uslubi kabilar bilan bog‘liq holda ijodiy maqsadi asosida izchil yo‘naltirilgan, ikkinchi marta jonlantirilgan shaklidan iborat. Ikkinchi jonlanish, boshqacha aytganda, qayta jonlanish va funksiya bajarish esa doimo folklorizmlarning birinchi tabiiy yaratilish hamda funksiya bajarishidan ma’lum darajada farqlanib turadi. Shu jihatdan qaralsa, yozma adabiyot tarkibida folklor yo‘q, balki folklorizmlar mavjud deb xulosa chiqarish mumkin⁷⁵. Shu sababdab ijodkorlar asarlaridagi xalq og‘aki ijodi an’analarini tadqiq etarkanmiz, yozuvchining folklorizmdan foydalanish mahorati deb o‘rganamiz.

O‘zbek mumtoz adabiyotida yaratilgan ilk asarlardan tortib, hozirgi kun adabiyotida ham folklorizmlar o‘zining yaqqol aksini topgan. Va bu

⁷⁵ Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологиясига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 1980. 4-сон. – Б. 34.

folklorizmlarning yozma nasrdagi, asar kompozitsiyasi va syujet qurilishidagi poetik o‘rni katta ekanligini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodi an’analariga murojaat qilish yozuvchining o‘ziga xos badiiy qiyofasini, asarning g‘oyaviy-badiiy butunligini, uslubiy rang-barangligi va syujetining originalligini ta’minlaydi. Folklor “asarning xalqchilligini va milliyligini ta’minlabgina qolmay, uning kompozitsion qurilishi, badiiy tasvirning yangiligi va qahramonlar xarakterining to‘laqonli chiqishini ham ta’minlaydigan badiiy asosga ega bo‘ladi”⁷⁶.

Yozma nasrda folklor an’analaridan ijodiy foydalanish ijodkordan katta mahorat talab qiladi, eng avvalo, folklor namunalarini o‘z asarlarida mahorat bilan qo‘llash, shuningdek, shu orqali kitobxonga ma’naviy ta’sir etish bilan birga asarning o‘qishliligini ta’minlab turishni taqozo etadi.

Yozuvchi Nurali Qobul ijodida ham folklor an’analaridan foydalanish mahoratini, folklorizmlarni yozma nasr bilan omuxtalashtira olganligini kuzatishimiz mumkin. Qissalarida folklorizmlarning rang-barang ko‘rinishlarini uchratish mumkin. Urf-odatlar, an’analar, marosimlar, maqollar, matallar, mifologik qarashlar, afsonalar, rivoyatlar kabi. Shu sababli, yozuvchining xalq og‘zaki ijodidan foydalanish masalasini tadqiq etish ma’lum ahamiyatga ega, deb o‘ylaymiz.

Xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy janrlaridan biri afsona va rivoyatlardir. Yozuvchi qissalarida keltirilgan rivoyatlardan ayrimlarini ko‘rib o‘tamiz.

“Bo‘ri ovi” qissasida ham xalq og‘zaki ijodi namunalaridan unumli foydalangan. Ota farzandiga nasihat qiladi: ...senga bir narsani aytib qo‘yishim farz. Qulog‘ingga chalingandir ham. Bu rahmatli bobongning qarz gapi. Kezi kelganda sen ham bolalaringga aytarsan. Qatortol darasining qoramtil ko‘kish bo‘rilarini otma... O‘tmishda, Oyqortog‘ni yov bosganda, hamma tog‘ oshib, Panjakent tomonga o‘tib ketgan ekan. Shunda bir momomiz beshikdagি bolasini yechib olishga ulgurmabdi. Boladan umidini uzib, aza ochishibdi. Oradan ikki

⁷⁶ Дониярова Ш. Истиқол даври ўзбек романларида миллий рух ва қаҳрамон. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2011. – Б. 90.

yilcha vaqt o‘tib, bosqinchilar ketib, omon-omon bo‘lgach, ular qaytishibdi. Bir kuni ko‘za ko‘tarib suvgaga tushgan kelinchak soyning narigi betida chopib ketayotgan ona bo‘ri va unga ergashib pildirab borayotgan bolani ko‘ribdi. Shunda beixtiyor ko‘kragida sut paydo bo‘libdi. Ko‘zasini tashlab, bolaning otini aytib chaqirgancha bo‘rining ortidan yuguribdi. Bola to‘xtab-to‘xtab, ayolga tikilarmishu yana bo‘rining orqasidan chopib ketarmish. Ularni quvlab kelayotgan ayolga ko‘zi tushgan bo‘ri sekin yotib, bolani yelkasiga mindiribdi-yu, archazor oralab ketibdi. Bola bo‘rining bo‘ynidan mahkam quchoqlagancha unga yopishib olganmish. Odamlar poylay-poylay oxiri bir kun bolani tutib olishibdi. Bo‘ri bilan bola bir-biriga talpinib ulishar, yig‘lashar emish. Mehrni qara! Shu-shu, ona bo‘ri o‘zi emizib katta qilgan bola yashaydigan uyga kelib biror yegulik berishsa yeb, bola bilan o‘ynashib ketarkan. Qatortolning boshidagi Bo‘rimozor o‘sha ona bo‘rining qabri⁷⁷.

Ko‘rinib turibdiki, Nurali Qobul bu rivoyatni kiritishda xalq og‘zaki ijodida mavjud rivoyatlarga murojaat qilgan. Buning sababi bo‘ri obrazining kiritilishida. Nega aynan bo‘ri? Chunki turkiylarning ilk qarashlarida ko‘k yoki kulrang, umuman, bo‘ri timsoli alohida ahamiyat kasb etadi. Bo‘ri turkiylarning katta va obro‘li urug‘laridan bo‘lmish Ashin qavmining totemi hisoblanadi. Unga ko‘ra Ashin – bo‘ridan tug‘ilgan o‘g‘il bu qavmga asos soladi. Keyinchalik Ashin urug‘idan Turk xoqonlari chiqqanligi sababli bu timsol umumturk totemistik asoslariiga mustahkam poydevor bo‘ldi. Fikrimizning misolini “O‘g‘uznomalar”da ko‘rshimiz mumkin. Unda ko‘k bo‘ri timsoli – umumturkiy xalqlarning totemi sifatida O‘g‘uzxon va uning qo‘smini homiysi, g‘alaba va qut ramzi sifatida ulug‘lanadi.

Aytish mumkinki, tabiatga yaqin yashagan ajdodlarimiz bo‘rilarning sifatlarini yaxshi bilishgan va ularning jamoa bo‘lib yashashlari, erksevarliklari va matonati kabi xususiyatlariga havas qilishgan. Ayni paytda, o‘zlarida shunday xususiyatlar bo‘lishini va borligini his etishgan. Bo‘ri bilan bog‘liq qadimgi turkiylardagi odad va udumlar ham bu jonzotning o‘sha muhitdagi mavqeyi

⁷⁷ Кобул Н. Бўри ови. – Тошкент: Ижод-Пресс, 2017. – Б. 217.

naqadar yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi. Jumladan, qadimgi turkiylarning bayrog‘ida ham bo‘ri kallasi tasviri tushirilgan⁷⁸.

Shu sababli ham muallif “Bo‘ri ovi” qissasiga xalqimizda mavjud bo‘lgan bo‘ri va uning bolani boqib olishi to‘g‘risidagi rivoyatni kiritgan. Xalq og‘zaki ijodida mavjud bo‘lgan totemlar bilan bog‘liq rivoyatlar qardosh xalqlari adabiyotida ham uchraydi. Masalan, Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissasida ham xuddi shu kabi rivoyatni uchratish mumkin. Qissada dushman tarafdan qirg‘iz o‘tovlarining kuli ko‘kka sovriladi. Biror tirik jon qolmaydi. Hammasi o‘ldiriladi va kuydiriladi. Ertalab o‘rmonga qo‘l savat uchun po‘stloq shilgani kirib ketgan o‘yinqaroq va sho‘x bolalar – bir o‘g‘il va bir qizdan boshqa hamma o‘liklarning jasadini Enasoya uloqtiradi. Ota-onasidan, elatidan judo bo‘lgan bolakaylar ochlik tufayli jallodlar oldiga borgach, dushmanlar Xoni Enasoyning abadiy hukmdori bo‘lish uchun oxirgi qirg‘iz zotini tugatish maqsadida Cho‘tir Baymoq kampirga ularni o‘ldirishni buyuradi. Cho‘tir Baymoq kampir bolalarni o‘ldirmoqchi bo‘lgan vaqtda ona bug‘u bolalarni kampirdan so‘rab, o‘limdan qutqarib qoladi. Ona bug‘u insonlar o‘ldirgan ikki egiz bug‘u bolasi o‘rniga shu bolalarni asrab boqib oladi. Ona bug‘u bola va qizchani Issiqko‘lga olib boradi va nasihat qiladi: – Mana shu yangi vataningiz bo‘ladi, – dedi Shoxdor ona bug‘u. – Mana shu yerda yashaysizlar, yer haydaysizlar, baliq tutasizlar, molu hol qilasizlar. Ming yillar tinch totuv yashanglar. Ha, sizlarning avlodningiz yashaydi, ko‘payadi. Sizlar keltirgan tilni avlodlar unutishmaydi. Ularga o‘z ona tillarida so‘zlash va kuylash yoqimli bo‘ladi. Insonlarga qanday yashash lozim bo‘lsa shunday yashanglar. Men esa sizlar va sizlarning bolalarining bolalari bilan hamisha birga bo‘lay...⁷⁹.

Shunday qilib bolalar baquvvat yigit va go‘zal qiz bo‘lib voyaga yetdi. Qirg‘iz avlodlarining ajdodlari sifatida Issiqko‘lda qo‘nim topdi. Vaqtlar o‘tgach to‘ng‘ich farzandiga Shoxdor ona bug‘u sharafiga Bug‘uboy deb ism qo‘ydi. Bug‘uboy go‘zal qipchoq qizga uylandi. Shu tariqa Bug‘uboy – Shoxdor ona bug‘u avlodni ko‘paya boshladi.

⁷⁸ Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.

⁷⁹ Айтматов Ч. Сомон йўли. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – Б. 58.85

“Oq kema” qissasida ham ko‘rinib turganidek, bug‘u bo‘ri kabi bolalarni asrab oladi, boqadi. Shuning uchun ham bug‘u muqaddas sanalib, ov qilish mumkin emas deb uqtiriladi. Ular uchun ona bug‘u totem hisoblangan.

Yozuvchi Nurali Qobul toponimik rivoyatlardan ham unumli foydalangan. Xalq orasida mavjud bo‘lgan joy nomlari bilan bog‘liq rivoyatlarni qissalariga mohirlik bilan singdirgan. “Tubsiz osmon” qissasida Novqa ota ziyoratgohi kiritilgan. Undagi buloqning muqaddasligi aytib o‘tilgan. Bu buloq qanday paydo bo‘lganligi haqida esa Norbo‘ta enasi tilidan eshitgan xalq rivoyatini keltirib o‘tgan: Buloq besh panja shaklidagi toshlar orasidan sizib chiqadi. Enamning aytishlaricha, Hazrat Ali degan o‘sha bahodir kaftini qo‘yib yonboshlamoqchi bo‘lganida, panjalari yerga botib, shu yerdan sharqirab suv chiqib ketibdi. Beshpanja shundan beri qaynab chiqib, mavjlanib oqarmish. O‘shanda odamlar tog‘da suv paydo bo‘lganidan suyunib, soy bo‘yiga terak ekishibdi. Bora-bora teraklar butun soyni qoplabdi⁸⁰. Haqiqatda, Baxmal tumani bilan bog‘liq rivoyatlarda “Novqa ota” ziyoratgohi haqida shunday rivoyat yuradi. Yozuvchi rivoyatdan qanday bo’lsa shundayligicha foydalanadi.

Qissada Duldulqiya nomining paydo bo‘lishi ham Hazrat Ali nomi bilan bog‘liq holda izohlanadi: Enamning aytishlaricha, qadim zamonlarda Hazrat Ali degan afsonaviy bahodir yov bilan kurashish uchun o‘zining uchqur dulduli bilan doimo shu yerdan samoga ko‘tarilar ekan. Shundan beri cho‘qqining nomi Duldulqiya deb atalarkan⁸¹.

Akademik shoirimiz G‘afur G‘ulom o‘zining “Folkordan o‘rganaylik” maqolasida shunday deydi: Og‘zaki adabiyotni yangi syujetlar bilan boyitishda, o‘sha syujetni ifoda qilar ekan, har bir satrgacha bizning dunyoqarashimiz bilan sug‘orilganligini ta’min qilishda yozma adabiyot kadrlarimiz folklorchilarga yordamda bo‘lishlari kerak. Ya’ni adabiyotimizning yetakchilik roli yozma adabiyotda bo‘lsin. Biz o‘z folklorimizni o‘rganishimiz, uni o‘stirishimiz kerak⁸². Shu ma’noda, keltirilgan folklor namunalaridan shuni aytishimiz mumkinki,

⁸⁰ Қобул Н. Жоҳиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 212.

⁸¹ Қобул Н. Жоҳиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 191.

⁸² Гулом Ф. Муқаммал асарлар тўплами. 11-том. – Тошкент: Фан, 1989. – Б.80.

yozuvchi Nurali Qobul xalq orasida mavjud, ayniqsa, Baxmal tumani bilan bog‘liq rivoyatlarni yaxshi bilgan va ulardan unumli foydalangan.

Keltirilgan rivoyatlar, asosan, muallifning eshitganlari bo‘lib, “enamning aytishlaricha” bayoni ostida beriladi. Yozuvchi bayon qilgan rivoyatlarda realistik xarakter ko‘zga tashlanib turadi. Zero, rivoyat folkloarning realistik xarakterga xos janridir. Muallif keltirgan beshpanja bulog‘i haqidagi rivoyat o‘ziga xos realistik mohiyat kasb etadi. Chunki har bir joy nomining kelib chiqishi, paydo bo‘lishi ma’lum bir voqeа, tasodif yoki biror hodisaga bevosita bog‘lanadi. Buni boshqa ko‘pgina joy nomlarining etnonimida ham uchratishimiz mumkin.

Gidronimlar bilan bog‘liq rivoyatni “Salom, tog‘lar” qissasida uchratishimiz mumkin. Soy nomining kelib chiqishini xalqda mavjud rivoyat bilan izohlaydi: Katta toshloqqa qo‘shiladigan ko‘m-ko‘k soyni Sirlisoy deyishadi. Aytishlaricha, qadim zamonda podshoning qizlari taxtiravonlarida soydan o‘tayotgan paytda cho‘kib ketgan emish. Ular hanuzgacha soyning tagida yasharmish. Hozir ham kechalari biron kishi soydan o‘tsa cho‘kib ketarmish⁸³.

“Yashashga kechikma” qissasida ham yozuvchi qissa qahramoni tilidan bir hikoyani kiritib o‘tadi: Bu haqda menga enam hikoya qilib bergen. Juda qadim zamonlardan, yer yuzida o‘t-o‘lan va jonzotlar paydo bo‘la boshlagan paytdan buyon ot bilan it insonga vafodorlikka raqobatlashib kelarkan. Shuning uchun ham otlar itlarga ko‘zi tushishi bilan yer tepinib, qulog‘ini chimirib oladi yoki itni oldiga solib tiriqtirib quva ketadi. Itlar ham otlarni ko‘rsa o‘chakishib huraveradi⁸⁴. Haqiqatda, xalqimizda it va ot haqida, ularning vafodorligi haqida har xil rivoyatlar yuradi. Itning vafodorligi, o‘z egasiga sodiqligi to‘g‘risida o‘zbek va jahon adabiyotida ko‘plab asarlar yaratilgan. She’r, hikoya, adabiy ertak, qissa, balladalarda it obrazi alohida mavzu, uning vafosi esa bosh g‘oya sifatida kuylangan. “Tubsiz osmon” qissasida ham “It vafodor ekan. Shuning uchun ham muchalda itning nomi vafodor deb atalar ekan,” – deb aytib o‘tadi.

⁸³ Қобул Н. Жоҳиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 62.

⁸⁴ Қобул Н. Бўри ови. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 82.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari bo‘lmish dostonlarda ot obraziga alohida ta’rif-u tavsiflar berilgan. Egalari mushkul vaziyatlarda qolgan vaqtarda otlari hamisha yordam bergen.

Ertak janri xalq og‘zaki ijodidagi eng sevimli va eng ko‘p ishlataladigan janr hisoblanadi. Har bir oilada bolalar ertaklar bilan birga katta bo‘ladi. Ertaklar to‘qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan. Ertaklarda uydirma muhim mezon bo‘lib, syujet voqealarining asosini tashkil etadi, syujet chizig‘idagi dinamik harakatning konflikt yechimini ta’minlaydi. Uydirmalarning turli xil namunalari ta’limiy estetik funksiyani bajaradi, janr komponenti sifatida o‘ziga xos badiiy tasvir vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Uydirmalar voqeа va hodisalarни hayotda bo‘lishi mumkin bo‘lмаган yoki mavjud bo‘lgan hodisalar tarzida tasvirlaydi. Ertaklarda, asosan, uch maqsad hikoya qilinadi. Birinchisida ideal qahramonning jasorati, yovuz kuchlarga qarshi chiqib, xalq manfaatini himoya qilishi, ikkinchisida, asosan, bosh qahramonning o‘zga yurt malikalariga yoki parizodlariga oshiq bo‘lib uylanishi, kasalga dori topishi, ajdar va devlar olib qochgan kishilarni ozod qilishi, uchinchisida esa adolatsizlikka, zulmga qarshi chiqishi kabi maqsadlar bayon qilinadi. Birinchi maqsad pahlavonning faol harakati va g‘ayritabiiy kuch-qudrati bilan amalga oshsa, ikkinchi maqsad passiv qahramonga yordam beruvchi tilsim vositalari yordamida, uchinchi maqsad esa bosh qahramonning aql-idroki, tadbirkorligi bilan amalga oshadi.

“Ertaklar hayot haqiqatini xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlaganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqeа-hodisalarining ajoyib-g‘aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g‘ayritabiiy jasorati bilan folkloarning boshqa janrlaridan farq qiladi”⁸⁵. Shunday qilib, ertaklar orqali bolalarni topqirlikka, aql-idrokli bo‘lishga da’vat qilingan. Boshqalarga yaxshilik qilishga, yaxshilik hamisha g‘alaba qozonishiga o‘rgatishgan. Bola tarbiyasida eng ko‘p samara beruvchi ertak janrining yozma adabiyotga ta’sir etishi tabiiy hol edi. Shu sababli, Daniel Defo, Jonatan Swift, Karlo Kallodi, Janni Rodari, aka-uka

⁸⁵ Bolalar ensiklopediyasi. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. – B. 148.

Grimmlar, Sharl Perro, Xans Kristian Andersen, A.S.Pushkin o‘zbek adabiyotida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Hamid Olimjon, Xudoyberdi To‘xtaboyevlarning adabiy ertaklari maydonga keldi.

Ertaklar janr va badiiy xususiyatlari jihatdan bolaga tez ta’sir qiluvchi, o‘z ta’siriga oluvchi va, albatta, yaxshilikka yetaklovchi kuch bo‘lib, u orqali endi hayotga kirib kelayotgan bolaga tez va oson ma’naviy ta’sir ko‘rsatish mumkin. Yozuvchi Nurali Qobul ham o‘z qissasida ertakka murojaat qiladi. “Salom, tog‘lar” qissasi qahramoni G‘oyibnazar botir Erdanacho‘kki haqidagi ertakni juda yaxshi ko‘rardi. Onasi unga ertak aytish jarayonida xayolan obrazlar ko‘z oldida gavdalanardi: Onasi jodugar kampirning mudhish qo‘srig‘ini aytganda, qo‘rquvdan ko‘zlarini yumib olardi. Shunda qarshisida bir ko‘zli, arra tishlarini qayragan jodugar paydo bo‘lar va u yana ko‘zlarini ochib yuborardi⁸⁶.

Bu ertakni kiritishda ham yozuvchining ma’lum maqsadi bor. Birinchidan, uzun qish kechalarida har bir o‘zbek oilasida ertaklar aytishi tabiiy hol bo‘lsa, ikkinchidan, yozuvchi nazarda tutgan badiiy maqsadlar. Botir Erdanacho‘kki qiyin damlarda odamlarning bir-biriga yordamiga qiyoslansa, jodugar kampir ocharchilik balosiga qiyoslanyapti. G‘oyibnazarning onasi ahvolini yoritib berishga ham xizmat qilgan: Gohida onasi ertak aytaverib ochlikdan toliqib qolar, so‘zları ham tovlanib, arang chiqardi. Shunday voqeа yuz bermasligi uchun G‘oyibnazar o‘zini uxlaganga solardi. Onasi ham ertak aytishdan to‘xtab, xudoga allaqanday iltijolar qilib, uyquga ketardi⁸⁷.

“Oq kema” qissasida ham bola xayolan dadasi bilan gaplashgan vaqtida bobosi Mo‘min choldan eshitgan ertaklardan aytib beradi. Ochko‘z bo‘ri yutib yuborgan Chipalak otli jimjiloqday bola haqidagi ertakni keltirib, “juda kulguli-ya dada, to‘g‘rimi?” deb, dadasi bilan o‘z-o‘zicha muloqot qiladi.

Xalqimizda uchrab turadigan “jin chalibdi”, “dev uribdi” kabi birikmalar ham yozuvchi qissalarida mavjud. “Sangzor” qissasi ham bola tilidan hikoya qilingan. Bola Marjonbuloqsoy va Mushukjar haqida gapirayotgan vaqtida

⁸⁶ Қобул Н. Жоҳиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 5.

⁸⁷ Қобул Н. Жоҳиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 59.

enasidan eshitgan gaplarni keltirib o‘tadi: Qishlog‘imizga elektr toki olib kelish janjali ko‘tarilgach, tumandan odamlar kelishib, tegirmomonning o‘rniga elektr stansiyasi qurmoqchi bo‘lishibdi. Enamning aytishlaricha, tegirmonimizni buzganlarning ishi uzoqqa bormabdi. Mushukjarning kunchiqish tomonidagi Dunyotepaning devi urib, qurilishda ishlayotganlardan bittasining og‘zi qiyshayib qolgandan so‘ng, ish taqa-taq to‘xtabdi. Faqat ikki nafar o‘ris ishchi yana uch-to‘rt kun ishlabdi-da, keyin ular ham g‘oyib bo‘libdi⁸⁸.

Xalqimizda uchrab turadigan, jin, dev, sariq qiz obrazlarini, asosan, yozuvchining hikoyalarida uchratish mumkin. Lekin yuqorida qissadan keltirilgan parchada ham “dev urdi” iborasi qo‘llangan.

Ba’zan yozuvchi yoki shoir bayonchilikda xatoliklarga, voqealar rivojida ezmalikka yo‘l qo‘yishi mumkin. Bunday paytlarda shunday uslublar borki, ulardan foydalanish asarning qiziqarli bo‘lishi va ijodkor xayolotiga kitobxonda e’tiqod uyg‘otishiga sabab bo‘ladi. Mana shunday uslublardan biri bu – tush motividir. Badiiy adabiyotda bu uslub eng yetakchi uslub hisoblanadi. Lekin qiziq tomoni u har doim ham yozuvchi talabi bilan amalga oshavermaydi. Tush motivi asar talabi bilan ham yuzaga chiqishi mumkin. Chunki mazkur motiv qadimiyligi, hayotiyligi, ishonarliliqi bilan keskin ajralib turadi. Badiiy asarda yozuvchi tush motividan nima maqsadlarda foydalanadi, u qanday vazifani bajaradi kabi savollarga javob berishdan avval “Tush nima?” “Biz nega tush ko‘ramiz?” degan savollarga javob topaylik.

Insoniyat bugungi kunda ko‘plab sirlarni anglab yetdi, kashfiyotlar va ixtiolar sababchisi bo‘ldi. Ilm-fanning qo‘li osmonlarga yetdi. Ammo barcha muammolarning ham yechimi topilgani yo‘q. Mana shunday muammolarning biri tushdir. Bu haqida turli nazariyalar bor bo‘lsa-da, biz ularning barchasini qabul ham, rad ham qila olmaymiz. Xalq orasida tushni kelajakka ishora, xavf-u xatardan ogohlantirish deb bilsa, tibbiyat bu haqida bir qancha nazariyalar yaratdi. Masalan, ma’lum bo‘lishicha, odam miyasi uqlab yotganida uyg‘oqlik vaqtidan ham ko‘ra kuchliroq ishlar ekan. Unda tushning nima keragi bor? Sababi shundaki, odam

⁸⁸ Қобул Н. Жоҳиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 142.

uyg‘oqlik vaqtida uning butun fikr-u zikri kunduzgi muammolar bilan band bo‘ladi, shuning uchun barcha muammolarni batafsil hal qilib chiqishining iloji bo‘lmaydi. Hal qilinmay qolib ketgan muammolar esa miyaning zaxira nuqtalarida o‘z navbatini kutib yotadi. Uyquga ketgan zahoti odam tush ko‘ra boshlaydi. Tush miyaga kun bo‘yi yig‘ilib qoltingan ma’lumotlarni joy-joyiga qo‘yishga yordam beradi. Yoki odamning kundalik hayotida erishishga umid qilgan orzulari, fikr-o‘ylari ko‘pincha tushida amalga oshadi.

Yirik psixologpsixiatr olim Zigmund Freyd ta’rificha, tush – bu, ro‘yobga chiqishga intilayotgan g‘ayri ixtiyoriylik tomonga yo‘nalgan shohona yo‘ldir. Albatta, biz bu psixologik nazariyalar bilan har bir yozuvchi tanish, shu sababdan asarda bu uslubdan keng foydalanadi deya olmaymiz.

G‘arb faylasuflari bu borada ancha yaxshi natijalarga erishdi. Xususan, Z.Freydnинг “Tush ta’biri” asaridagi nazariyalar ancha mukammal edi. Erix From esa Z.Freyd falsafalarini qo‘llab quvvatlab shunday deydi: Oxirgi yuz yillikda tushlar haqidagi tasavvurlar keskin o‘zgardi. Tushlar ta’biri xurofotga tenglashtirilib, o‘qimishli odamlar – olim bo‘ladimi-yo‘qmi, ularga ishonmay qo‘ydi. Tushlar shunchaki miyaning ma’no va mazmunsiz bir faoliyati, nari borsa jismimiz sezgisiga javoban miya faoliyatining reaksiyasi, deb hisoblanmoqda. Faqat XX asrga kelib Freyd tushlar haqidagi oldingi tasavvurlarni to‘g‘ri, deb tasdiqladi va unga ko‘ra tushlar ma’no-mohiyatga ega: ichki olamimizda muhim bo‘lмаган narsalarni aks ettirmaydi, ta’birini to‘g‘ri topsak, ma’no va mohiyatiga yetib boramiz. Tush ta’biri bu – via reregia (lot. Podsholar yo‘li) bo‘lib ongimizdagи anglashilmagan fikrlarni, potologik va normal holatimizdagи xattiharakatlarimizga kuchli turtki bo‘lgan sabablarni tushunishimizdagи bosh yo‘ldir. Freyd nafaqat tush xususiyatlarini aniqlab berdi, balki sabab sabot-matonat va qat’iyat bilan tush haqidagi qadimiy tasavvurni tikladi⁸⁹.

Freydnинг fikricha, tushning asosiy belgisi uning niqobida va ongsiz istaklarning buzuq holda ko‘rinishida. Ana shunda uyqu oromidan mahrum bo‘lmaymiz. Bunday tasavvur Freydning ramzlar ahamiyatini tushunishga jiddiy

⁸⁹ Эрих Фромм. Инсон қалби. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – Б. 58-59.

ta'sir qildi. Uning fikricha, ramzlarning asosiy vazifasini tushunishga aynan shu tushuncha yordam beradi. Ramzlarning vazifasi yashirin istak-xohishlarni niqoblash va buzib ko'rsatishdan iborat. Ramzlar tili qandaydir "sirli kod", tush ta'biri esa uni yechish usulidir⁹⁰.

Badiiy asar qahramonlarining tushini o'rganar ekanmiz bevosita ruh va borliq masalasiga e'tibor qaratish kerak. Chunki badiiy asar inson ruhini kamolga yetkazuvchi vosita. Inson borliqni tushda turli ramzlar va allegorik belgilar yordamida ko'radi va bu uslub badiiy adabiyotda yetakchidir. Jabbor Eshonqul o'zining "Folkorda tush talqini" monografiyasida g'arb olimlarining fikrlariga qo'shilib ong osti olamni mif deb ataydi: ...ong osti hislari, ongga qalqib chiqmagan, lekin inson ruhiyatida doimo mavjud, tashqi dunyo bilan tinimsiz aloqa qilib turuvchi hislar. Bu hislar inson harakati, ruhiyatining asosini tashkil etadi. Garchi gapirayotgan gaplarimiz, fikrlarimiz, o'zimizni tutish va holatlarimiz bizga anglangan, ma'lum bir mantiqqa bo'ysunganday tuyulsa-da, ammo shu hislarni yuzaga chiqaruvchi, ushbu tushunchalarga turtki beruvchi asosiy narsa ong osti hislaridir...

Shu bilan birga, G'arb faylasufi K.Yungning fikrini keltirib o'tadi: "Hozirgi odam fan va texnikaga sarflayotgan ijodiy qudratini qadimda ajdodlarimiz mifni yaratishga sarflagan edi", – degan xulosani keltirib chiqarar ekan tushni ham mif deb hisoblaydi.

Shunday ekan, tush – bu mistifikatsiya mahsuli va biz bunga bir qator tarixiy asoslarni keltirishimiz mumkin.

– Filipp Makedonskiyning xotini homiladorlik paytida shunday tush ko'rdi: go'yo eri uning qorniga sher tasviri tushirilgan tamg'a bosgan emish. Filippning merosxo'ri jasur, qo'rqmas bo'ladi va sher kabi hammaning ustidan g'alaba qiladi, deb ta'birladilar. Dunyoga kelgan Aleksandr bu ta'biri oqladi.

– Yuliy Sezarning xotini tushida erining senatda o'ldirilishini ko'rdi. Buni eriga aytdi. Lekin Yuliy Sezar bunga e'tibor bermadi va senatga bordi. U o'sha yerda o'ldirildi.

⁹⁰ Эрих Фромм. Инсон қалби. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – Б. 96-97.

– Taxt merosxo‘ri Pavel tushida o‘zini qandaydir buyuk kuch tobora tepaga ko‘tarib borayotganini ko‘rdi. Kelgusi kuni esa Yekaterina II ning to‘satdan vafot etganini eshitdi. Taxtga o‘tirib imperator bo‘ldi. Shunda tushlar karomatli bo‘lishiga tan berdi.

– Mendelyevga ham uning davriy jadvali tushida ayon bo‘lgan edi. Tushlar ana shunday hayotiy asosga ega bo‘lib, u ko‘p vaqt o‘z isbotini topgandir.

Badiiy asarda tush motivini xalq og‘zaki ijodidan tortib bugungi modern adabiyot namunalarida ham uchratish mumkin. Jahon adabiyotida ko‘pgina asarlarda ham tush motivining mavjudligi bu uslubning zamon va makon tanlamasligini anglatadi.

Avvalo sabab nimada? Sabab – tush motivining realligidir. Chunki inson shunchalik murakkab xilqatki, u o‘zi anglab yetmagan hodisalarga e’tiqod qo‘yadilar.

Tush ham xoh hayotiy asosga, xoh umuman ishonchhsiz bo‘lsin – qahramonlar unga ishonadilar. Badiiy asar qahramonlarining ham ko‘rgan tushi shu qadar ishonarliki, bu kitobxon qiziqishini orttiradi. Ishonchini oshirib, asar kayfiyatiga tushiradi. Bundan tashqari, muallifni bayonchilikdan qutqarib, kitobxonni asar kulminatsiyasiga tayyorlaydi. Asar pafosini belgilaydi. Qisqa qilib aytganda, kitobxon qahramon tushi orqali o‘zi orqali ssenariy kashf qiladi va o‘z bashoratining taqdiriga qiziqadi.

Yuqorida aytganimizdek, tush inson ruhiyati bilan bog‘liq bo‘lgan jarayondir. Ba’zi hodisalarga oldindan ishora berib, ogohlantiradi. Badiiy asar qahramoni ham turli vaziyatlar, sarguzashtlarni boshidan kechiradi, konfliktlarga duch keladi. Shunday ekan, obrazlarning ko‘rgan tushlari ham asar syujetiga ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi. Ba’zida biz ilg‘amagan bu kichik motiv katta ahamiyat kasb etadi.

Sharq azaldan turli asotirlar, rivoyatlar, qissa-yu dostonlarga boy bo‘lgan. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida mubolag‘aviylikka asoslangan syujet, favqulodda xususiyatlarga ega bo‘lgan qahramonlar to‘g‘risidagi qissalar-u dostonlarga qiziqish kuchli bo‘lgan. Islomgacha bo‘lgan davrda Markaziy Osiyoda moniylik,

shomoniylig, buddaviylik, otashparastlik kabi dinlar mavjud edi. Insonlar o‘z ilohlariga sig‘ingan, tabiat hodisalaridan qo‘rqib o‘z ilohlariga e’tiqod qo‘yanlar. Lekin o‘sha davrda ham ular o‘z tushlariga ishonganlar va o‘zlaricha ta’bir qilganlar.

Xalq ertaklarida ham tush talqini yetakchi bo‘lib bu motiv safar bilan parallel ketadi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, ko‘plab ertaklar va dostonlar sarguzashtlikka quriladi. Qahramonlar uzoq safarga otlanadi va qiyinchiliklarni yengib murod-maqsadiga yetadilar. Ularning safarga chiqishiga turtki ko‘pincha qahramonlar ko‘rgan tushlar bo‘lib chiqadi. Tush orqali ularga kelajak bashorati beriladi va ular bunga befarq bo‘lmaydilar.

Bizga ma’lumki, xalq dostonlari ertaklardagi kabi g‘aroyib voqealar ustiga qurilgan bo‘ladi. Undagi qahramonlar oddiy insonlardan farq qiladigan, favqulodda xususiyatlarga ega bo‘lgan, eng muhimi zimmasida “katta yuki”, ya’ni missiyaga ega bo‘lgan insonlar bo‘ladi. Chunki ular xalqningadolat, saxovat, birdamlik kabi umidlarini jamlagan xalq ideallaridir. “Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” kabi dostonlarda ham qahramonlarning ko‘rgan tushlari ularning hayotlariga ta’sir etmay qo‘ymaydi.

Qahramonlarning bu kabi sirli tushlarini mumtoz adabiyot namunalarida ham uchratish mumkin. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostoni bizgacha to‘liq yetib kelgan turkiy tilda bitilgan didaktik dostondir. Asar to‘rt ramz ustiga qurilgan bo‘lib uning mohiyatidaadolatli hukmdor qanday bo‘lishi kerakligi, buning uchun unga kim va nimalar kerakligi, nimalar kerak emasligi aytib o‘tiladi. Dostondagi to‘rt qahramon Kuntug‘mish (adolat), Oyto‘ldi (davlat), O‘gdulmish (aql va bilim), O‘zg‘urmish (qanoat) kabi timsollar vositasida komillikni kashf etib boramiz. Mazkur ramzlar vositasida ochib boriladigan masala va muammolar yechimi, pand-nasihat esa bugungi kun uchun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Asar so‘ngida O‘zg‘urmish betob bo‘lib qoladi va bemor ziyyaratiga kelgan O‘gdulmishga tush ko‘rganligini aytadi:

*...Shoti ko‘rdim, ellik uning poyasi,
O‘zi tik, baland va uzun soyasi.*

*Chiqib bordim unga bosib birma-bir,
To oxir sanadim o'zi nechtadir.*

*Tepada suv tutadi bir otliq odam,
Olib ichdim-u, men qoniqdim biram.*

*Keyin ko'kka uchdim havolab, ishon,
Ko'rinmay qolibdi o'zimdan nishon.*

- Bu tushing juda foydali, – dedi O'gdulmish. Balandga chiqish – saodat. Ko'tarilish – omad. Tushda ko'tarilsa, davlat keladi, obro' oshib, hurmating ortadi. Shotiga chiqqandek omading yuksaladi.

*Shoti tush ko'ravchi uchun bir omad,
Zina hatlamoq ham berar saodat.*

*Ko'tarilsa qancha oshar izzati,
Yetishadi unga sevinch va rohat.*

*Idishdag'i suvni olib ichganing,
Uzoq yil yashamoq qutin quchganing.*

*Sening ko'kka tomon uchib bormog'ing,
Omad sari dadil qadam urmog'ing.*

Ammo O'zg'urmish tushining bunday ta'bir qilinishidan qanoat topmaydi. Bu tush tamomila boshqacha yo'rilishi kerak, – dedi u. Sen aytgan ta'birlar mening tushimga aloqador emas. Agar bu tushni sen ko'rganingda edi, o'sha ta'birlar mutlaqo to'g'ri bo'lar edi. Chunki sening himmating hammanikidan ko'ra ancha baland, senga o'xshagan odamlar o'z tilagan tilaklarini to'liq topishadi.

Men-chi? Yo'q, men tamomila boshqacha odamman. O'zim bu dunyo ishlarini bir chetga surib, o'zimni ulardan olib qochdim. Mana shu tog'-u toshlar

orasida alamlarga to‘yib yuribman. Mana shu aytilganlarni e’tiborda tutsak, sen bu tushni menga moslab yo‘rmading. Endi eshit, bu tushning ta’birini o‘zim aytib berayin:

*Tushimda ko ‘rgan o ‘sha bir shoti,
Mening ta ’birimda – yigit hayoti.*

*Shotining boshiga chiqib borganim,
Yoshimni tugatdim, nasibam yedim.*

*Tepamga yetishdi bir otliq kelib,
Men ichdim u bergen suvini olib.*

*U shunday sipohiy erur, azizim,
Nomimni o ‘chirar, quritar izim.*

*Idishdagi suvni ichishim tugal,
Tirikllik, – deding sen, – uzun yoshga hal!*

*O ‘zing aytganingdek, tiriklik shu suv,
Agar yarmi qolsa ichilmay, yohu!*

*Yarim suv ichilib, qolarkan yarim,
Yarim qolgay edi tirikliklarim.*

*Idishdagi suvni ichibman tugal,
Tiriklik tugadi, axir, bu mahal.*

*Bu tushning ta ’biri shu yanglig’, og ‘a,
Bo ‘lakcha ta ’birning hojati nega?...⁹¹*

⁹¹ Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Bayoz, 2014. – B.138-139-140.

Keltirilgan parchada O‘zg‘urmish o‘zi ko‘rgan tushni O‘gdulmishga aytar ekan uning ta’biriga mutlaqo qarshi chiqadi. Ijobiy yo‘rilgan ta’birdan qochadi va o‘limni haq deb biladi. E’tiborlisi shundaki, tush ko‘rgan insonning ijtimoiy holati ham muhim ekanligini aytib o‘tadi:

– Sen aytgan ta’birlar mening tushimga aloqador emas. Agar bu tushni sen ko‘rganingda edi, o‘sha ta’birlar mutlaqo to‘g‘ri bo‘lar edi. Chunki sening himmating hammanikidan ko‘ra ancha baland, senga o‘xshagan odamlar o‘z tilagan tilaklarini to‘liq topishadi.

Mazkur parchadan shu narsa anglashiladiki, zohid odamning istagi martaba emas, haqning dargohidir. Martaba faqat aql egalari uchun xos. Tushning ta’biri u ko‘rgan insonning ijtimoiy holatiga bog‘liq ekanligini “Shohnoma”da ham uchratamiz. Xususan, Afrosiyobning tushidagi “biyobon to‘la ilon”ni olsak, bu hukmdorlar uchun dushman va yovdir. Ammo oddiy xalq uchun turkiylarda bu boylik sanaladi.

Umuman, bu tushda ramz bilan bog‘liq tushunchalar bisyor. Muallifning ham yoshi ellikka kirilganda yozilgan bu dostonda narvonning poyasi ham ellik ekanligi g‘ayritabiyy. Muallif ham asar boshida o‘limning haq ekanligini tan olsa, O‘zg‘urmish tilidan bu fikrlarini mustahkamlaydi. Suvni obi hayot deb tashbehlash barobarida tushda ham inson umriga mengzalmoqda. Va aytadiki, men suvning hammasini ichib qo‘ydim, demak, vafotim yaqin deb xotirjam izoh beradi. Bir kundan so‘ng uni ko‘rgani borgan O‘gdulmish bu fikrlarining tasdig‘ini topdi. U vafot etgan edi.

Durbekning “Yusuf va Zulayho”⁹² dostonida ham bir necha tush sahnalarini kuzatishimiz mumkin. Dostonning ilk sahifalarida Yusufning tush ko‘rishini va tush ta’birini bilgan otasi Ya’qub tushini zinhor akalariga aytmaslikni tayinlaydi. Yusuf yoshligiga borib tushini akalariga aytadi va ular tomonidan avval chohga tashlanib, so‘ng sotib yuboriladi. Lekin doston yakuniga qadar tush ta’biri amalga oshib Yusuf Misr shohi bo‘ladi. Bu tushdan tashqari Moliki tojir ham chohdagi Yusufdan tush orqali xabar topadi, Zulayho ham Yusufni tush orqali taniydi. Misr

⁹² Уч булбул гулшани. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.

zindonida yotgan Yusufning yonidagi zindonband vazirlar Soqi bilan Xabboz ham, Misr podshohi ham tush ko‘radi. Ular ko‘rgan tushlarni Yusuf to‘g‘ri ta’bir qilib beradi. Yusuf podshoh ko‘rgan tushni to‘g‘ri ta’bir qilishi natijasida Misr xalqini ocharchilik damlarda qiynalmasligiga erishadi.

Yozma adabiyot vujudga kelibdiki hamisha xalq og‘zaki ijodidan oziqlanib keladi. Shu jumladan, Navoiy asarlarida ham qahramonlar taqdirining tush orqali namoyon bo‘lishi fikrimiz isboti. “Xamsa”ning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” kabi ishqiy dostonlarida ilohiy muhabbat tarannumi mavjud. Mazkur doston qahramonlari ham asarda bir necha bor tush ko‘radi. Lekin, avvalo, Navoiyni tasavvuf ijodkori deb qabul qilsak, bu boradagi xalq og‘zaki ijodi va “Xamsa” dostonlaridan bir qancha farq va umumlashmalar borligini anglaymiz.

“Layli va Majnun”, “Sab’ayi sayyor” dostonlarida ham tush motivi orqali bir qancha masalalar o‘z yechimini topgan. Ayniqsa, “Sab’ayi sayyor” dostonida sarguzasht va tush motivi yetakchilik qiladi. Personajlarning aksariyati o‘z taqdirini izlab safarga otlanar ekan, o‘zлari ko‘rgan tushlarini alomat deb biladi. Kun botish va Kun chiqish adabiyotida tush motivi yetakchi omil bo‘lib qahramon psixologiyasini ochish va tinglovchiga hissiy ta’sir ko‘rsatish uchun muhim vositadir. Masalan, “Alkimyogar”⁹³ qahramoni Santiago ham o‘z tushiga ishonib musofir bo‘ladi. Chunki tush inson ruhiyatining mahsuli bo‘lib oramizdan unga ishonmaydigan, ta’biri bilan qiziqmaydigan odamni topa olmaymiz. Asar qahramonlari ham tushni ro‘yo deb emas, ishora deb biladi. Shu bilan birga ruh va jism, moddiyat va mohiyat muammolari ham ochilib borilaveradi.

Yuqorida ko‘rib o‘tganlarimizdan ma’lumki, mumtoz adabiyot ham, zamонавијада adabiyot ham xalq og‘zaki ijodi namunalaridan oziqlanib kelgan va kelmoqda. Yozuvchi Nurali Qobul ham o‘z asarlarida folklor an’analaridan keng foydalangan. Hattoki, ertaklarda, dostonlarda uchraydigan tush motivini yozuvchi ijodida ham uchratamiz. Xususan, “Salom, tog‘lar” qissasida keltirilgan tush motivini misol qilib keltirishimiz mumkin. Zulayho G‘oyibnazarga turmushga chiqqach, chillasi ichida tush ko‘radi:

⁹³ Paulo Koelo. Alkimyogar. – Toshkent: Yangi asr avlodи, 2019.

– Pokiza opajon, qutqaring! Jon opajon, qutqaring, sadag‘angiz ketay, opajon! – Qorako‘z qo‘llarini dast ko‘tarib qichqirardi.

G‘oyibnazar bir zum shoshib qoldi. So‘ng tezda Qorako‘zning boshini ko‘tarib bag‘riga oldi.

- Qorako‘z! Nima bo‘ldi? Ko‘zingizni oching!
- Qo‘rqib ketdim, – dedi Qorako‘z, og‘ir nafas olar ekan.
- Nimadan? Nimadan qo‘rqdingiz?
- ...yomon tush ko‘ribman.

– Chilla vaqt shunday bo‘lar-bo‘lmas narsalar tushga kiraveradi, degandilar-ku enam, shungayam qo‘rqsizmi⁹⁴?

Tushida yig‘lab, dod-faryod solgan Zulayhoni G‘oyibnazar ovutib qo‘ya qoladi. Lekin bu tush ham yuqorida ko‘rib o‘tilgan dostonlardagi kabi qahramonning keyingi hayotiga ta’sir etmay qo‘ymadi.

Nurmon boboning sevgilisi Pokizani muzliklar bag‘riga ko‘mgani haqidagi afsonadan ta’sirlangan Zulayho tez-tez uni o‘ylar, ularning, Nurmon bobo va Pokizanining muhabbatiga havasi kelar edi. Bu haqda G‘oyibnazarga aytgan vaqtleri, “qo‘ying, taqdiringiz o‘xshamasin” deb qo‘yardi. Kunlar ketidan kunlar o‘tib, oxiri ikki yosh turmush qurdi. G‘oyibnazar aytganidek, taqdiri Nurmon bobo va Pokizalarnikiga o‘xshamadi. Sevishganlar bir-biriga yetishdi. Afsuski, sovuq urush tufayli G‘oyibnazar olisga ketdi. Zulayho hijron og‘ushida qoldi. Farzandli bo‘lgach, farzandi va G‘oyibnazarining komandiridan kelgan xat quvonchi bilan hijron azobidan qutuldi. Farzandi Otaqo‘zining kasallik tufayli vafot etishi, turmush o‘rtog‘idan xat-xabar kelmayotgani sababli Zulayho telbanamo va parishonxotir bo‘lib qoldi. Atrofidagi insonlarning suyuklisi to‘g‘risidagi fisq-u fasodlari, Zulayhoni tushunmasliklari uni odamlardan uzoqlashtirardi.

Shu o‘rinda, filologiya fanlari doktori Qahhor Yo‘lchiyevning quyidagi fikrlarini keltirishni joiz bildik: Badiiy asarning ijtimoiy hayot bilan bog‘liqligida ikki jihat doimo yetakchi bo‘lib ko‘zga tashlanadi. Birinchisi, tashqi tomondan bo‘lib, bu turli ijtimoiy-siyosiy qarashlarning asardagi voqealarga ta’siri bo‘lsa,

⁹⁴ Кобул Н. Жоҳиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 101.

ikkinchisi, ichki tomondan, ya’ni personajlarning shaxsiy kechinmalari, ruhiy holati va ularning voqealarning rivojiga ta’sirida ko‘rinadi⁹⁵. Adabiyotshunos Q.Yo‘lchiyev aytganidek, asar qahramonlarining taqdiri mana shu ikki ta’sir natijasida hal bo‘ladi. Birinchi omilga turli ijtimoiy holat, vaziyat, hodisa, ijtimoiy kelib chiqish, shaxsiy manfaat,adolat yoki adolatsizliklarni kiritishimiz mumkin. Ikkinchisiga qahramonning ruhiy-psixologik holati, o‘y-fikri va kechinmalarini kiritishimiz mumkin. Mazkur ikki omilsiz asarni tasavvur qilish mumkin ham emas.

“Salom, tog‘lar” qissasi qahramoni Zulayho taqdirini ham mana shu ikki omil – qaynonasining unga bo‘lgan munosabati, qishloq doshlarining bilib-bilmay qilgan ig‘volari, o‘zining his-tuyg‘ulari, ichki kechinmalari, ya’ni ruhiy holati – hal qildi. Asar syujetida qo‘llanilgan “hikoya ichidagi hikoya” usuli ba’zi o‘rinda voqealarni ochishga xizmat qilgan bo‘lsa, ba’zan esa personajlar ruhiyatidagi holat yuzasidan xabar berish vazifasini bajaradi. Masalan, qishloq odamlarining hikoya qilishicha, Nurmon bobo Pokizaga janoza ham o‘qitmay ko‘rinib turadigan muz bag‘riga ko‘mib qo‘yadi. Aytishlaricha, janozasi o‘qilmagan marhumlar hamisha tiriklarni eshitib turar emish. Nurmon bobo ham o‘zini doimo sevgilisi eshitib turishini, xohlagan vaqtda uni ko‘rib turishni xohlaganidan shunday qilgan emish. Zulayho bu gaplarni eshitib, ularning sevgisi haqida ko‘p o‘ylaganidan, ehtimol, chillasida shu tushni ko‘rgandir:

— Bilmadim. Pokizani ko‘ribman! U yotgan muzliklar yonarmish-u, erimas mish. Oppoq qorlar butunlay erib ketgan emish. Pokiza ham qop-qora bo‘lib qolgan emish. Gapiraman, desam, ovozim chiqmas, qora ot minib olgan Pokizaga talpinarmishman. Issiqqa chiday olmay, o‘zimni unga tomon otibman. U esa mendan tobora uzoqlasharmish⁹⁶.

Nihoyat, boshqa asarlardagi kabi tush amalga oshdi. Zulayho, xuddi, tushidagi kabi muzliklar bag‘riga o‘zini otdi va g‘arq bo‘ldi.

Bu tushda ham ma’lum ma’noda ramziyliklar bor. Oppoq qorlarning butunlay erib ketishi, muzliklarning yonishi, issiqqa chiday olmay, Zulayho o‘zini

⁹⁵ Йўлчиев К. Нурали Қобулнинг прозаик маҳорати. – Тошкент: Маърифат битиклари, 2021. – Б. 80.

⁹⁶ Қобул Н. Жоҳиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 101.

Pokiza tomonga otishi, barchasida ramziylik bor. Oppoq qorlarning erib ketishi, ya’ni oqlik, poklikning, pok tuyg‘ularning yo‘qolishi. “ – Qadaming xonadonimni barbod qildi! – dedi Toshbuvi alamini ichiga sig‘dirolmay. – Yolg‘izimning yolg‘izini xudo ko‘p ko‘rdi. Yolg‘iz qiz behosiyat bo‘ladi...”⁹⁷. Toshbuving dilni vayron qilgulik bunday gaplari sabab Zulayho ota uyiga qaytib ketishga majbur bo‘ladi. Shundoq ham bu xonadonda G‘oyibnazarning sotqinligi va vafoti haqidagi mish-mishlar hamda Otaqo‘zining vafotidan so‘ng yashash og‘irlashib borardi. Onasi Enaqiz xola ham dardini ichiga yutardi. Qizining taqdiridan kuygan Enaqiz xola ham o‘n-o‘n besh yoshga qariganday ko‘rinardi. U qizining telbanamo bo‘lib qolganidan havotirda edi. Ayollarning fisq-u fasod gaplarini eshitib borar ekan Zulayho uchun hamisha umid va quvonch ulashgan mag‘rur Oyqor ham uni bosib kelayotgandek tuyuladi: – Hamma buzuqchilik shunday jim yurgan pismiqlardan chiqadi...

- Eri sotqin bo‘lib ketgandan keyin yuradi-da. Aytganday eshitdingmi, sotqinlarni qaytib kelsayam bari bir otib tashlarmish-a?
- Sotqinlarning o‘zini aytasan, bola-chaqalarini ham qamashar emish-ku?...
- Qorako‘zning o‘g‘li bekorga o‘ldi deysanmi?...
- Voy qotil-ey! Norasida go‘dakda nima ayb deng-a?
- Endi qilib yurgan ishini qara?
- Voy, yuzingni murdasho‘y yuvgur-ey!...⁹⁸.

Bu sovuq so‘zlar Zulayhoning qulqlari ostida qolib ketdi. U ruhiy holatidan kelib chiqib tushundi. Bu dunyo uning uchun zulmatga aylanib bo‘lgan. Shuning uchun ham oppoq qorlar yo‘qoldi. Fisq-u fasodga to‘la bu hayot unga yori va farzandisiz do‘zaxdek tuyuldi. Uning qalbi, butun vujudi ayriliqlar alami va hayotning shafqatsizligidan, insonlarning insofsizligidan olov kabi yonardi. Shu sabab tushida muzliklar ham yondi.

“Yozuvchining muz ostida uxlayotgan Pokiza haqidagi afsonasi asarga romantik ruh baxsh etgan. G‘oyibnazar va Qorako‘z uchun Pokiza chin sevgi

⁹⁷ Қобул Н. Жоҳиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 134.

⁹⁸ Қобул Н. Жоҳиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 137.

timсли bo‘lib qoladi”⁹⁹. Zulayhoning taqdiri fojiali yakun topishiga yozuvchi uning eng baxtli kunlarida ishora qilib o‘tib ketgan. U necha yillar davomida suyangan, ishongan, onasidan keyingi eng mehriboni deb bilgan, uni butun borlig‘i bilan sevgan insonga turmushga chiqdi. Undan baxtli inson yo‘qdek edi go‘yo. Mana shunday kunlarning biriga yozuvchi tush motivini kiritib, kitobxonni o‘yga soladi. O‘qirman kitobxon shu ondayoq tushunadi, tushni ta’birlab tahlil qilishga tushadi. O‘zicha qahramonlar kelajagini fol ko‘radi va bu foli to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri chiqishini bilish uchun ham qissani tugatmasdan qo‘yib qo‘yolmaydi.

Yaratilgan asarning badiiyatini tashkil etishda, shakl va mazmun birligini yuzaga chiqarishda syujet va kompozitsiya masalasi har doim ham badiiylikning ko‘rinishlaridan biri deb qaralgan. Yozuvchi Nurali Qobul “Salom, tog‘lar” qissasida folklor namunalaridan juda ko‘p o‘rinda foydalangan. Xalq og‘zaki ijodiyotidagi maqollardan, matallardan, rivoyatlardan unumli foydalangan. Umuman, yozuvchi har bir asariga – hikoya, qissalariga – folklor elementlarini olib kiradi, ulardan mohirona foydalanadi. Bu qissada tush motivining qo‘llanishi ham juda o‘rinli bo‘lgan. Shu birgina tush motivi asar kulminatsiyasiga ham, yechimiga ham xizmat qilgan.

Tush motivi badiiy ijoddagi muallif ko‘zlagan maqsadga tezroq, osonroq va yengilroq yetish borasidagi qiziqarli va hayotiy uslubdir. Adabiyotshunos B.Karim aytganidek, “rivoyatlarning, miflarning, og‘zaki ijod namunalarining badiiy asarga singdirib yuborilishi umuman dunyo adabiyoti tajribalarida mavjud estetik hodisa”¹⁰⁰. Yozuvchi Nurali Qobul ham dunyo adabiyoti maydonida mavjud tajribani qissalarida qo‘llagan va bu asarlarining badiiy qiymatini oshirgan.

3.2-§. Xarakter va holat inkishofida maqol va matallarning ahamiyati

Har bir xalqning, har bir millatning o‘z milliy madaniyati va milliy tili mavjud. Uning rivojlanishi va shakllanishida adabiyotning roli kattadir. Badiiy

⁹⁹ Алимов Б. Тубсиз осмон ҳакида кўп ўйлардим. // Шарқ юлдузи. – Тошкент: 1983. № 3. – Б.180.

¹⁰⁰ Каримов Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. – Б. 23. 102

adabiyotda qahramonlar hayotini tasvirlash, o'y-kechinmalari, orzu-intilishlarini ochishda tilning ahamiyati juda muhim. O'zbek adabiyotida har bir iste'dodli yozuvchining so'zdan foydalanish mahorati va uslubi o'ziga xos. Nurali Qobul ijodining o'ziga xosligi uning asarlari tilida yaqqol ko'zga tashlanadi. Yozuvchi Tog'ay Murod kabi barcha qissalarida xalqimizda mavjud tayyor birikmalarini, ayniqsa, maqol va matallarni qo'llaydi.

Ma'lumki, xalqimiz orasida maqollar fikrni dalillash, nutqni bezash uchun ishlatilsa, ijodkorlar xalq maqollaridan yaratayotgan ijod namunalarini sayqallashda, asarni yanada ta'sirchan, tushunarli bo'lishini ta'minlash uchun ishlatilganligini kuzatish mumkin.

Shu bois, "maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiyilagini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun foydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarining diqqat markazida bo'lgan. ...ijodkorlarning asarlari sinchiklab o'rGANILSA, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba'zan aynan, ba'zan o'ZGARGAN holda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz"¹⁰¹. Maqollarda ko'p asrlik hayotiy tajribalar, kundalik kuzatishlar natijasi o'laroq tugal xulosa tarzida qat'iy fikr ifodalanadi. Bu fikr qayerda, qanday holatda ishlatilishiga qarab, ma'no doirasi doimo kengayib boradi.

Zero, "badiiy asarda maqollardan, ibratli gaplardan foydalanish asarning ifoda kuchi va realistik qudratini oshirib, fikrning obrazli bayon qilinishini ta'minlaydi"¹⁰². Yozuvchi Nurali Qobul ham maqol va matallarni ba'zan o'z holicha, ba'zan ularga o'zgartirishlar kiritib, yangilangan variantini qo'llaydi. U maqol va matallarni ba'zan o'z holicha, ba'zan voqeа mazmuniga singdirib tasvirlaydi. Shu o'rinda, maqol va matallarning farqli jihatlariga to'xtalib o'tsak. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da maqol va matalga quyidagicha ta'rif beriladi:

1. Maqol – maqola, kichik asar, so'z, nutq. Hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda, pand-nasihat mazmuniga ega bo'lgan ixcham, obrazli, tugal ma'noli va hikmatli ibora, gap¹⁰³.

¹⁰¹ O'zbek xalq maqollari. (tuzuvchilar: T.Mirzayev va b.) – Toshkent: Sharq, 2016. – B. 4.

¹⁰² Соатова Н. Шухрат адабий меросида анъана ва маҳорат. – Тошкент: VNESHINVESTPROM, 2022.

– B.122

¹⁰³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: О'zbekiston, 2020. – B. 568.

2. Matal – tugal ma’no ifodalamaydigan obrazli ibora, hikmatli so‘z (“qizil qor yoqqanda”, “tuyaning dumi yerga tekkanda”)¹⁰⁴.

Ko‘rib turganimizdek, matallar tugal bo‘lmaydi, ularni to‘ldirish mumkin. Qizil qor yoqqanda boraman (hech qachon bormayman), tuyaning dumi yerga tekkanda bajaramiz (bajarmayman) kabi.

Yozuvchi, asosan, biror voqeа tafsilini berib yoki berishdan oldin bu voqeadan chiqadigan hukm-xulosasini xalq maqollari yoki hikmatli so‘zlar orqali bayon qiladi. “Uzoqning donidan yaqinning somoni yaxshi” maqolini ham voqeа tafsilidan so‘ng xulosa chiqarish uchun bergen. “Salom, tog‘lar” qissasi qahramoni Zulayho “Agar siz hayot bo‘lganingizda hech qachon, hatto hayit kunlarida ham, “ahvoling qanday”, demaydigan tog‘amning xotini uyimizga kelib, enam bechorani bunchalik qiynab, menga chovut solmasmidi, otajon?” – deb xayolan o‘z otasi bilan dardlashadi. Shunda otasi yuqoridagi maqolni keltirib, “oqibatsiz qarindoshdan begona bo‘lsa ham qo‘shti ma’qul”, – deb aytadi. “Obro‘ oshdan, janjal qarindoshdan”¹⁰⁵ maqoli ham shu qarindoshlik munosabatlarini yoritish uchun ishlatilgan. Qissada qo‘llanilgan “Uzoqning donidan yaqinning somoni yaxshi” maqolining xalqimiz orasida bir qancha variantlari mavjud:

1.Uzoqning bug‘doyidan

Yaqinning somoni afzal.

2.Uzoqning palovidan

Yaqinning sho‘rvasi yaxshi.

3.Uzoqning uzunidan

Yaqinning kaltasi yaxshi¹⁰⁶.

Yozuvchi qissalarida maqollar ba’zan muallif yoki hikoyachi tilidan, ko‘pincha personajlar tilidan beriladi.

Qissalarida muallif yoki hikoyachi nutqi bilan aytildigan maqollarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin.

¹⁰⁴ Shu kitob. – B. 554

¹⁰⁵ Қобул Н. Жоҳиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 55.

¹⁰⁶ O’zbek xalq maqollari. (tuzuvchilar: T.Mirzayev va b.) – Toshkent: Sharq, 2016. – B. 450.

“Tantanadan keyingi kun” qissasiga epigraf qilib Chexovning fikri va xalq maqolini keltirgan. Oltmishgacha orqangga qara... Oltmishdan oshgan otadan osh so‘rama kabi. Shu o‘rinda xalq maqollarini asarlariga epigraf qilib kiritish borasida Abdulla Qahhorning mahoratini tan olib o‘tishimiz lozim. Keyingi avlod vakillari, ehtimol, bu borada o‘zlariga adibni ustoz deb bilar. Abdulla Qahhor o‘z asarlarida eng ko‘p xalq donishmandligi mahsuli bo‘lmish maqollardan foydalangan ijodkorlardan biri. U asar nomi, epigrafi, boshlanish abzaslari, tarkibi yoki xulosa qismida maqollarni ishlatib asar mazmundorligini oshirgan. Masalan, Qahhorning “Ikki yorti bir butun” hikoyasining nomi maqol. Bundan tashqari, barchaga birdek ma’lum bo‘lgan mashhur “Bemor” (epigrafi: “Osmon yiroq, yer qattiq”), “O‘g‘ri” (epigrafi: “Otning o‘limi, itning bayrami”), “To‘yda a’za” (epigrafi: tojikcha “Zori behuda miyon meshikand”), “Bashorat” (epigrafi: “Ola qarg‘a qag‘ etadi, o‘z ko‘nglini shod etadi”) kabi hikoyalarining epigraflari ham xalq maqollaridan olingan.

“O‘g‘ri” hikoyasining tarkibida epigrafidan tashqari “Begim deguncha belim sinadi”, “Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi”, “Berganga bitta ham ko‘p, olganga o‘nta ham oz”, “Quruq qoshiq og‘iz yirtadi”, “O‘ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan”¹⁰⁷ kabi bir qancha xalq maqollaridan unumli va o‘rinli foydalangan. Qahhor xalq maqollarini bu o‘rinlarda hech qanday o‘zgartirishlarsiz qo‘llagan. Nurali Qobul esa ko‘p hollarda ularga o‘zgartirish kiritadi (keyingi o‘rinlarda ko‘rib o‘tamiz).

“Tantanadan keyingi kun” qissasining boshlanishi ham xalq maqollari bilan boshlanadi: Otadoshim omon bo‘lsin. O‘chog‘idan o‘t bermasayam, dog‘i dardini ko‘rsatmasin...

Jigar dardi olmosdir. Kuymaganga qo‘ymasdir... Negadir keyingi paytda Do‘ltayev Sanam amma takrorlaydigan shu gaplarni beixtiyor ko‘p eslaydigan bo‘lib qoldi¹⁰⁸.

¹⁰⁷ Qahhor A. Anor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2012.

¹⁰⁸ Қобул Н. Кечиккан турнадар. – Тошкент: Tafakkur, 2015. – Б. 37. (Bunday keyingi iqtiboslar ham shu kitobdan olinadi va qavs ichida beti beriladi).

Yozuvchi “Tantanadan keyingi kun” qissasi qahramoni Xoltoyevga ta’rif berar ekan, “Betimning qattig‘i – jonimning huzuri naqliga amal qilib, ishi g‘irib, oshig‘i olchi tushib yurgan Xoltoyev ichi kuyayotgan xona sohibining qo‘li qaltirayotganini sezmay qolmadi” (56-b.). Ko‘rinib turganidek, bu o‘rinda yozuvchi asar qahramoni Xoltoyevning xarakterini ochib berish uchun “betimning qattig‘i – jonimning huzuri” maqolidan foydalangan. Yana shu qissada qahramon Do‘ltayevning og‘aynisi xarakterini ochib berish maqsadida xalq maqollariga murojaat qiladi: “Og‘aynisi tabiatan to‘g‘riso‘z, fikrini ochiq aytadigan, boshiga qilich kelsa ham fikridan qaytmaydigan, nomardning oshidan mardning mushtini afzal ko‘radigan odam” (67-b.). Bu o‘rinda “Boshingga qilich kelsa ham, rost so‘zla”, “Nomardning oshidan mardning mushti afzal” kabi maqollardan foydalangan. “Boshingga qilich kelsa ham, rost so‘zla” maqolini “boshiga qilich kelsa ham fikridan qaytmaydigan” deb o‘zgartirgan holda qo‘llagan. Do‘ltayevning ishdan bo‘shagandan keyingi ahvolini, xonadonini tasvirlash uchun ham muallif xalq maqollaridan foydalangan. Ularga ayrim o‘zgartirishlar kiritgan: Har yigitning o‘choqboshisisov bo‘lsa, ishi dov bo‘ladi, der edi rahmatli onasi... Ha, dunyoyi qo‘tir. Afsusu armon degan tepaning ustiga chiqib o‘tir... Yo‘li uzunning qo‘li uzun deyishardi. Endi esa tili uzunning qo‘li uzun bo‘lib qoldi chog‘i (93-94-betlar).

Asar qahramoni Do‘ltayevning “Tiko”ni tuzatish uchun Toshkentga borgandagi holatini yoritish, o‘sha vaqtdagi ruhiyatini ochib berish sahnasida ham maqollarga murojaat qiladi: Mehmon bo‘lsang mushtday bo‘l, uchib o‘tgan qushday bo‘l deganday bir kecha katta, bir kecha kichik qizinikida tunadi. Shunaqa ekan, o‘zingnikini o‘ynab, o‘g‘lingnikini o‘ylab, qizingnikini qiynalib yer ekansan (125-b.). “Mehmon bo‘lsang mushtday bo‘l, Uchib o‘tgan qushday bo‘l” maqoli “Mehmon kelsa uchtakkina, Uchib ketsa qushdakkina”¹⁰⁹ shaklida ham xalqimiz orasida ishlataladi. Bu maqol mehmon o‘z o‘rnini bilishi kerakligiga ishora sifatida ishlataladi. Mehmon bo‘lib borgan xonadonda uzoq vaqt qolish ham hurmating

¹⁰⁹ O‘zbek xalq maqollari. (tuzuvchilar: T.Mirzayev va b.) – Toshkent: Sharq, 2016. – B. 206.

yo'qolishiga olib kelishi mumkinligiga ishora qilib, "uchib o'tgan qushday bo'l" deydi xalqimiz.

Yozuvchi yetimlikda zoriqib, har kimning yuziga termulib o'sgan qahramoni Do'ltayevni tasvirlar, u haqida fikr bildirar ekan xalq maqollarini ba'zan o'z holicha, ba'zan o'zgartirib qo'llaydi. "Enasi rahmatli bejizga ochning ongi, to'qning mungi bo'lmas deya ko'p takrorlamas ekan o'sha vaqtida.

Kambag'alning uyida qatiq ivimas degandek, muhtojlik, mutelik va qo'li kaltalikda o'sgan kishining tepasi o'yiq bo'larkan.

...Ko'cha to'la ming kishi, kim bilan kimning ishi, har kimning o'z tashvishi. Xudo deginki, ishing o'ttiz bo'lganda egasi to'qqiz qilmasin" (131-b.).

Xullas, "Tantanadan keyingi kun" qissasining har bir sahifasidan istagancha xalq maqollarini topishingiz mumkin. Yozuvchining boshqa ko'plab qissalarida ham xuddi shunday holga duch kelamiz.

Nurali Qobul qissalarini mutolaa qilar ekansiz, eng ko'p maqol va matallarni asar qahramonlari tilidan o'qiysiz.

Birinchidan, maqol va matallarni ishlata digan kishilar ko'pincha katta hayot tajribasiga ega kishilar. Ana shunday katta hayot tajribasiga ega obrazlardan biri bu yozuvchi qissalarining deyarli barchasida uchraydigan sayyor obraz – ena obrazidir. Masalan, "Johillik va qotillik" qissassi qahramoni ena ana shunday obrazlardan biri. Ena asar qahramoni Suyunboyga nasihat qiladi: – Et bilan tirnoqni ajratib bo'lmaydi. Rahmatli amakivachchamdan qolgan bitta-yu bitta yodgorsan...

– Men ham nasihatingizni olay deb kelaman-da... Qishloqda o'zi sizdan boshqa aqli hushi joyida odam yo'q, – dedi Suyunboy.

– Bu gaping noto'g'ri. Ayrilganni ayiq yer, bo'linganni bo'ri yer deydilar. Yerdan ajrasang ham eldan ajrama. Odamning dardini odam olganidek, insonning tobutini inson ko'taradi...

– Kunimiz bitib o'lsak bir gap bo'lar. O'lganidan keyin xoh ko'mishsin, xoh pishirib yeyishsin.

– Kofirning gapini gapirma! Yaxshi niyat – yarim davlat! Undan ko‘ra xudodan rizq-ro‘z, bola-chaqangning baxtini tila¹¹⁰!

Suyunboy va ena obrazlari o‘rtasidagi shu kichik bir dialogda muallif “Et bilan tirnojni ajratib bo‘lmaydi”, “Ayrilganni ayiq yer, bo‘linganni bo‘ri yer”, “Yerdan ajrasang ham eldan ajrama”, “Odamning dardini odam oladi”, “Yaxshi niyat – yarim davlat” kabi bir qancha maqollardan foydalangan. Inson inson bilan tirikligi, eldan ajramasligi kerakligini, yaxshi niyat bilan yashash kerakligini maqollar yordamida uqtirib ketadi. Umuman, bu qissa qahramonlari – ena va Suyunboy ham voqealar davomida xalq maqollaridan juda ko‘p o‘rinda foydalanadi.

“Sangzor” qissasida ham bola tilidan enasi aytadigan maqolni keltiradi: Nega enam bunday dedilar? Nega birov larga o‘lim tiladilar? Axir, doimo o‘zлari: Birovga o‘lim tilaguncha, o‘zingga umr tila, – derdilar-ku¹¹¹!

Ikkinchidan, maqol va matallar aksariyat xarakterning monologi, o‘y-xayollarida, ba’zan dialoglarda ko‘zga tashlanadi. Misol uchun, “Qulon quduqqa qulasa” asari qahramoni domla Normat Abdullayev ham suhbatdoshlariga fikrini maqollar orqali yetkazib beradigan obraz. Nurmomalik bilan suhbatlashish jarayonida bir qancha xalq maqollariga murojaat qiladi: Xalq bejizga “O‘zgalar ustidan kulma, sening ham ustingdan kulguvchilar bor”, demaydi... Odam yomon kunni ko‘rmay, yaxshi kunning qadriga, yomon odamni ko‘rmay, yaxshining qadriga yetmas ekan... Azaldan shunday ekan. Savobning tagi teshik¹¹². Yozuvchining mahorati shundaki, keltirilgan maqollar saralangan, to’g‘ri tanlangan.

Shu asar qahramonlaridan yana biri, iqtisodchi olim Qurbon Qo‘ng‘irovich ham nutqiga maqol aralashtirmasdan gapirmaydiganlardan: – Domlaning aytganini qilu, qilganini qilma degandek, shoir deganing yozaveradi, ashulachi zoti aytaveradi-da... Shoshgan o‘rdak ham boshi bilan sho‘ng‘iydi, ham dumি bilan. Yetti emas, o‘n yetti o‘lchab bir kesmoq kerak. Bildingmi? Borning boshi og‘riydi, yo‘qning esa qorni... Tilning uzuni dalolga kerak... Eshakni maqta-yu, otingni

¹¹⁰ Қобул Н. Жоҳиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 7.

¹¹¹ Қобул Н. Жоҳиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 150.

¹¹² Қобул Н. Кечиккан турналар. – Тошкент: Tafakkur, 2015. – Б. 175.

minaver. Ularning orqasiga tepu, qornini to‘yg‘az. Och o‘ldirma to‘q o‘ldir, qish o‘ldirma yoz o‘ldir... (187-b.). Qurbon Qo‘ng‘irovichning Bo‘ltakov bilan suhbatidan kichik parcha. Birgina dialogning o‘zida shuncha xalq naqlidan foydalangan qahramonimizning asar davomida ishlatgan maqollarini tasavvur qilavering. Qissa davomida ayol kishi uchun “Er bermoq jon bermoq” maqoli ham shu qahramon tilidan aytildi. Kultoyev ham bu borada domladan qolishmaydigan obraz. U ham Qurbon Qo‘ng‘irovich kabi xalq maqollaridan unumli foydalanadi:

– Kir yuvgan kuni bitdan, kalla solgan kuni itdan, o‘lgan kuni domladan qutulamiz, – derdi u Qo‘ng‘iriyning ortidan jig‘i-biyron bo‘lib. – Oshni ko‘z, oshnani ko‘ngil taniydi deydilar. Oshnamizning ko‘ngillariga qaraymiz-da. So‘kkanylari so‘koshi (190-b.).

Uchinchidan, maqol va matal qahramonning xarakter qiyofasini (bilimi, didi, dunyoqarashi, fe’l-atvori, yurish-turishini) ko‘rsatishga xizmat qilgan. Masalan, “Tantanadan keyingi kun” qissasi qahramoni Xidir Xoltoev Do‘ltayev bilan bo‘lgan suhbatida bir qancha xalq maqollarini misol qilib keltiradi: Hayot shunaqa, jo‘ra. Otam aytganidek, oson joyda osh qayda?.. Odam zotiga ishonch qolmadi. Keting burildimi, sotishadi. Bir onang do‘st, bir tanang do‘st deganlari to‘g‘ri ekan... Kambag‘alni bir to‘ygani boyigani deganday ochni to‘ydirsa bo‘ladi. Och bechora bir burda nonga qanoat qiladi. Hay-hay bu katta oxurdan yem yeb o‘rgangan nafsi o‘pqonlar-a? Eshak eshakdan ortda qolsa qulog‘ini kesgandek, otdan qolma baytalim deb, olish va yutish musobaqasida bir-birlariga pand bermasalar uyqulari kelmaydi¹¹³. Shuningdek, Xoltoev Do‘ltayevga: Buzoqning qochgani somonxonagacha. Indamagin kalga o‘zi kelar holga degan naqlga amal qilib sukut saqlaymiz – deydi (68-b.). Ko‘rinib turganidek, qahramonimiz Xoltoevni muallif har bir nutqiga maqol aralashtiradigan, har bir fikrini maqollar bilan dalillaydigan obraz qilib yaratgan. Do‘ltayev ham bu borada Xoltoyevdan qolishmaydigan obraz, u ham nutqida xalq maqollaridan ko‘p foydalanadi. “Jo‘qchilik jo‘martti jig‘adi”, “Ko‘rmaganning ko‘rgani qursin”, “Obro‘ oshdan,

¹¹³ Қобул Н. Кечиккан турналар. – Тошкент: Tafakkur, 2015. – B. 51.

janjal qarindoshdan”, “Er qarisa erki ketar, xotin qarisa ko‘rki...” va h.k. maqollar Do‘ltayev tilidan aytildi.

To‘rtinchidan, qahramon tilidan berilayotgan maqollar uning o‘ziga yoki o‘zga xarakterga bergan tavsifnomaday taassurot qoldiradi. Misol uchun, “Salom, tog‘lar” qissasida ham ko‘p o‘rinlarda xalq maqollariga duch kelamiz. Zulayhoning onasi Enaqiz xola “Goh-gohida: “O‘g‘li yo‘qning o‘rni yo‘q”, deb qo‘yadi. G‘oyibnazarning onasi esa o‘g‘lidan noligan paytlarda: “Qizi yo‘qning qadri yo‘q”, deydi. Ikkisining gapi ham to‘g‘ri...”¹¹⁴.

Ko‘rib o‘tganimizdek, har ikki ona ham o‘zlariga xalq maqollari orqali ta’rif beryapti. Yana qissa davomida G‘oyibnazar urushga ketish arafasida onasi unga: “Juda bo‘sh-bayov, oqko‘ngilsan-da! Urushda bundaylar pand yeydi. Rahmatli otang shunday derdilar. “Kuldan – uy, kuyovdan – o‘g‘il bo‘larmidi” deganlarning og‘zi qulog‘iga yetadigan bo‘ldi,”¹¹⁵ – deb aytadi. G‘oyibnazarning onasi uning ikki oilaga farzand bo‘lib, ro‘zg‘or tebratayotgani va endi urushga ketsa Enaqiz xola ham qiynalib qolishini o‘ylab xalqimizda mavjud bo‘lgan “Kuldan – uy, kuyovdan – o‘g‘il bo‘larmidi” maqolini keltiradi. Bu maqol orqali yana bir boshqa maqsadni ham ko‘rishimiz mumkin. G‘oyibnazarning oqko‘ngil, bo‘sh-bayovligiga ishora. Kuldan bo‘lgan uy yashashga yaramaganidek, kuyov baribir o‘g‘ildek bo‘lommaganidek, urushda bunday xarakterli insonlar qiyinalishi, pand yeyishini anglatmoqda.

“Qulon quduqqa qulasa” qissasi qahramonlarining deyarli barchasi o‘z nutqida xalq maqollaridan unumli foydalanadi. Murod qorovul ham yangi rahbar kelganida u haqidagi ma’lumotni qisqagina qilib “Yomg‘irdan qutulib, do‘lga tutilganga o‘xshaymiz”, (“K.T”: 225-b.) deya xalq naqli bilan ta’riflab beradi.

“Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissasida ham yozuvchi xalq maqollaridan keng va o‘rinli foydalangan. Hattoki asarda uchta epigraf keltirilgan. Har uchalasi ham xalq maqollari:

1. Inson bir – biriga qanot,

¹¹⁴ Қобул Н. Жохиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 48.

¹¹⁵ Қобул Н. Жохиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 104.

Bir-biriga ravot.

2. Odam odam bilan,
Pista bodom bilan.
3. Yegan og‘izga osh,
Yig‘lagan ko‘zga yosh.

(Xalq so‘zlari)¹¹⁶.

Asarda muallif Haqberdi chol tilidan “Insof ham katta gap. O‘g‘ri bo‘l, g‘ar bo‘l, evi bilan bo‘l” (13-b.), Ho‘jamurod oqsoqol tilidan “Bor bo‘lsa ko‘rolmaydi, yo‘q bo‘lsa berolmaydi” (28-b.), Enaqiz momo tilidan “O‘g‘il yer yetib, o‘rga ketar, qiz bo‘y yetib qirga ketar”, “Qiz bola palaxmon toshi” (35-b.) kabi maqollarni aytadi.

“Bo‘ri ovi” qissasidagi Hayitboy tog‘begi Jabborga nasihat berish davomida “Nonni katta tishlasang ham gapni katta gapirma” (178-b.), “O‘zagingni o‘zingniki uzadi”, “Obro‘ oshdan, janjal qarindoshdan”, “Yog‘ topganda yot yaxshi, qon ichganda qarindosh”, “Qari bilganni pari bilmas” (181-b.) kabi xalq maqollaridan foydalanadi.

Yuqorida keltirilgan maqollar, asosan, qahramonlarning o‘ziga yoki o‘zgaga bergen tavsifnomasiday taassurot qoldiradi. Har bir hech bo‘limganda bir qahramon nutqi maqol va matallar bilan bezatilgan bo‘ladi.

Yozuvchi qissalari va ulardagi maqollar bilan tanishish natijasida maqollarni ikkiga bo‘lish mumkin. Birinchisi, xalqona maqol va matallarning aynan keltirilishi; ikkinchisi, xalq og‘zaki ijodimizda mavjud maqol va matallarga navatorona yondashib, yangilangan variantini (yetti emas, o’n yetti o’lchab bir kes; boshingga qilich kelsa ham, rost so‘zingdan qaytma kabi) keltirish.

Keltirilgan maqollardan tashqari xalq orasida mavjud tayyor birikmalardan – matal, ibora, hikmatli so‘zlardan ham unumli foydalangan:

“Tantanadan keyingi kun”¹¹⁷ qissasida “it yotish, mirza turish”, “gadoyining itidek, bo‘zchining mokisidek”, “qiz kelganda onaning eski supurgisi ham qaltiraydi”, “oldidan oqqan suvning qadriga yetmaslik (oldingdan oqqan suvning

¹¹⁶ Қобул Н. Бўри ови. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 3.

¹¹⁷ Қобул Н. Кечиккан турналар. – Тошкент: Tafakkur, 2015. – Б. 232.

qadri yo‘q)”, “xudodan yashirmaganni, bandasidan yashirma”, “har to‘kisda bir ayb”, “bir kam dunyo”, “igna yutgan itdek ozg‘in”, “ular shoxida yursa, biz bargida yuramiz”, “yomon itga et bersang, qo‘lingni tishlar”, “arqonni uzun tashlamoq”, “ayron osh bo‘lmas, nodon bosh bo‘lmas”, “burnidan narini ko‘rmaslik”, “kayfi uchdi”, “itning keyingi oyog‘i”, “bozor ko‘rgan echki”, “bosh yorig‘i do‘ppi ostida”, “kalavaning uchini yo‘qotib qo‘ygan”, “paytavasiga qurt tushdi”, “yomg‘irdan so‘ng bodraydigan qo‘ziqorin kabi”, “qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan”, “bir kunlik ibodatdan bir soatlak ilm afzal”, “johilning ibodatidan, olimning uyqusi afzal”, “ot bilan bo‘lsa eshakning oxuri, rangi urmas, aksi urar oxiri”, “bo‘rini yo‘qlasang qulog‘i ko‘rinadi”, “qizning anqovidan, o‘g‘ilning yalqovidan asra”, “yaxshi itlar o‘ligini ko‘rsatmas, yomon itlar yalog‘iga yo‘latmas”, “yotniki yondan, o‘zniki jondan”, “ber tovog‘im, ol tovog‘im”, “bo‘rining yesayam yemasayam, og‘zi qon”, “ro‘zg‘or – g‘or”, “xotin yo‘lda, bola belda, ota-oni qayda”, “bor boricha, yo‘q holicha”, “ko‘rpasiga qarab oyoq uzatish”, “alifni kaltak deguvchi”, “qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga urgan”, “do‘stga zor, dushmanga xor, nomardga muhtoj qilmasin”, “qiz saqlaguncha tuz saqla”, “yetmish-ketmish, sakson-yakson, to‘qsan-yo‘qsan” va h.k. birikmalardan foydalangan.

“Qulon quduqqa qulasa”¹¹⁸ qissasida “do‘st tanlasang do‘stsiz, yor tanlasang yorsiz qolasan”, “mitaning yomoni tegirmondan tirik chiqqandek”, “kapalagi uchgan”, “egasidan et beklagan mushukdek”, “teng yeganni tangri suyibdi”, “olisdagini aravalaguncha oldingdagini to‘rvala”, “betining suvi besh tomib”, “qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan musicaday beozor”, “o‘pkasini qo‘ltiqlagancha”, “ko‘r ko‘rni qorong‘uda topganidek”, “zamonning to‘zganini, otdan eshakning o‘zganini ko‘r”, “tomdan tarasha tushgandek”, “me’yor, me’yordan oshgan murdor”, “bukrini yer to‘g‘irlaydi”, “pichoqqa ilinadigan..” kabi xalq naqllaridan, “Salom, tog‘lar” qissasida “o‘chsiz yurak – jonsiz buyrak”, “chumchuqdan qo‘rqan tariq ekmaydi”, “hafsalasi pir bo‘ldi”, “tepa sochi tik bo‘ldi”, “baraka

¹¹⁸ Қобул Н. Кечиккан турналар. – Тошкент: Tafakkur, 2015. – Б. 232.

top”, “qo’shganing bilan qo’sha qarigin”, “baxtingga farishtalar yor, pirlar madadkor bo’lsin” va h.k kabi maqol, ibora, olqishlarni keng qo’llagan.

“Sangzor”,¹¹⁹ qissasida ham “mum yutganday miq etmasdi”, “dami ichiga tushmoq”, “onadan qayta tug’ilganday”, “yelkamning chuquri ko‘rsin”, “tepamdan oltin sochishsa ham...”, “og‘zidagi oshni oldirmoq”, “kulini ko‘kka sovurmoq”, “ko‘z qorachig‘idek asramoq” kabi iboralardan o‘z o‘rnida mahorat bilan foydalangan.

“Bo‘ri ovi”,¹²⁰ to‘plamiga kiritilgan qissalarda ham qator xalq maqol, matal va iboralariga duch kelamiz. “Salla desa kallani olib keladigan”, “yetti uxbab tushiga ham kirmagan”, “siqsa suvi chiqmaydigan”, “ota go‘ri qozixonami”, “og‘zi oshga yetganda”, “yomon kunning yarog‘i”, “nonni katta tishlasang ham gapni katta gapirma”, “ikki oyoq bir etikka tiqilganda”, “qulog‘ingga quyib ol”, “qari bilganni pari bilmas” kabilar bunga misol bo‘ladi.

Yozuvchi qo’llagan maqollarni mazmuniga qarab bir necha turlarga ajratishimiz mumkin:

1. Jamoatchilik va xudbinlik: 1) Kir yuvgan kuni bitdan, kalla solgan kuni itdan, o‘lgan kuni domladan qutulamiz (KT: 190-b.). 2) Bor bo‘lsa ko‘rolmaydi, yo‘q bo‘lsa berolmaydi va h.k.

2. Mehnatsevarlik va ishyoqmaslik: 1) Oson joyda osh qayda (KT: 50-b.). 2) Buzoqning qochgani somonxonagacha (KT: 68-b.). 3) Jo‘qchilik jo‘martti jig‘adi (KT: 64-b.). 4) Yegan og‘izga osh, Yig‘lagan ko‘zga yosh (BO: 3-b.) va h.k.

3. Halollik va tekinxo‘rlik: 1) Ishing o‘ttiz bo‘lganda egasi to‘qqiz qilmasin (KT: 131-b.). 2) Och o‘ldirma to‘q o‘ldir, qish o‘ldirma yoz o‘ldir (KT: 187-b.). 3) O‘g‘ri bo‘l, g‘ar bo‘l, evi bilan bo‘l (BO: 13-b.). 4) Xudodan yashirmaganni, bandasidan yashirma. 5) Bosh yorig‘i do‘ppi ostida va h.k.

4. To‘g‘rilik va egrilik: 1) Yetti emas, o‘n yetti o‘lchab bir kes (KT: 187-b.).

¹¹⁹ Қобул Н. Жоҳиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 240.

¹²⁰ Қобул Н. Бўри ови. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 240.

5. Yaxshilik va yomonlik: 1) Ko‘cha to‘la ming kishi, kim bilan kimning ishi, har kimning o‘z tashvishi (KT: 131-b.). 2) Savobning tagi teshik (KT: 175-b.). 3) Yaxshi itlar o‘ligini ko‘rsatmas, yomon itlar yalog‘iga yo‘latmas va h.k.

6. Yaxshi va yomon so‘z: 1) Yaxshi niyat – yarim davlat (JQ: 7-b.). 2) Tilning uzuni dallolga kerak (KT: 175-b.). 3) Eshakni maqta-yu, otingni minaver (KT: 175-b.). 4) Bo‘rini yo‘qlasang qulog‘i ko‘rinadi va h.k.

7. Adolat, insof va insofsizlik: 1) Oltmishdan oshgan otadan osh so‘rama. 2) O‘zingnikini o‘ynab, o‘g‘lingnikini o‘ylab, qizingnikini qiynalib yer ekansan (KT: 125-b.). 3) Borning boshi og‘riydi, yo‘qning esa qorni (KT: 187-b.). 4) Indamagin kalga o‘zi kelar holga (KT: 68-b.). 5) Yomon itga et bersang, qo‘lingni tishlar. 6) O‘chsiz yurak – jonsiz buyrak. 7) Teng yeganni tangri suyibdi. 8) Me’yor, me’yordan oshgan murdor va h.k.

8. Do‘stlik va dushmanlik: 1) Ayrilganni ayiq yer, bo‘linganni bo‘ri (JQ: 7-b.). 2) Yerdan ajrasang ham eldan ajrama (JQ: 7-b.). 3) Odamning dardini odam oladi (JQ: 7-b.). 4) Bir onang do‘st, bir tanang do‘st (KT: 51-b.). 5) Inson bir – biriga qanot, Bir-biriga ravot (BO: 3-b.). 6) Odam odam bilan, Pista bodom bilan (BO: 3-b.). 7) Ot bilan bo‘lsa eshakning oxuri, rangi urmas, aksi urar oxiri. 8) Do‘st tanlasang do‘stsiz, yor tanlasang yorsiz qolasan va h.k.

9. Tenglik va tengsizlik: 1) Yo‘li uzunning qo‘li uzun (KT: 94-b.). 2) Tili uzunning qo‘li uzun (KT: 94-b.). 3) Kambag‘alning uyida qatiq ivimas. Kambag‘alning bir to‘ygani boyigani (KT: 51-b.). 4) Bo‘rining yesayam yemasayam, og‘zi qon. 5) Bor boricha, yo‘q holicha va h.k.

10. Donolik va nodonlik: 1) Oltmishgacha orqangga qara. 2) Domlaning aytganini qilu, qilganini qilma (KT: 187-b.). 3) Shoir deganing yozaveradi, ashulachi zoti aytaveradi (KT: 187-b.). 4) Ayron osh bo‘lmas, nodon bosh bo‘lmas. 5) Qari bilganni pari bilmas (BO: 181-b.) va h.k.

11. Ilm, kasb-hunar va ilmsizlik: 1) Bir kunlik ibodatdan bir soatlik ilm afzal. 2) Johilning ibodatidan, olimning uyqusi afzal. 3) Oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q va h.k.

12. Tarbiya va odat: 1) Betimning qattig‘i – jonimning huzuri (KT: 56-b.).
2) Ochning ongi, to‘qning mungi bo‘lmas. 3) Insonning tobutini inson ko‘taradi.
4) Birovga o‘lim tilaguncha, o‘zingga umr tila (JQ: 150-b.). 5) O‘zgalar ustidan kulma, sening ham ustingdan kulguvchilar bor (KT: 175-b.). 6) Odam yomon kunni ko‘rmay, yaxshi kunning qadriga, yomon odamni ko‘rmay, yaxshining qadriga yetmas ekan (KT: 175-b.). 7) Ko‘rmaganning ko‘rgani qursin. 8) Qiz kelganda onaning eski supurgisi ham qaltiraydi va h.k.

13. Mehmon va mehmondo‘stlik: 1) Mehmon bo‘lsang mushtday bo‘l, uchib o‘tgan qushday bo‘l (KT: 125-b.) va h.k.

14. Go‘zallik va xunuklik: 1) Er qarisa erki ketar, xotin qarisa ko‘rki.

15. Kamtarlik va manmanlik: 1) Nonni katta tishlasang ham gapni katta gapirma.

16. Baxt, omad va baxtsizlik: 1) Har yigitning o‘choqboshisi sov bo‘lsa, ishi dov bo‘ladi (KT: 93-b.). 2) Ha, dunyoyi qo‘tir. Afsusu armon degan tepaning ustiga chiqib o‘tir (KT: 93-b.). 3) Chumchuqdan qo‘rqan tariq ekmaydi va h.k.

17. Epchillik va noshudlik: 1) Shoshgan o‘rdak ham boshi bilan sho‘ng‘iydi, ham dumi bilan (KT: 187-b.). Har to‘kisda bir ayb. Qizning anqovidan, o‘g‘ilning yalqovidan asra va h.k.

18. To‘g‘ri so‘z va yolg‘onchilik: 1) Boshingga qilich kelsa ham, rost so‘zla (KT: 67-b.). 2) Nomardning oshidan mardning mushti afzal (KT: 67-b) va h.k.

19. Qarindosh-urug‘chilik: 1) Uzoqning donidan yaqinning somoni yaxshi (JQ: 54-b.). 2) Oqibatsiz qarindoshdan begona bo‘lsa ham qo‘shni ma’qul (JQ: 55-b.). 3) Obro‘ oshdan, janjal qarindoshdan (JQ: 55-b.). 4) Otadoshim omon bo‘lsin. O‘chog‘idan o‘t bermasayam, dog‘i dardini ko‘rsatmasin (KT: 36-b.). 5) Jigar dardi olmosdir. Kuymaganga qo‘ymasdir (KT: 37-b.). 6) Et bilan tirnoqni ajratib bo‘lmaydi (JQ: 7-b.). 7) Oshni ko‘z, oshnani ko‘ngil taniydi (KT: 190-b.). 8) O‘g‘li yo‘qning o‘rni yo‘q (JQ: 48-b.). 9) Qizi yo‘qning qadri yo‘q (JQ: 48-b.). 10) Kuldan – uy, kuyovdan – o‘g‘il bo‘larmidi (JQ: 104-b.). 11) O‘g‘il yer yetib, o‘rga ketar, qiz bo‘y yetib qirga ketar (BO: 35-b.). 12) Qiz bola palaxmon toshi (BO: 35-b.). 13) O‘zagingni o‘zingniki uzadi (BO: 181-b.). 14) Yog‘ topganda yot

yaxshi, qon ichganda qarindosh (BO: 181-b.). 15) Yotniki yondan, o‘zni ki jondan. 16) Xotin yo‘lda, bola belda, ota-onal qayda. 17) Qiz saqlaguncha tuz saqla va h.k.

Maqollardan tashqari keltirilgan tayyor birikmalarni matallar, iboralarga bo‘lishimiz mumkin.

Matallar: “tepamdan oltin sochishsa ham...”, “yetti uxbab tushiga ham kirmagan”, “og‘zi oshga yetganda”, “yomon kunning yarog‘i”, “salla desa kallani olib keladigan”, “it yotish, mirza turish”, “ota go‘ri qozixonami”, “gadoyining itidek, bo‘zchining mokisidek”, “itning keyingi oyog‘i”, “yomg‘irdan so‘ng bodraydigan qo‘ziqorin kabi”, “ishi g‘irib, oshig‘i olchi tushib yurgan”, “ber tovog‘im, ol tovog‘im”, “eshak eshakdan ortda qolsa qulog‘ini kesgandek”, “otdan qolma baytalim deb”, “yomg‘irdan qutulib, do‘lga tutilganga o‘xshaymiz”, “mitaning yomoni tegirmondan tirik chiqqandek”, “betining suvi besh tomib”, “egasidan et beklagan mushukdek” va h.k.

Iboralar: “dami ichiga tushmoq”, “onadan qayta tug“ilganday”, “yelkamning chuquri ko‘rsin”, “og‘zidagi oshni oldirmoq”, “kulini ko‘kka sovurmoq”, “ko‘z qorachig‘idek asramoq”, “siqsa suvi chiqmaydigan”, “ikki oyoq bir etikka tiqilganda”, “qulog‘ingga quyib ol”, “igna yutgan itdek ozg‘in”, “ular shoxida yursa, biz bargida yuramiz”, “arqonni uzun tashlamoq”, “burnidan narini ko‘rmaslik”, “kayfi uchdi”, “bozor ko‘rgan echki”, “kalavaning uchini yo‘qotib qo‘ygan”, “paytavasiga qurt tushdi”, “qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan”, “ko‘rpasiga qarab oyoq uzatish”, “alifni kaltak deguvchi”, “qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga urgan”, “qo‘li kaltalikda o‘sgan kishining tepasi o‘yiq bo‘larkan”, “katta oxurdan yem yeb o‘rgangan”.

“Qulon quduqqa qulasa” qissasida “kapalagi uchgan”, “olisdagini aravalaguncha oldingdagini to‘rvala”, “qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan musichaday beozor”, “o‘pkasini qo‘ltiqlagancha”, “ko‘r ko‘rni qorong‘uda topganidek”, “zamonning to‘zganini, otdan eshakning o‘zganini ko‘r”, “tomdan tarasha tushgandek”, “bukrini yer to‘g‘irlaydi”, “pichoqqa ilinadigan..” kabi “Salom, tog‘lar” qissasida “hafsalasi pir bo‘ldi”, “tepa sochi tik bo‘ldi” va h.k. tayyor birikmalardan foydalangan.

Yozuvchi xalq maqollari va matallaridan tashqari xalqimiz tomonidan ishlatalidigan olqishlar, duolar va qarg‘ishlarni ham qissalariga olib kirgan. “Johillik va qotillik” qissasida enaga Suyunboy: – Suruvimiz Qo‘shqo‘rada, urug‘ingga o‘t tushgur bo‘rilar hech tinchlik bermayapti”, – deydi¹²¹. Suyunboy tilidan aytilgan “urug‘ingga o‘t tushgur” qarg‘ishini, odatda, xalqimiz insonlarga nafi tegmaydigan, aksincha ko‘p zarar yetkazadiganlar uchun ishlatadi: o‘t-o‘lanlar, jonivorlar, odamlar. Qissada ham Suyunboy qo‘ylariga zarar keltirayotgan bo‘rilarga nisbatan bu qarg‘ishni qo‘llagan. Qarg‘ishning m’nosи esa urug‘i bilan yo‘q bo‘lib ketishini, qayta ko‘karmaslik, qayta tug‘ilmasligini istashdir.

“Salom, tog‘lar” qissasida ham G‘oyibnazarning onasi bir necha o‘rinlarda o‘g‘lini xalqimizda mavjud qarg‘ishlar bilan qarg‘aydi: “G‘oyibnazar bog‘ chetiga arqonlab qo‘ygan buzoq bo‘shalib ketib, onasini emib qo‘yibdi. Bechora G‘oyibnazarning boshiga ne balolar yog‘ilmadi. Hammasi mayli-ku-ya, ammo Toshbuvi xolaning bir gapi Zulayhoning ham jon-jonidan o‘tib ketdi: –Yomonligingdan otangning boshini yegansan, yer yutkur”, – dedi o‘g‘liga. Tavba, qanday qilib u o‘g‘liga shunday deydi-a (44-b.)? “Yer yutkur” qarg‘ishini jahl ustida ona o‘z bolasiga aytadi. Zulayhoning onasi esa aksi. U ham qizini ba’zan qarg‘aydi. Lekin yomon iboralar bilan emas, aksincha yaxshi so‘zlar bilan: – Bo‘lsang-chi, uy yutmagur, sheriklaring O‘rtaqirga yetishdi-ku bobillab berdi Enaqiz xola (43-b.). O‘tin terishga kech qolayotgan qizini qarg‘ash uchun “yutgur” so‘zini “yutmagur” deya iashlatadi. Yana bir o‘rinda boshbog‘idan bo‘shab ketgan uloqlarga qaramagani uchun onasi uni koyiydi: – Ha, uyingga bug‘doy to‘lgur, Zulayho-yuv, manavi zormandalarni ushla-a, boshbog‘idan chiqib ketibdi-ku! – deya hovlidan turib chaqirdi Enaqiz xola (49-b.). Aslida ham xalqimizda farzandlarni qarg‘ayotganda chiroyli niyatlarni ishlatish kerak, chunki har bir gapga farishtalar “omin” deydi degan qarash mavjud. Shu sabab, ehtimol, Zulayhoning onasi qizini chiroyli so‘zlar bilan qarg‘aydi. Bu o‘rinda ham qizini “uingga bug‘doy to‘lgur” deya yaxshi niyat bildirib koyiydi.

¹²¹ Қобул Н. Жохиллик ва қотиллик. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 5.

Shu bilan birga youvchi xalqimiz tomonidan ishlatiladigan duo va olqishlarni ham asarlarida qo'llaydi. Olqish – duo bor joyda yaxshi kayfiyat, yaxshi tilak, yaxshi niyatlar bor. Ijodkor xalqning qalb qo'ridagi eng yaxshi tabarruk so'zлari ham duo-olqishlar ekanligini hamma biladi. “Olqish” atamasi turkiy tillarda “maqtash, sharaflash, yaxshi istaklar tilash” kabi ma'nolarni anglatadi. Xalq og‘zaki ijodida insonparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan mustaqil janr sanaladi. Chunki insonga ezgulikni sog‘inish, uning ruhiyatini ko’tarish, ezgulik sari yo’naltirish, yaxshi niyatlar tilashdan iborat ulug‘vor insonparvarlikni tashviq va targ‘ib etish duo-olqishlarning g‘oyaviy mazmunini belgilab beradi.

Zulayho G‘oyibnazar bilan unashtirilgach, tuguncha qilib Nurmon boboning oldiga boradi:

- Assalomu alaykum, Nurmon bovo! – dedi Qorako‘z hayajondan bir oz tutilib, jaranglagan ovozda.
- Vaalaykum assalom,.. Enaqiz yaxshi yuribdimi...
- ...Sizga salom aytib yubordilar.
- Salomat bo‘lsin, bolalarining huzurini ko‘rsin, – deya alqaydi (79-b.).

Nurmon bobo Zulayhoning to‘y bo‘layotganligini eshitib unga “oxiridan suyuntirsin”, “qo‘sha qaringlar” (79-b.) deya yuziga fotiha fotiha tortadi.

Onasining yo‘qlovi uchun ham “ – Baraka topsin, meni yo‘qlagan bo‘lsa, uni xudo yo‘qlasin, el-yurt yo‘qlasin!” (80-b.) – deb olqishladi.

Zulayho xayrashar ekan bobo uni duo qildi: Omin, bo‘tam, qo‘shganing bilan qo‘sha qarigin! Baxtingga farishtalar yor, pirlar madadkor bo‘lsin! (84-b.)

“Tantanadan keyingi kun” qissasida Do‘nonni bozorga jo‘natayotgan ona ham farzandini duo qiladi: – Xudo yoring bo‘lsin, bolam, oy borib, omon qayt! Akalaring qatori seni ham songa kiritgan xudoyimdan aylanay. Yaratgan, boshi toshdan qattiq ota-onas zotini qizning anqovidan, o‘g‘ilning yalqovidan asrasin (99-b.)!

Yozuvchi qissalarida tilimizda mavjud, xalqimiz tomonidan ko‘p ishlatiladigan duo, olqish, qarg‘ishlardan foydalanadi. Shuningdek, maqol va matallarni ham kitobxonlarga manzur keladigan holatda, o‘z o‘rnida qo’llaydi.

Qissalaridan tashqari tarixiy romanlarida ham xalq maqollaridan epigraf sifatida foydalangan. Xususan, “Temuriylar epopeyasi”ning birinchi kitobi “Turkiston sultoni Temurbek” tarixiy romanidagi bir necha boblarga xalq so‘zлari epigraf sifatida tanlangan:

Bo‘lar elning bolasi,

Bir-birini botir der.

Bo‘lmas elning bolasi,

Bir-birini yotib yer!

Xalq naqli (birinchi bob)¹²².

Yomondan yaxshi bo‘ldi deb suyunma,

Yaxshidan yomon bo‘ldi deb kyunma.

Xalq so‘zi (to‘rtinch bob, 85-b.).

Tuya mingan odam qo‘y orasiga berkinmas.

Xalq so‘zi (o‘ninch bob, 135-b.).

Keltirilgan xalq naqlari bobda beriladigan voqealar uchun, asarda ishtirok etadigan obrazlar uchun umumiy tavsifnomalar desak bo‘ladi.

“Yetti iqlim xoqoni yoxud ahd va taxt” tarixiy romanida ham xalq maqollaridan foydalangan.

“O‘zingning o‘zgaga qilgan yaxshililingni, o‘zganing o‘zingga qilgan yomonligini unutib yasha. Xalq so‘zi”¹²³ (uchinch bob), “Qum yig‘ilib tosh bo‘lmas, qul yig‘ilib bosh bo‘lmas. Xalq so‘zi” (beshinch bob, 45-b.), “Betkay ketar, bel qolar, beklar ketar, el qolar. Xalq so‘zi” (o‘n oltinch bob, 181-b.), “Davlat bitsa yomonga, o‘zin sanar xoqonga. Xalq so‘zi” (yigirma yettinchi bob, 317-b.), “It terisi po‘st o‘lmas, Ota dushman do‘st o‘lmas. Xalq so‘zi” (O‘ttizinch bob, 356-b.), “Itni o‘ldirganga sudratadilar. Xalq hikmati” (O‘ttiz ikkinchi bob, 382-b.). Bu romanda keltirilgan maqollar bugungi kunda iste’molda kam uchraydigan maqollardir. Bu maqollarning sinonimlari ham mavjud. Lekin yozuvchi aynan iste’molda kam qo‘llanilayotganini romaniga olib kirishdan

¹²² Qobul N. Turkiston sultoni Temurbek. – Toshkent: Ma’rifat bitiklari, 2020. – B. 21.

¹²³ Qobul N. Yetti iqlim xoqoni yoxud ahd va taxt. – Toshkent: IJOD-PRESS, 2015. – B. 29.

maqsad, bizningcha, ularni kitobxonlarga, ayniqsa, yoshlarga eslatish va iste'molda saqlab qolish.

Bu kabi misollarni uzoq davom ettirish mumkin.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, xalq maqollarini nasriy asarlarga olib kirib, muallif bayon qilayotgan fikrlari bilan omuxtalashtirishi yozuvchidan katta mahorat talab qiladi. Demak, Nurali Qobulni yuqoridagi tahlillardan bu borada juda katta mahoratga ega yozuvchi deyishimiz mumkin.

Xalqimizda mavjud terminlarni, shevaga xos so'zlarni, ibora, matal va maqollarini asarlarga olib kirish yaxshi, albatta. Kitobxon voqeа rivoji bilan birga xalq maqollari bilan ham tanishib boradi. Lekin yozuvchining bu boradagi kamchiligi barcha qissalari qahramonlari gaplarini maqol-u matallarga urashadi. Hayotda esa bunday emas. Yaqinlarimizdan bir yoki ikki kishi shunday gapirishi mumkin, biroq hamma ham shunday gapiravermaydi. Asarda ham shunday haqiqat bo'lishi kerak. Har bir xarakter-u personajning individual nutqi bo'lishi lozim. Biroq eng muhimi – N.Qobul zamonaviy mavzuni folklor an'analari bilan uyg'unlashtirib bugungi qissachiligidizning ifoda imkoniyatlarini kengaytiganligida, uni yangi sifat bosqichiga ko'targanligidadir.

Yuqoridagi tahlillar va fikrlardan kelib chiqib, uchinchi bobimizga quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin:

1. Nurali Qobul qissalarida folklorizmlarning, jumladan, urf-odat, an'ana, marosim, maqol, matal, afsona, rivoyat, mifologik qarashlarning rang-barang ko'rinishlari kuzatiladi.

2. "Bo'ri ovi" qissasida adib turkiylarning katta va obro'li urug'laridan bo'l mish Ashin qavmining ko'k yoki kulrang bo'ri totemidan mohirona foydalangani asar badiiyatini ta'minlagan.

3. Yozuvchi Nurali Qobul toponimik rivoyatlardan ham unumli foydalangan. Xalq orasida mavjud bo'lgan joy nomlari bilan bog'liq rivoyatlarni qissalariga mohirlik bilan singdirgan. Keltirgan rivoyatlar asosan muallifning eshitganlari bo'lib, "enamning aytishlaricha" bayoni ostida beriladi. Yozuvchi bayon qilgan rivoyatlarda realistik xarakter ko'zga tashlanib turadi.

4. Ertak motivining kiritilishiga sabab uzun qish kechalarida har bir o‘zbek oilasida ertaklar aytilishi tabiiy xol bo‘lsa, ikkinchidan, yozuvchi nazarda tutgan badiiy maqsadlar. Botir Erdanacho‘kki qiyin damlarda odamlarning bir-biriga yordamiga qiyoslansa, jodugar kampir ocharchilik balosiga qiyoslanyapti. G‘oyibnazarning onasining ahvolini yoritib berishga ham xizmat qilgan.

5. Yozuvchining qissalarida eng ko‘p qo‘llanilgan folklorizmlardan biri maqollardir. U maqol va hikmatli so‘zlarni ba’zan o‘z holicha, ba’zan voqealarni singdirib tasvirlaydi. Asosan, biror voqealarni tafsilini berib yoki berishdan oldin bu voqeadan chiqadigan hukm-xulosasini xalq maqollari yoki hikmatli so‘zlar orqali bayon qiladi.

6. Asar syujetida qo‘llanilgan “hikoya ichidagi hikoya” usuli ba’zi o‘rinda voqealarni ochishga xizmat qilgan bo‘lsa, ba’zan esa personajlar ruhiyatidagi holat yuzasidan xabar berish vazifasini bajaradi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Nurali Qobul yaratgan qahramonlar sho‘rolar mafkurasiga moslashtirilgan ommaparvar stereotip obrazlardan keskin farq qilmasa-da, ularning o‘z taqdiri, o‘z “men”i bor. Buni biz “Salom, tog‘lar” qissasi qahramonlari Zulayho va G‘oyibnazar taqdirlari misolida ko‘ramiz.

2. Urush shunday kulfatki, shunday yovki, u barcha ezguliklarni toptab yo‘q qilishga ham qodir. Bolalikka xos nurli kechinmalar ham, beg‘ubor sevgi ham ba’zan unga bardosh bera olmaydi. “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissasida “Hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun” shiori ostida ikkinchi jahon urushi davrida front orti hayotida yo‘l qo‘yilgan ko‘plabadolatsizliklar, beshafqatliklar, kaltabin, xudbin rahbarlarning front orti mehnat jahbalarida oddiy xalq ustida olib borgan noinsoniy siyosatlarining oqibat natijasi jang maydonlarida yuz berayotgan xunrezliklardan mohiyatan farq qilmaganligi haqqoniyl talqin etilgan. Nurali Qobulning “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissasi ham, “Oq qayin qo‘shig‘i” qissasi ham kitobxonga urushda g‘oliblar bo‘lmashagini mudom eslatib turadigan katta bir insoniy dardning ifodasi o‘laroq yuzaga kelgan asarlardir.

3. Yozuvchi Nurali Qobul obraz tizimi tarkibiga kiruvchi personaj, detal, joy, makon, davr kabilarni asar kompozitsiyasiga mohirlik bilan birlashtirgan. Ularning badiiy-estetik ta’sirini oshirish uchun muallif nutqi, monolog, dialog kabi shakllardan hamda turli badiiy tasviriy va ifodaviy vositalardan unumli va o‘rinli foydalangan. “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissasida mahoratli adib nozik ta‘b ruhshunos kabi o‘quvchi ongu shuurini avval boshdanoq butunlay zabit etish uchun davr va muhit qiyofasini yoritishda peyzaj tasviridan o‘rinli foydalangan.

4. Nurali Qobul o‘z ijodi bilan adabiyotga Baxmal koloritini – o‘zi tug‘ilib o‘sgan qishlog‘i, mag‘rur tog‘lari, baxmalliklar hayot tarzi, urf-odatlari, shevasini olib kirdi. Nurali Qobulning inson va tabiat munosabatiga bag‘ishlangan qissalarida tabiat go‘zalliklari: viqorli tog‘lar, azim daryolar, sho‘x soylar, chechaklar barq urib yotgan so‘qmoqlar, musaffo osmon, oppoq pardek bulutlar, yam-yashil daraxtlar, sirli o‘rmonlar, sayroqi qushlar, barcha-barchasi inson zavq

olishi uchun yaratilgan. Ular o‘rtasida muvozanat buzilmasligi kerak deya tasvirlanadi.

5. Nurali Qobul qissalarida tabiat tasvirlariga – inson va tabiat, inson va jonivor, inson va o‘simliklar olami munosabatiga duch kelamiz. Bular bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi, bir-birisiz yashay olmasligini, birining ikkinchisiga ta’siri, bir-biriga bo‘lgan munosabatlar javobsiz qolmasligi, e’tibor rag‘batlantirilishi, befarqlik va salbiy munosabatning jazolanishini ko‘rishimiz mumkin. Nurali Qobul inson va tabiat birligi aks etgan qissalarida to‘g‘rilik, halollik, vijdonlilik haqidagi fikrlarini bildirib o‘tadi. Yozuvchi insonlarning tabiatga, jonivorlarga yetkazayotgan zararlari haqidagi fikrlarini tog‘begi va cho‘pon obrazlari ruhiy konfliktlari orqali yanada kengroq ochib bergen.

6. Ziddiyat, konflikt badiiy asar uchun ahamiyatli. Chunki hayot ham, voqeliklar ham ziddiyatlar majmuidan iborat. Shunday ekan, hayotning badiiy in’ikosi bo‘lmish badiiy asarda ham ziddiyat va qarama-qarshiliklar bo‘lishi tabiiy hol. “Tubsiz osmon” qissasida birgina bolaning hayoti, qarashlari, uning atrofida bo‘layotgan ziddiyatlar orqali ijtimoiy muammolarni ko‘tarib chiqishga erisha olganligi yozuvchining mahoratidan dalolat beradi. Ham ekologik, ham biologik muammolarni olib tasvirlar ekan, muallif voqeа bayonini o‘quvchiga yetkazish uchun bola tilidan bayon qilish usulni qo‘llagan. Bu usul qissanavisning ichki kechinmalarini ifodalashga ko‘proq imkon bersa, bolaning idroki yetmaydigan ba’zi joylarini yozishda qiyinchilik tug‘diradi.

7. Nurali Qobul qissalarida folklorizmlarning rang-barang ko‘rinishlarini uchratish mumkin. Urf-odatlar, an’analar, marosimlar, olqishlar, maqollar, matallar, ertaklar, mifologik qarashlar, afsonalar, rivoyatlar kabi. Ayniqsa, turkiylarning ilk qarashlarida, qardosh xalqlar adabiyotida ham mavjud totemlar bilan bog‘liq rivoyatlarni mahorat bilan qissalariga olib kirgan.

8. Yozuvchi Nurali Qobul toponimik rivoyatlardan ham unumli foydalangan. Xalq orasida mavjud bo‘lgan joy nomlari bilan bog‘liq rivoyatlarni qissalariga mohirlik bilan singdirgan. Keltirilgan rivoyatlar asosan muallifning

eshitganlari bo‘lib, “enamning aytishlaricha” bayoni ostida beriladi. Yozuvchi bayon qilgan rivoyatlarda realistik xarakter ko‘zga tashlanib turadi.

9. Xalqimizda it va ot haqida, ularning vafodorligi haqida har xil rivoyatlar yuradi. Itning vafodorligi, o‘z egasiga sodiqligi to‘g‘risida o‘zbek va jahon adabiyotida ko‘plab asarlar yaratilgan. She’r, hikoya, adabiy ertak, qissa, balladalarda it obrazi alohida mavzu, uning vafosi esa bosh g‘oya sifatida kuylangan. “Tubsiz osmon” qissasida ham it va bola do‘stligi orqali jamiyatdagiadolatsizliklarni ochib bergan.

10. Yozuvchining qissalarida eng ko‘p qo‘llanilgan folklorizmlardan biri maqollardir. U maqol va hikmatli so‘zlarni ba’zan o‘z holicha, ba’zan voqeamazmuniga singdirib tasvirlaydi. Asosan, biror voqeа tafsilini berib yoki berishdan oldin bu voqeadan chiqadigan hukm-xulosasini xalq maqollari yoki hikmatli so‘zlar orqali bayon qiladi.

11. Yozuvchi qissalari syujetida qo‘llanilgan “hikoya ichidagi hikoya” usuli ba’zi o‘rinda voqealarni ochishga xizmat qilgan bo‘lsa, ba’zan esa personajlar ruhiyatidagi holat yuzasidan xabar berish vazifasini bajaradi.

12. Umuman olganda, Nurali Qobul qissalarini bilan o‘zbek adabiyoti va jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shtigan ijodkordir. Adib qissalarini hayotiyligi, obrazlarining tabiiyligi, syujet va kompozitsion jihatdan pishiqligi, poetik nutqining individualligi bilan zamonaviy o‘zbek nasrida muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 489 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. [Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маъruzаси] // Халқ сўзи. 2017. 4 август.
3. Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли: Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишлиланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи. 2019. 22 октябр.
4. Мирзиёев Ш.М. Агар жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва рухи маънавиятдир [Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев раислигида маънавий–маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг хамкорлигини кучайтириш масалалари бўйича видеоселектордаги нутқи] // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2021. 22 январ № 4.

II. Milliy-nazariy adabiyotlar

1) Milliy nashrlar

5. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – 352 б.
6. Адабиёт назарияси. I жилд. – Тошкент: Фан, 1978. – 416 б.
7. Адабиёт назарияси. II жилд. – Тошкент: Фан, 1979. – 306 б.
8. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 560 б.
9. Болалар энциклопедияси. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий

- энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2009. – 664 б.
10. Эшонқул Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999. – 172 б.
 11. Эшонқул Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадиий талқини. 2-боб. – 172 б.
 12. Фромм Э. Инсон қалби. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 100 б.
 13. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. – Тошкент: Маънавият, 2010. – 392 б.
 14. Жуманазаров У., Абдураҳмонова Д. Кичик ёшдаги ўқувчиларни миллий урф-одатлар воситасида тарбиялаш. – Тошкент: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 80 б.
 15. Карим Б. Қодирий насри – нафосат қасри. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – 232 б.
 16. Карим Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Faфур Ғулом номидаги НМИУ, 2018. – 364 б.
 17. Мирвалиев С. Ўзбек адиблари. – Тошкент: Фан, 1993. – 248 б.
 18. Назаров Б., Расулов А., Қаҳрамонов Қ., Ахмедова Ш. Ўзбек адабий танқидчилиги тарихи. – Тошкент: Чўлпон номидаги НМИУ, 2012. – 432 б.
 19. Пардаева З. Ўзбек романни поэтикаси. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2003. – 144 б.
 20. Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – 224 б.
 21. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 412 б.
 22. Қосимов У. Адабиётнинг ҳаётбахш кучи. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – 208 б.
 23. Қаршибоев М. Маънавий юксалиш йўлида. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 104 б.
 24. Қўшжонов М. Моҳият ва бадиият. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – 232 б.
 25. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Тошкент: Фан, 2006. – 117 б.
 26. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 336 б.
 27. Раҳимжонов Н. Бадиий асар биографияси. – Тошкент: Фан, 2008. – 151 б.

28. Раҳмонов Н. Рухиятдаги нур муроди. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – 182 б.
29. Ризоева М. Ўзбек халқ мифологик афсоналари. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA. 2021. – 148 б.
30. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – 272 б.
31. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: 2004. – 252 б.
32. Султонова М. Пейзаж санъати. – Тошкент: Фан, 1983. – 120 б.
33. Соатова Н. Шуҳрат адабий меросида анъана ва маҳорат. – Тошкент: VNESHINVESTPROM, 2022. – 202 б.
34. Умиров С. Санъатнинг сеҳрли калити. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 99 б.
35. Умиров Х. Бадиий ижод асослари. – Тошкент: ЎЗБЕКИСТОН, 2001. – 120 б.
36. Умиров Х. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 250 б.
37. Умиров Х. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – 262 б.
38. Хушбоқов Ж. Ички дард туғёни. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 104 б.
39. Хушбоқов Ж. Юрагимнинг сурати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – 416 б.
40. Хушбоқов Ж. Туркий дунё ёғдуси. – Тошкент: 2021. 22 б.
41. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Иқтисодмолия, 2007. – 304 б.
42. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 362 б.
43. Йўлдошев Қ. Ёник сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 548 б.
44. Йўлчиев Қ. Нурали Қобулнинг прозаик маҳорати. – Тошкент: Маърифат битиклари, 2021. – 250 б.
45. Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. – Тошкент:

Nurafshon business, 2021. – 333 б.

46. Завқиддин С. Тоғай Мурод насирида образлар поэтикаси. – Тошкент: Мұхаррір, 2020. – 160 б.
47. Ўлжабоев У. Хотирада чизилган излар. – Тошкент: Ғафур Гулом номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси, 1992. – 200 б.
48. Ўлжабоев У. Адабиёт – күнгил кўзгуси. – Тошкент: Турон замин зиё, 2017. – 215 б.
49. Ўлжабоев У. Замон талаби ва ижодкор масъулияти. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2012.
50. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, II жилд. 2020. – 672 б.
51. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, III жилд. 2020. – 688 б.
52. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, V жилд. 2020. – 592 б.
53. Ғафуров И. Ўттиз йил изҳори. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 400 б.
54. Шарафиддинов О. Ижодни англаш баҳти. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 238 б.

2) Horijiy nashrlar

55. Бахтин М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусство, 1986. – 445 с.
56. Чернец Л. Литературные жанры. – Москва: Издательство Московского университета, 1982. – 488 с.
57. Хализев В. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1999. – 405 с.

II. Diniy manbalar, adabiyotlar

58. ҚУРЬОНИ КАРИМ маъноларининг таржимаси. – Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёти, 2001. – 618 б.

III. Badiiy adabiyotlar

59. Айтматов Ч. Жамила: қисса. – Тошкент: Шарқ, 2005. – 32 б.
60. Айтматов Ч. Сарвқомат дилбарим. Қиссалар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1969. – 542 б.
61. Айтматов Ч. Сомон йўли: қиссалар. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт–матбаа ижодий уйи, 2019. – 312 б.
62. Айтматов Ч. Оқ кема. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. – 432 б.
63. Аҳмад С. Танланган асарлар: III жилдлик. Жилд III: Хотиралар. Адабий ўйлар. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 336 б.
64. Hamdam U. Ota. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2023. – 200 б.
65. Ҳошимов Ў. Сайланма: Икки жилдлик. Жилд 2. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002, – 544 б.
66. Ҳошимов Ў. Дафтар ҳошиясидаги битиклар/тўлдирилган ва қайта ишланган нашри. – Тошкент: Шарқ, 2012. – 34 б.
67. Ҳусайниний Х. Минг қуёш шуъласи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. – 688 б.
68. Жалолиддин Румий. Ичиндаги ичиндадур. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – 240 б.
69. Навоий А. Хамса. Насрий баён / Алишер Навоий; Нашрга тайёрловчи Ў.Йўлдошев. – Тошкент: Наврўз нашриёти, 2019. – 712 б.
70. Навоий А. Маҳбуб ул–қулуб. – Тошкент: Сано–стандарт, 2018. – 192 б.
71. Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. Биринчи жилд. Шеърлар ва достонлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2000. – 432 б.
72. Пауло Коэло. Алкимёгар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. – 184 б.
73. Қахҳор А. Анор. Қисса ва ҳикоялар тўплами. – Тошкент: Ғафур Ғулом Адабиёт ва санъат нашриёти, 2012. – 200 б.
74. Қобул Н. Тубсиз осмон // Шарқ юлдузи. – Тошкент: 1980. № 6. – Б 125—157.

75. Қобул Н. Янги қор ёққан кун // Шарқ юлдузи. – Тошкент: 1981. № 8. – Б 7–29.
76. Қобул Н. Яшашга кечикма // Шарқ юлдузи. – Тошкент: 1983. № 2.
77. Қобул Н. Кечиккан турналар (матн): қисса ва ҳикоялар / Н.Қобул. – Тошкент: Тафаккур, 2015. – 232 б.
78. Қобул Н. Жоҳиллик ва қотиллик – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – 240 б.
79. Қобул Н. Бўри ови. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – 240 б.
80. Қобул Н. Маймунлар мамлакати ёхуд ёввойилар орасида. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – 246 б.
81. Qobul N. Yetti iqlim xoqoni yoxud ahd va taxt. – Toshkent: IJOD-PRESS, 2015. – 480 b.
82. Qobul N. Turkiston sultoni Temurbek. – Toshkent: Ma'rifat bitiklari, 2020. – 320 b.
83. Тургенов И. Муму. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985. – 80 б.
84. Толстой Л. Уруш ва тинчлик / роман / 3–4-китоблар / – Тошкент: Камалак нашриёти, 2019. – 738 б.
85. Уч булбул гулшани. – Тошкент: Fafur Fulom nomidagi Adabiёт ва san'yat нашриёти. 1986. – 649 б.
86. Умарбеков Ў. Уруш фарзанди. – Тошкент: Turon zamind нашриёти. 2023. – 192 б.
87. Холмирзаев Ш. Сайланма: V жилд: Қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 2016. – 480 б.
88. Ўзбек халқ мақоллари. (тузувчилик: Т.Мирзаев ва б.) – Тошкент: Шарқ, 2016. – 512 б.
89. Фулом F. Мукаммал асарлар тўплами. 2-том. –Тошкент: Фан, 1989. – 324 б.
90. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2019. – 240 б.

IV. Dissertatsiyalar va avtoreferatlar

91. Қосимов А. Адабиётда болалик маънавий-ахлоқий категория сифатида (А.де Сент–Экзюперининг “Кичкина шахзода” ва Ч.Айтматовнинг “Оқ кема” асарлари асосида): Филол. фанлари номз. ...дисс. – Тошкент, 1999. – 127 б.
92. Файзуллаев Х.Н. Нормурод Норқобилов насида инсон ва табиат муаммосининг поэтик талқини. Фил.фан.фал.док (PhD) диссер. автореферати. – Қарши, 2021. – 48 б.
93. Jumayev E. Mustaqillik davri o‘zbek romanlarida Amir Temur obrazi talqinlarining qiyosiy tahlili (Muhammad Ali va Nurali Qobul romanlari misolida) Filol. fan. fal. Dok (PhD). diss. – Qarshi, 2023. – 147 b.
94. Каримова Ю. Пиримқул Қодиров қиссаларида маънавий–ахлоқий муаммоларнинг бадиий талқини: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2005. – 135 б.
95. Кўбаев Қ. Ўзбек қиссаларида тарихий ҳақиқат ва бадиий маҳорат (60–80 йиллар): Филол. фанлари номз. ...дисс. – Тошкент, 2001. – 132 б.
96. Бобохонов М.Р. Ҳозирги ўзбек қиссачилигига психологизм. Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2012. – 156 б.
97. Мирзаев И.О. Янгича тафаккур ва ҳозирги ўзбек насрининг тараққиёт йўллари. Филол. фан. д–ри. дисс. – Тошкент, 1991.
98. Рустамова М.Й. Истиқлол даври ўзбек қиссаларининг тараққиёт тенденциялари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2005. – 140 б.
99. Раджапова Ф. Истиқлол даври ўзбек қиссачилигига услугуб ва поэтик тил. Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 48 б.
100. Расурова У. XX аср ўзбек қиссачилиги поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари: Филол. фан. д–ри ...дисс. – Тошкент, 2020. – 249 б.
101. Soatova N. XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida Shuhrat ijodining o‘rnini filolog..fan. doktori (DSc) disser. avtoreferati. – Buxoro, 2023. – 70 b.
102. Тўйчиев А.Х. Нурали Қобул насири поэтикаси (ҳикоя ва қиссалари мисолида): Филол. фан. фалсафа д–ри (PhD)...дисс. – Гулистон, 2021. – 152 б.

103. Uzoqov A. O‘zbek prozasida Amir Temur obrazining gavdalanish tamoyillari. Filol. fan. falsafa doktori (PhD). diss.– Guliston: 2023. – 136 b.
104. Холмуродов А. Ўзбек қиссачилиги: тараққиёт муаммолари. Филол. фан. д–ри ...дисс. – Тошкент, 2008. – 249 б.
105. Холдоров Д. Ҳозирги ўзбек қиссаларида бадиий услуб муаммоси (Шойим Бўтаев ва Назар Эшонқул қиссалари мисолида). Филол. фан. фалсафа д–ри. (PhD) дис... автореф. – Тошкент, 2017. – 48 б.
106. Хамроқулова X.Қ. XX аср ўзбек насирида ҳаёт ва ўлим муаммосининг бадиий талқини: Филол. фанлари д–ри ...дисс. – Тошкент, 2018. – 252 б.
107. Тошева Н.Ш. Ҳозирги ўзбек насирида фольклорга оид воситаларнинг поэтик функцияси (Исажон Султон насири мисолида): Филол. фанлари бўйича фалсафа докт. (PhD)...дисс. – Тошкент, 2020. – 160 б.
108. G’niyev M. Tarixiy romanda syujet va kompozitsiya (Nurali Qobulning “Sultonning so‘nggi kuni yoxud Amir Sohibqiron va To‘xtamishxon” romanini misolida) Filol. fan. falsafa doktori (PhD)... diss.– Farg‘ona: 2022. – 140 b.

V.Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

109. Абдуллаев М. Зиддиятлар талқини // Ўзбекистон маданияти. – Тошкент: 1979. № 31.
110. Алимов Б. ...Тубсиз осмон ҳақида кўп ўйлардим // Шарқ ўлдузи. – Тошкент: 1983. № 3. – Б. 179–180.
111. Аҳмедов А. Тарихий воқеликнинг тўғри идроқи // Н.Қобул. Чингизхоннинг олтин тахти. – Тошкент: Камалак, 2015. – Б. 337–338.
112. Аҳмедов А. Шонли тарихимизнинг ёрқин саҳифалари // Н.Қобул. Қадарнинг ғариб жилваси – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 379–380.
113. Абдусамадов А. Муқаддас эътиқод ва ватанга муҳаббат рамзи // Н.Қобул. Чингизхоннинг олтин тахти. – Тошкент: Камалак, 2015. – Б. 341–350.
114. Абдусамадов А. Адабиёт яшаса миллат яшайди // Н.Қобул. Тириклик

- саодати. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 435–457.
115. Бекмирзаев Н. Умид нишонаси // Шарқ юлдузи. – Тошкент: 1980. № 5. – Б. 239.
116. Каримов Б. Бир “тўзал ёзғич” // Ўзбекистан адабиёти ва санъати. – Тошкент: 2014. № 14.
117. Karimov B. Qodiriy so‘zining qadri. // So‘z xiyoboni. – Toshkent: Fan, 2020. – В. 97-110.
118. Каримова Ю. Адабиёт – маънавият фарзанди. // Тафаккур ва талқин. – Тошкент: Турон замин зиё, 2016. – Б. 9–12.
119. Махмудов М., Пардаев А. Ҳар кимнинг ўз осмони бор // Ёш ленинчи. – Тошкент: 1981. № 38.
120. Норматов У. Саргузашт сардори // Шарқ юлдузи. – Тошкент: 1912. № 4. – Б. 123.
121. Назаров Б. Тарихий ҳақиқат ёғулари ёхуд ўзликни бадиий англаш // Н.Қобул. Етти иқлим хоқони ёхуд аҳд ва тахт. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б. 457– 477.
122. Пирриев М. Қалами чархланган адаб // Н.Қобул. Чингизхоннинг олтин тахти. – Тошкент: Камалак, 2015, – Б. 341.
123. Қўшжонов М. Эътиқод // Ёшлиқ. – 1982. – № 2.
124. Қўрқув салтанати (Адиб Сайд Аҳмад билан Ўткир Ҳошимов сұхбати) // Шарқ юлдузи, –1989. –№4. –Б. 173.
125. Қобул Н. Ватан ва миллат қадрига етган ҳаққа етади...// Жиззах ҳақиқати. – 1994. – № 23.
126. Қобул Н. Муаллиф ўз асари ҳақида (“Унутилган соҳиллар”) // Ёшлиқ. – Тошкент: 1988. № 8.
127. Қобул Н. Ватанинг англамоқ йўлида... // Хабар. – Тошкент: 1993. № 46.
128. Қобул Н. Ватандин яхши ёр ўлмас. – Тошкент: Камалак, 1994. – Б. 176.
129. Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологиясига доир // Ўзбек тили ва адабиёти.1980. 4-сон. – Б. 34.
130. Салом М. Адабиётнинг қудрати, ёзувчининг кучи... // Н.Қобул. Салтанат

- тулпори. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 403–408.
131. Тўхтабоев X. Прозамизнинг ёрқин уфқлари // Шарқ юлдузи. – Тошкент: 1984. № 5. – Б. 197.
132. Тўробова Б. Шеърий мактуб // Н.Қобул. Султон қаршисидаги шайтон. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2018. – Б. 411– 413.
133. Йўлчиев Қ. Қадим тарихнинг бадиий талқини // Н.Қобул. Қадарнинг ғарип жилvasи. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 394– 430.
134. Ёқубов О. Адабиётимиз келажаги. // Ўзбекистон маданияти. – 1980. – № 36. 2–б.
135. Ёқубов И. Ҳозирги ўзбек романлари поэтик структурасида қўшиқ ва лапарларнинг ўрни // Н.Қобул. Қадарнинг ғарип жилvasи. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2017. – Б. 380–394.

VI. Internet nashrlari

136. <https://uz.wikipedia.org>
137. <https://kh-davron.uz>
138. <https://ziyouz.com>
139. <https://arbob.uz>
140. <https://diss.natlib.uz>